



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

**YETIM VA OTA-ONA  
QARAMOG'ISIZ  
QOLGAN BOLALARNI  
IJTIMOIY HIMOYA  
QILISH TIZIMI**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA**

**2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIV - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIV UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIV) MARKAZI**

**“YETIM VA OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOIV  
HIMOYA QILISH TIZIMI”  
moduli bo‘yicha  
O‘QUV–USLUBIV MAJMUVA**

**Toshkent -2024**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** O‘zMU, “Ijtimoiy ish” kafedrasida dotsenti, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) E.Zaitov

**Taqrizchilar:** sos.f.d, prof. N.Latipova – O‘zbekiston milliy universiteti, sos.f.d. prof. Sh.Sodiqova – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof. S.Karimov – Samarqand davlat universiteti.

***O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil 20-yanvardagi № 4/2 -sonli bayonnomasi)***

## MUNDARIJA

1. Ishchi dastur.....	5
2. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan itierfaol talim metodlari .....	10
3. Nazariy mashg‘ulot materiallari.....	14
4. Amaliy mashg‘ulotlar materiallari.....	99
5. Glossariy.....	105
6. Adabiyotlar ro‘yxati.....	109

## **I.ISHCHI DASTUR**

### **Kirish**

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF- 5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamlitexnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

### **Modulning maqsadi:**

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy- metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- “Ijtimoiy ish” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish; -mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta‘minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;
- “Ijtimoiy ish” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimining yangi bosqichi;
- Davlat pensiya ta‘minoti tizimidagi islohotlar, ularni o‘rganishning zarurligi va asosiy yo‘nalishlarini;
- Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari;
- Nogironlik tushunchasining modellari mohiyatini tushunishni;
- Ijtimoiy fanlarda foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmualarini **bilishi** kerak.

#### **Tinglovchi:**

- Ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish;
- eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarini ishlab chiqish;
- innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- ilg‘or tajribalardan foydalanish;

- o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o‘qitish tizimini qo‘llash;
- Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta‘minotini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar amaliyoti fanlari bo‘yicha ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- axborot kommunikatsion texnologiyalari va ularni qo‘llashning ilmiy- nazariy va amaliy ahamiyatini bilish;
- Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta‘minotini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar amaliyoti fanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- ijtimoiy fanlarni turli sohalarga tatbiq qilish;
- ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- nogironligi bor shaxslarni rehabilitatsiya qilish texnologiyalarini bilish
- inklyuziv ta‘limni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlarini bilish;
- Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning ijtimoiy muammolari tahlilini bilish;
- ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
- ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishlash;
- videodarslarni tayyorlash;
- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;
- ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;
- Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta‘minotini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar amaliyotiga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

#### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Xorijiy davlatlardagi kredit ta‘lim tizimlari: Amerika Qo‘shma Shtatlar kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to‘plash va o‘tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o‘tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida ta‘lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta‘minlashning innovatsion metodlari. Kredit- modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta‘minoti. Sillabus. Ta‘lim natijalari (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta‘lim natijalarini baholash usullari.

Ta‘lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta‘lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish.

Ta‘lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining ta’lim- tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta’lim standartlari, tegishli ta’lim (mutaxassislik) yo‘nalishlari bo‘yicha davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv rejalar va o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va Uzviyligi**

“Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta’minotini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish”, “Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari”, o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish hamda ularning ijtimoiy himoya tizimi haqida bilish va ulardan foydalanish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda ular bilan ijtimoiy ish olib borish usullaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## **MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar tushunchalari va ularning mohiyati.	4	2	2	
2.	Yetimlik sotsial hodisa sifatida institutsionalashuvi	8		2	
3.	Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar muammolariga bog‘liq tadqiqotlar.	4	2	2	6
4.	Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy Himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalarida aks ettirilishi.	8	2		
5.	Erta ijtimoiy yetimlikni oldini olish muammosi: nazariya va amaliyot.	4	2	2	6
	<b>Jami:</b>	<b>28</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>12</b>

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1- mavzu. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar tushunchalari va**



### **ularning mohiyati. (2-soat)**

- 1.1 Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga oid tushunchalarningizohi.
- 1.2 Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish.
- 1.3 Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishtizimi.

### **2-mavzu. Yetimlik sotsial hodisa sifatida institutsionalashuvi**

- 2.1 Yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o‘rganilishi.
- 2.2 Sharq mutafakkirlari qarashlarida yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o‘rganilishi.
- 2.3 O‘zbekistonda yetimlik sotsial hodisa sifatida institutsionalashuvi.
- 2.4 G‘arbda yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o‘rganilishi.

### **3- mavzu. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar muammolarigabog‘liq tadqiqotlar. (2-soat)**

- 3.1 Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning ijtimoiy muammolari tahlili.
- 3.2 Jamoatchilik muassasalarida rivojlanishiga oid tadqiqotlar tahlili jahon tajribasida deinstitutionalizatsiya masalasi.
- 3.3 O‘zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar.
- 3.4 Tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiyahon tajribasida deinstitutionalizatsiya masalasi.
- 3.5 O‘zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar.

### **4- mavzu. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashmasalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalarida aks ettirilishi. (4-soat)**

- 4.1 Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashmasalalariningxalqaro tajribasi.
- 4.2 Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashmasalalariningxalqaro va milliy qonunchilik normalari.
- 4.3 Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamdaularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi.
- 4.4 O‘zbekistonda yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni noinstitutionlashtirish muammolari

### **5- mavzu. Erta ijtimoiy yetimlikni oldini olish muammosi: nazariya va amaliyot. (2-soat)**

- 5.1 Go‘dak yoshdagi bolalarning rivojlanishida institutsionallashuvning ta’siri.
- 5.2 Bolani yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar muassasasiga“vaqtincha” joylashtirish.
- 5.3 Farzandidan voz kechish niyatida bo‘lgan ayollar bilan ishlashning xalqaro tajribalari.

### **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

- 4.2.1 **amaliy mashg‘ulot.** Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalartushunchalari va ularning mohiyati. (2 soat).

4.2.2 **amaliy mashg‘ulot.** Yetimlik sotsial hodisa sifatida institutsionalashuvi

4.2.3 **amaliy mashg‘ulot.** Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar muammolariga bog‘liq tadqiqotlar. (2 soat).

4.2.4 **amaliy mashg‘ulot.** Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalarida aks ettirilishi (4 soat).

4.2.5 **amaliy mashg‘ulot.** Erta ijtimoiy yetimlikni oldini olish muammosi va nazariya va amaliyot. (2 soat).

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

Ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab bilish aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash); davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **I. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

### **Xulosalash (Rezyume, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiyfikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatma materialga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namuna:

Tahlil turlarining qiyosiy tahlili					
Tizimli tahlil		Syujetli tahlil		Vaziyatli tahlil	
Afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Muammoni kelib	Alohida	O'z vaqtida	Munosabat	Vaziyat	Dinamik
chiqish sababli va kechish jarayonini aloqadorligi jihatidan o'rganish imkoniyatiga ega	tayyorgarlikka ega bo'lishni, ko'p vaqt ajratishni talab etadi	munosabat bildirish imkoniyatini beradi	boshqa bir syujetga nisbatan qo'llanishga yaroqsiz	ishtirokchilarining (obyekt va subyekt) vazifalarini belgilab olish imkonini beradi	xususiyatni belgilab olish uchun qo'llanilmasligi
<p><b>Xulosa:</b> Tahlilning barcha turlari ham o'zining afzalligi va kamchiligi bilan bir biridan farqlanadi. Lekin, ular qatoridan pedagogik faoliyat doirasida qaror qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish joriy kamchiliklarni bartaraf etishga, mavjud resurslardan maqsadli foydalanishda afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi.</p>					

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	• ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### Namuna.

**Fikr:** *“Tizim atrof muhitdan ajralgan, u bilan yaxlit ta’sirlashuvchi, bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan elementlar majmuasi bo‘lib, tadqiqotlar obyekti sanaladi”.*

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy

mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javobni baholash mumkin.



### Test

- 1. Tizim qanday so'zdan olingan?
- A. modulus
- V. modulis
- S. model



### Qiyosiy tahlil

- Optner, Kveyd, Yang, SR, Golubkov modellarini o'ziga xos jihatlarini ajrating?



### Tushuncha tahlili

- Mexanik tizim tushunchasini izohlang



### Amaliy ko'nikma

Tizimli tahlilni amalga oshirish uchun mavjud tahlil modellarida "SR-modelini qo'llash tartibini bilasizmi?"

## II. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1- MAVZU. YETIM VA OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALAR TUSHUNCHALARI VA ULARNING MOHIYATI.

#### Reja:

1. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga oid tushunchalarning izohi.
2. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish.
3. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi.

**Tayanch so‘zlar:** *yetim, ijtimoiy yetim, biologik yetim, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolala, qarovsiz qolgan bolalar, ijtimoiy qarovsiz qolgan bola, davlat ko‘magiga muhtoj bo‘lgan bolalar, institutsionalizatsiya.*

#### 1. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga oid tushunchalarning izohi.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar har qanday sababga ko‘ra ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bo‘lib hisoblanadi. Yetim bolalar bundan mustasno, chunki yetim bolalar - otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan, deb e‘lon qilingan bolalardir.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar - ota-onasining mavjud emasligi, ular ota-onalik huquqlarining qisman cheklanganligi yoki mahrum etilganligi, bedarak yo‘qolgan yoki muomala layoqati cheklangan (qisman cheklangan) deb topilganligi sababli yagona yoki har ikki ota-onasi qaramog‘isiz qolgan bolalardir.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar - tibbiy muassasalarda davolanayotgan ota-onalarning farzandlari, ozodlikdan mahrum qilish asosida jazoni o‘tash muassasalarida yoki qamoqda saqlanilayotgan, jinoyatni amalga oshirganligi haqida gumon qilinayotgan va jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan ota-onalarning bolalari, farzandlarini tarbiyalashdan yoki ular huquq va manfaatlarini himoyalashdan, o‘z farzandlarini tarbiya, davolash va boshqa muassasalardan qaytarib olishdan bosh tortayotgan ota-onalarning farzandlaridir.

Ijtimoiy yetim - biologik ota-onasi mavjud bo‘lgan holda ota-ona e‘tibori va mehridan bebahra qolgan bolalardir.

Ijtimoiy yetimlar deganda, voz kechilgan bolalar, tashlandiq bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki sud tomonidan muomalaga layoqatsiz (ruhiy kasallik sababli) deb topilgan ota-onalarning farzandlari, ota-onasi ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazoni o‘tayotgan yoki turar joyi va qayerdaligi noma‘lum bo‘lgan ota-onalarning farzandlari tushuniladi.

Qarovsiz qolgan bolalar – aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan bolalardir.

Ijtimoiy qarovsiz qolgan bola – ijtimoiy moslasha olmaganlikning xatar darajasida turgan va ruhiy hamda jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bola, bilish faoliyati bilan shug‘ullanish, mehnat qilishga intilish, hayotiy istiqbollarni belgilash

kabi istak-xohishning shakllanmaganligi, urushqoqlik, spirtli vositalarni qabul qilish, mayda o'g'rilik, bezorilik, daydilik kabi salbiy fazilatlar bilan tavsiflanuvchi bola.

Davlat ko'magiga muhtoj bo'lgan bolalar—ota-onasi noma'lumbolalar, o'limi tufayli har ikki yoki yagona ota-onasini yo'qotganlar, oiladan ajratib olingan, ota-onalik huquqi cheklangan yoki undan mahrum bo'lgan ota- onalarning farzandlari, nazoratsiz, shuningdek, ularni boqish vatarbiyasi bilan shug'ullanish imkoniyatiga egabo'lmagan surunkali kasallikka uchragan ota-onalarning farzandlari, muomalaga layoqatsiz (yoki muomala layoqati qisman cheklangan) deb topilgan yoki bedarak yo'qolgan (o'lgan) deb e'lon qilingan ota-onalar, ozodlikdan mahrum qilish asosida jazonio'tash muassasalarida yoki qamoqda saqlanilayotgan ota-onalar, jinoyatni amalga oshirganligi haqida gumon qilinayotgan va jinoyat sodir etganligi bo'yicha ayblanayotganlarning bolalari, qon hujjatlarida belgilangan tartibda davlat himoyasiga muhtoj deb topilgan boshqa bolalar.

Institutsionalizatsiya - biror-bir hodisa yoki harakatning tashkiliy muassasaga aylanishi, muayyan tuzilmaga oid munosabatlarning, tartib- intizom, xulq-atvor qoidalarining tartibga solinishi jarayoni.

Deinstitutsionalizatsiya – ommaviy muassasalarda (Mehribonlik uylari, Muruvvat uylari) tarbiyalanayotgan shaxslarning (shu jumladan, bolalarning ham) joylashtirish va vasiylikning muqobil shakllariga ko'chirish siyosati. Internat tipidagi bolalar sonining sezilarli ravishda qisqarishi, oilaviy joylashtirish shakllarining rivojlantirilishi, bolalar uchun muassasalarning ko'maklashuv xizmatlariga aylantirilishi deinstitutsionalizatsiyaning yakuniy maqsadi hisoblanadi. Qiyin hayotiy vaziyatdagi oila va bolalarga majmuaviy, manzilli va malakali ko'mak ko'rsatilishining ta'minlanishi orqali ijtimoiy yetimlikni oldini olish deinstitutsionalizatsiya siyosatini amalga oshirilishida muhimdir.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasa – sog'liqni saqlash tizimi muassalari (Bolalar (go'daklar) uyi), ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari (ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun Muruvvat uylari), xalq ta'limi muassasalari (Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchasi, maxsus maktab-internatlar).

Ota-onalik huquqidan mahrum etish – oilada tarbiyalanayotgan bolaning huquqlarini muhofazalashga, ota-ona tomonidan shafqatsiz munosabatda qolishidan, ularning zararli ta'siridan (masalan, ota-onasi surunkali piyonista yoki giyohvand bo'lsa) yoki ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishidan himoyalashga qaratilgan qonuniy chora.

Ota-onalik huquqidan mahrum etish faqat sud orqali amalga oshiriladi. Sudga ariza davlat va jamoatchilik tashkilotlari, ota- onalardan biri yoki bolaning vasiyi (homiyi), vasiylik va homiylik organi tomonidan berilishi mumkin. Ota- onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota- onalar bola bilan qarindoshlik qilish bo'yicha deyarli barcha huquqlardan mahrum bo'ladi, biroq bu ularni boqish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlaridan ozod etmaydi. Sud tomonidan ota- onalik huquqidan mahrum qilinganligi haqidagi qaror tasdiqlanishi bilan bir vaqtda bolaga aliment to'lash

masalasi ham qo'yiladi. Har ikki ota-onaning ota-onalik huquqidan mahrum etilishi vaziyatlarida bola vasiylik va homiylik organlari g'amxo'rligiga beriladi.

### **1.Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish.**

Aholiga ijtimoiy xizmat bevosita ijtimoiy xodimlar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy xodim keksalar, mehnatga yaroqsiz fuqarolarga qarovchi mutaxassis hisoblanadi. G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy mutaxassislar XIX asr o'rtalaridan oliy va o'rta maxsus ta'lim yurtlarida, diniy muassasalarda tayyorlana boshlagan.

Odatda, ijtimoiy xizmatlar hamma uchun mumkin bo'lgan ish hamda bu xodimlardan kasbiy malakasini talab etmaydigan ijtimoiy foydali mehnat hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarning farqli jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ishsizlar uchun maxsus mo'ljallangan vaqtinchalik ish o'rinlarini yaratadi;
- zarur hollarda bunday ish o'rinlari miqdorini kam sarf qilgan holda sezilarli oshirish mumkin;
- xodimlar ommaviy tarzda ishdan bo'shatilgan hollarda ish miqdori va hajmini tez oshirish mumkin;
  - to'liq bo'lmagan ish kunini va moslashuvchan jadvali ishlarni tashkil qilish mumkin;
  - bunday ish o'rinlari mintaqa uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologikfoydali hisoblanadi;
    - o'qishni tugatgan va o'ziga doimiy ish topa olmagan yoshlar uchun ishga joylashish imkonini beradi.

Ijtimoiy xodim bo'lib ishlash istagini bildirgan fuqarolar bilan muddatli mehnat shartnomasi tuziladi, bunday bitim tuzishga ustuvor huquqdan ishsizlik bo'yicha moddiy yordam olmaydigan ishsiz fuqarolar foydalanadi. Ijtimoiy xodimning lavozim majburiyatiga yolg'iz keksalar va xizmat ko'rsatish hududida yashovchi fuqarolarni aniqlash kiradi. Ijtimoiy xodimlar ular uyiga tushliklarni, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlarni, sanoat mollari va boshqa tovarlarni yetkazib beradi, xonani yig'ishtirish, yuvishga, yuviladigan ro'zg'or buyumlari, usti-boshlarini kirxonalarga, kimyoviy tozalashga topshirishga ko'maklashadi, uy- ro'zg'or anjomlarini ta'mirlashda, maishiy xizmat va boshqa xizmatlarga haq to'lashda ko'maklashadi. Shuningdek, ular shifokorga borgungacha xizmatlarni(harorat o'lchashni, gorchitsa qo'yishni, istitgich tayyorlashni, uyga shifokor chaqirishni) amalga oshiradi, turar-joyni ta'mirlashni, hovli-bog'ga ishlov berishni, yoqilg'i bilan ta'minlashni va boshqalarni tashkillashtiradi. Shular bilan bir qatorda, ijtimoiy xodim yordam ko'rsatish, qo'llab- quvvatlash, tashkilotchilik hamqilishi mumkin, u sanitariya-gigiyena talablarini uy sharoitida keksa va mehnatga yaroqsizlarga tadbiq etishni, keksa yoshdagi shaxslar bilan ishlash xususiyatlarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Ijtimoiy xodimning vazifalari:

- dorixonaga borib kelish;
- ovqat pishirish;
- parvarish qilish;



- uy tozalash;
- kir va idish yuvish;
- bozor-o‘char qilish;
- avvalgi ishxonasi bilan aloqada bo‘lish.

Ijtimoiy xizmatlar mavjud bo‘lgan mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar tasarrufidagi vositalar majmui quyidagilardan iborat:

- pul yordam tizimi, bu mehnatga qobiliyatsiz kishilar, muhojirlar va qochoqlarga doimiy, vaqtinchalik, bir yo‘la va maqsadli moddiy yordamlarni o‘z ichiga oladi;
- natura ko‘rinishidagi yordam tizimi;
- tibbiy xizmat tarzidagi yordam tizimi;
- ijtimoiy muassasalarni tashkillashtirish;
- psixologik maslahatlar va mashqlar;
- o‘qitish va qayta tayyorlash kurslari (asosan muhojirlar uchun).

Bu vositalardan samarali foydalanish tegishli tashkiliy tuzilma bo‘lgandagina mumkin.

Ta’kidlash lozimki, ijtimoiy xodim xizmatlarni loyihalashtirish jarayonida bevosita ijtimoiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi, xizmat bo‘linmalari: “ijtimoiy homiylar” lavozim jadvali, ruhiy yordam xizmati xodimi, ishga joylashtirish xodimi; ijtimoiy yordamga muhtojlar haqida ma’lumot to‘plash xizmati va shunday yordam samarasini baholash; umumiy qarorlar qabul qilish, mutaxassislar moddiy resurslarini taqsimlash vazifasini bajaruvchi boshqarish xizmati kabi modellardan foydalanishi mumkin.

Aholiga xizmat ko‘rsatishda ijtimoiy xodimning odobi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, ijtimoiy xodimning odobi odob me’yorlari majmui hisoblanib, ijtimoiy xodimlar va ular faoliyatini tartibga soluvchi jamiyat tomonidan tuziladi.

Bu me’yorlar olti guruhga ajraladi:

1. Ijtimoiy xodim xulqi va qiyofasi (xulqning oliy namunalariga, ijtimoiy xodimga munosib bo‘lganlariga amal qilish; o‘z kasbiy malakasini takomillashtirish; ijtimoiy xodim kasbiy majburiyatlarini to‘g‘ridan- to‘g‘ri o‘z majburiyatlari sifatida qarash; o‘z xulq-atvorini kasbiy vijdonlikning yuqori namunalari bilan qiyoslash; ilmiy tadqiqotlar olib borishda tegishli shartnomalarga amal qilish);
2. O‘z mijozlariga bo‘lgan munosabati (mijozlarga munosabat bo‘yicha mas’uliyatni o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’suliyati sifatida qarash; ularda yuqori darajada mustaqillikning yuzaga chiqishiga ko‘maklashish; mijozlardan olingan ma’lumotlarni tarqatmaslik; ko‘rsatilayotgan yordam va mijozlar imkoniyatidan kelib chiqib, gonorar belgilash);
3. Hamkasblariga bo‘lgan munosabati (o‘z hamkasblariga hurmat vaishonch bilan munosabatda bo‘lish; ularning mijozlari bilan kasbiy to‘la safarbar holda ish olib borish);
4. Hamkorlik qiladigan tashkilotlariga munosabati (tegishli tashkilotlar oldidagi majburiyatlariga sodiq bo‘lish);
5. O‘z kasbiga bo‘lgan munosabati (o‘z kasbi ijtimoiy ahamiyatini tushunishga ko‘maklashish; o‘z ijtimoiy yordamini aholi keng qatlamiga yetibboradigan tarzida

bo'lishiga erishish; o'z kasbiy faoliyatida bilimlardan faol foydalanish);

6. Jamiyatga bo'lgan munosabati (umumiy farovonlik oshishiga hissa qo'shish). Shunday qilib, ijtimoiy xodim mehnatga qobiliyatsiz aholi qatlamiga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis bo'lib, ularning ko'rsatayotgan ijtimoiy xizmatining sifat va saviyasini oshirish muhtoj aholi ijtimoiy himoyasining samaradorligini ko'tarishga yordam beradi.

18-yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolishi mumkin, bunda ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish kerak bo'ladi. Bunday vaziyatlar qatoriga nogironlik, yetimlik, nazoratsizlik, qarovsizlik, oiladagi qattiqqo'l munosabat va h.k.lar kiradi. Konkret vaziyatga bog'liq holda bolalar va o'smirlarga ijtimoiy yordam va xizmatni turli ijtimoiy xizmatlar va tashkilotlar ko'rsatadilar. Yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Yetim-bolalar ikkala ota-onasi yoki ulardan biri o'lib ketgan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir; ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar – bu otaonasining mavjud emasligi yoki ularning ota-onalik huquqlarini olib tashlanganligi, ota-onalik huquqlarini cheklanganligi, ota-onalarni bedarak yo'q bo'lib ketgan deb tan olinishi, ota-onalikka layoqatsizligi (qisman layoqatliligi), davolanish muassasalarida ekanligi, ularni o'lgan deb e'lon qilinganligi, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotganligi, jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan va gumon qilinayotganlarni qamoqda ushlab turish muassasalarida ekanligi bilan bog'liq holdagi qarovsiz qolgan; bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan ota-onalarni bo'yin tovlashi, ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari va boshqa shunga o'xshash muassasalardan olib ketishini rad etish va boshqa hollarda esa qonun tomonidan belgilangan tartibda bolani otaonasining qarovsiz qolib ketgan deb tan olinishi bilan bog'liq holdagi qarovsiz qolgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir.

Yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun quyidagi ta'lim muassasalari turlarini yaratilgan:

– bolalar uyi (go'daklar (0 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha, maktab yoshidagi bolalar uchun va aralash);

– yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun bolalar uymaktabi, maktab-internat;

– rivojlanishdan qolib ketgan yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun maxsus (korreksion) bolalar uyi;

– rivojlanishdan qolib ketgan yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun maxsus (korreksion) maktab-internat.

Ushbu muassasalarning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– uy sharoitlariga yaqinlashtirilgan, shaxsni aqliy, emotsional va jismoniy

rivojlanishiga ko‘mak beruvchi ijobiy sharoitlarni yaratish;

- tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy ko‘nikma hosil qilishi va tibbiy-psixologikpedagogik rehabilitatsiyasi, ijtimoiy himoyasini ta‘minlash;

- ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish, davlat va jamiyat, shaxs manfaatlari uchun tarbiyalash va ta‘lim berish;

- tarbiyalanuvchilarning sog‘ligini saqlash va mustahkamlanishini ta‘minlash.

Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish. Organizm funksiyalarining buzilish darajasi va hayot faoliyatini cheklanishiga bog‘liq holda nogironligi bo‘lganlar deb tan olingan shaxslarga nogironlik guruhi o‘rnatiladi, 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga esa nogironligi bo‘lgan bolatoifasi o‘rnatiladi.

Ta‘lim muassasalari aholini ijtimoiy himoya qilish organlari va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda nogironligi bo‘lgan bolalarga maktabgacha, maktabdan tashqari tarbiya va ta‘lim berilishini, nogironni rehabilitatsiya qilishning individual dasturiga muvofiq holda nogironligi bo‘lganlarga umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus-kasbiy ta‘lim va oliy kasbiy ta‘lim berilishini ta‘minlaydilar.

Maktab yoshigacha bo‘lgan nogironligi bo‘lgan bolalarga zaruriy rehabilitatsion choratadbirlar ko‘rsatiladi va umumiy turdagi maktabgacha bolalar muassasalarida ularni yashashi uchun sharoitlar yaratiladi. Sog‘lig‘i umumiy turdagi maktabgacha bolalar muassasalarida yashashiga yo‘l qo‘ymaydigan nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha muassasalar yaratiladi. Umumiy yoki maxsus maktabgacha va umumta‘lim muassasalarida nogiron bolani tarbiyalash va ta‘lim berishning imkoni bo‘lmasa ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari nogironbolaning ota-onasining ruxsati bilan to‘liq umumta‘lim yoki individual dastur asosida ularni uyida o‘qitilishini ta‘minlaydi.

Nogironligi bo‘lgan bolani uyda o‘qitilishini tashkillashtirish uchun davolashprofilaktika muassasining xulosasi asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy ta‘lim dasturlarini amalga oshiruvchi ta‘lim muassasasi nogiron- bolaga uyda ta‘lim berishni odatda yashash joyiga eng yaqin bo‘lgan muassasa amalga oshiradi.

Uyda ta‘lim olayotgan nogironligi bo‘lgan bolaga ta‘lim muassasasi quyidagilarni ta‘minlaydi:

- o‘qitish davri davomida ta‘lim muassasasi kutubxonasida mavjud bo‘lgan, bepul darsliklar, o‘quv, ma‘lumotnoma va boshqa adabiyotlarni berilishini;

- pedagogik xodimlar qatoridan mutaxassislar bilan ta‘minlaydi,

- umumta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun kerakli uslubiy va maslahat yordamini beradi;

- oraliq va yakuniy attestatsiyani amalga oshiradi;

- yakuniy attestatsiyadan o‘tganlarga mos ravishdagi ta‘lim haqida davlat namunasidagi hujjatni beradi.

Davlat akkreditatsiyasiga ega va umumta‘lim dasturlarini amalga oshiruvchi nodavlat ta‘lim muassasasida nogiron-bolani tarbiyalanishi va o‘qitilishiga faqatgina

unda tarbiyalash va o'qitish uchun maxsus ta'lim sharoitlarining mavjudligi, xususan nogironligi bo'lganlarni reabilitatsiya qilishning individual dasturini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan maxsus ta'lim dasturlarini, korreksion usullarini, texnik vositalarini, hayotiy faoliyat muhitini, maxsus tayyogarlikka ega pedagoglarning mavjudligi, shu jumladan, ularsiz nogironbolalarni umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishi mumkin bo'lmagan (qiyin bo'lgan) tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va boshqa sharoitlar bo'lgani holadigina yo'l qo'yiladi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, balog'atga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, bolag'atga yetmaganlar safiga nazoratsiz, qarovsiz bo'lgan yoki ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar kiradi. Nazoratsiz bola – bu ota onalari yoki boshqa qonuniy vakillari yoki mansabdor shaxslar tomonidan uni boqish va (yoki) o'qitish, tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarni bajarilmasligi yoki yetarli darajada bajarilmasligi oqibatida xulq-atvori nazoratga olinmagan balog'atgayetmagan shaxsdir; qarovsiz bola – bu turar joyga va (yoki) borar joyga ega bo'lmagan nazoratsiz bola; ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan balog'atga yetmagan bola – bu nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'ligi uchun uni boqish va tarbiyalash talablariga javob bermaydigan holatga tushib qolgan yoki tartibbuzarlik yoxud jamiyatga qarshihatti-harakatlarni oshirib yurgan shaxsdir. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- balog'atga yetmagan bolalarni nazoratsizligini profilaktika qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, nazoratsiz va qarovsiz balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan, balog'atga yetmagan bolani tarbiyalash, boqish bo'yicha va (yoki) ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir o'tkazayotgan yoki ular bilan shafqatsizlarcha munosabatda bo'layotgan, o'z majburiyatlarini bajarmayotgan ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillariga nisbatan individual profilaktika ishlarini tashkillashtiradi;

- ijtimoiy reabilitatsiya muhtoj balog'atga yetmagan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus muassasalar faoliyatini, bolag'atga yetmagan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatayotgan boshqa muassasalar va xizmatlar faoliyatini nazorat qiladi, shu jumladan, aytib o'tilgan muassasalar tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarniamalga oshiradi;

- bolag'atga yetmagan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatayotgan muassasalar va xizmatlar faoliyatiga ijtimoiy reabilitatsiya qilishning zamonaviy texnologiyalari va usullarini kiratadi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish muassasalari tarkibiga kiruvchi bolalar va oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatishning hududiy markazlari, aholiga psixologik, pedagogik yordam ko'rsatish markazlari, tezkor psixologik yordam ko'rsatish markazlari va boshqa ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari, ushbu muassasalarning nizomlariga muvofiq quyidagilarni amalga oshiradilar:

– bolag‘atga yetmagan bolalar, ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari iltimoslari yoki balog‘atga yetmagan bolalar huquqbuzarligini va nazoratsizligini profilaktika qilish tizimi muassasalari va organlarining mansabdor shaxslari tashabbusi asosida ijtimoiy xavfli vaziyatda yoki boshqa og‘ir hayotiy vaziyatda qolib ketgan bolag‘atga yetmagan bolalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadilar;

– ijtimoiy xavfli vaziyatda qolib ketgan balog‘atga yetmagan bolalarni, shu jumladan, ijtimoiy xizmat ko‘rsatilishiga muhtoj bo‘lgan balog‘atga yetmagan a‘zolari bo‘lgan oilalarni aniqlaydi, ushbu shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishni amalga oshiradi, ijtimoiy reabilitatsiyaning individual dasturlariga muvofiq ularga zaruriy yordamni ko‘rsatadi;

– o‘z vakolatlari doirasida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalaridagi nazoratsiz balog‘atga yetmagan bolalarni individual profilaktika qilish ishlarida ishtirok etadilar, shu jumladan, davlatning yordamiga muhtoj bo‘lgan balog‘atga yetmagan bolalarning dam olishini va sog‘lomlashtirilishini tashkillashtirishda yordam beradi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan balog‘atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalar yaratiladi va faoliyat yuritadi, ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan balog‘atga yetmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va nazoratsizligini profilaktika qilishni amalga oshiruvchi balog‘atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari. Balog‘atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari o‘z tarkibiga quyidagi tuzilmaviy bo‘limlarni olishi mumkin: qabul qilish bo‘limi; o‘z oilalaridan qochib ketgan balog‘atga yetmagan bolalar tashish bo‘limi, ijtimoiy- huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘limi; ijtimoiy diagnostika bo‘limi; statsionar bo‘lim; ijtimoiy mehmonxona; uzoq muddat qolib ketuvchilar guruhi; kunduzi bo‘luvchilar va ijtimoiy patronaj guruhlari; oilaviy tarbiyalash guruhi; bolalar va oilaga yordam ko‘rsatish bo‘limi va boshqa balog‘atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy reabilitatsiya markazlarining nizomidagi maqsadlarga javob beruvchi tuzilmaviy bo‘limlar;

– og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan va davlatning tezkor ijtimoiy yordamiga muhtoj bo‘lgan balog‘atga yetmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va vaqtinchalik yashab turishini ta‘minlovchi bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylari. Bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylari o‘z tarkibiga quyidagi tuzilmaviy bo‘limlarni olishi mumkin: qabul qilish bo‘limi; ijtimoiy diagnostika bo‘limi; ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘limi; o‘z tarkibiga ijtimoiy mehmonxona va oilaviy tarbiyalash guruhini oluvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘limi; ijtimoiy patronaj guruhi va bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylarining maqsad va vazifalariga javob beruvchi boshqa bo‘limlar;

– ota-onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlari

otaonalar yoki boshqa qonuniy vakillarining qarovisiz qolib ketgan balogʻatga yetmagan bolalarni vaqtinchalik ushlab turish va ularga keyinchalik joylashtirilishida koʻmak berish uchun moʻljallangan. Ota- onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlari quyidagi tuzilmaviy boʻlimlarni yaratishlari mumkin: qabul qilish boʻlimi; ijtimoiy diagnostika boʻlimi; ijtimoiyhuquqiy yordam koʻrsatish boʻlimi; oʻz tarkibiga statsionar boʻlimni oluvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilish boʻlimi; uzoq muddat qolib ketuvchilar guruhi; oilaviy tarbiyalash guruhi; balogʻatga yetmagan bolalarni tashish boʻlimi va boshqa otaonalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlarining maqsadlari va vazifalariga javob beruvchi boʻlimlar. Muassasalarning ijtimoiy mehmonxonasi ogʻir hayotiy vaziyatlarda qolib ketgan 15 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan balogʻatga yetmagan bolalar uchun moʻljallangan. Balogʻatga yetmagan bolalar ijtimoiy mehmonxonada balogʻatga yetmagan bolalar va muassasa maʼmuriyati oʻrtasida tuzilgan yozma shakldagi shartnomasi asosida yashaydi, unda amaldagi qonunchilik meʼyorlarini inobatga olgan holda tomonlarning oʻzaro majburiyatlari va huquqlari belgilab berilgan. Ijtimoiy mehmonxona faoliyatini va ishlash uslubini muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadigan ijtimoiy mehmonxona toʻgʻrisida Nizom asosida tashkillashtirish tavsiya etiladi. Ijtimoiy reabilitatsiya qilishga muhtoj boʻlgan balogʻatga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalarga 3 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan balogʻatga yetmagan bolalar belgilangan tartibda kuchayu- kunduz qabul qilinadi:

- ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaromogʻisiz qolgan bolalar;
- ijtimoiy xavfli vaziyatlarda qolgan oilalarda yashovchi bolalar;
- tashlab ketilgan va adashib qolgan bolalar;
- oilasidan oʻz xohishicha ketib qolgan bolalar, ota-onalar qaramogʻisiz qolgan bolalar va yetim-bolalar uchun taʼlim muassasalaridan yoki boshqa bolalar muassasalaridan oʻz xohishicha ketib qolgan bolalar, bundan maxsus yopiq turdagi taʼlim-tarbiya muassasalaridan oʻz xohishicha ketib qolgan bolalar mustasno;
- yashash joyi va boradigan joyi va (yoki) yashashga mablagʻi boʻlmagan bolalar;
- boshqa qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan, ijtimoiy yordam va reabilitatsiya qilinishga muhtoj bolalar.

Ijtimoiy reabilitatsiya qilinishga muhtoj, balogʻatga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalarga bolalarni joylashtirish uchun asos boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

- balogʻatga yetmagan bolaning shaxsan murojaati;
- 10 yoshga yetgan balogʻatga yetmagan bolaning fikrini inobatga olgan

holda balogʻatga yetmagan bolaning ota-onalarining yoki uning boshqa qonuniy vakillarining arizasi, balogʻatga yetmagan bolaning fikrini inobatga olinishi uning manfaatlariga qarama-qarshi boʻlgan vaziyatlar bundan mustasnodir;

- aholini ijtimoiy himoya qilish boshqarmasi organining yoʻllanmasi yoki

balogʻatga yetmagan bolalarni huquqbuzarligi va qarosizligini profilaktika qilish tizimi muassasalari yoki mansabdor shaxsning ushbu organ bilan kelishilgan yoʻllanmasi;

– balogʻatga yetmagan bolaning ota-onalari yoki uning boshqa qonuniy vakillari ushlangan, maʼmuriy hisbda ushlab turilgan, qamoqqa olingan, qamoqqa mahkum etilgan, ozodligi cheklangan, ozodlikdan mahrum etilgan vaziyatlarda dastlabki tergovni amalga oshiruvchining, tergovchining, prokuroryoki sudyaning xulosasi;

– ichki ishlar tuman, shahar boʻlinmalari (boshqarmalari), boshqa munitsipal taʼlim berishning ichki ishlar boʻlimi (boshqarmasi), yopiq turdagi maʼmuriy-hududiy hududlarning ichki ishlar boʻlinmalari (boshqarmalari), transportdagi ichki ishlar boʻlinmalari (boshqarmalari) operativ navbatchilarining balogʻatga yetmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj balogʻatga yetmagan bolalar uchun maxsusmuassasalariga joylashtirish toʻgʻrisidagi hujjati.

## **2.Yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi**

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar, kambagʻallik, tengsizlik va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni oʻrganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Aholining turli qatlamlari vakillarining munosib turmush tarzini kafolatlash, ularning isteʼmolchilik qobiliyatini oshirish, jumladan, mehnat munosabatlarini tartibga solish, daromadlar, ish haqi siyosati, nafaqa va aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy madad bilan taʼminlash masʼuliyati bevosita davlat, nodavlat va xususiy soha faoliyatining ustuvor yoʻnalishini tashkil etadi. Zero, ilmiy tadqiqot obyekti hisoblangan aholini ijtimoiy himoya tizimi oʻzaro aloqalar va munosabatlarning shunday murakkab tizimidirki, ularning yalpsi davlatning oʻz fuqarolariga nisbatan olib boradigan aniq harakatlarida namoyon boʻladi.

Ijtimoiy himoya tabiiy va favqulodda texnogen muhit, huquqiy va moliyaviy institutlar tizimidan iborat boʻlib, ularning maqsadli vazifalari qariyalar, nogironlar,

ota-ona qarovisiz qolganlar, bemorlar, ishsizlar, boquvchisini yoʻqotgan hamda muhtoj oilalarni moddiy, maʼnaviy, tibbiy va boshqa yordam turi bilan taʼminlashdir. Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat, nodavlat tashkilotlari alohida shaxslar va biznes tuzilmalari oʻzaro munosabatga kirishadilar va hamkorlik qiladilar.

Ijtimoiy himoya yuzasidan shakllanuvchi diskurs negizida davlat va jamiyatning ijtimoiy siyosati davlat muassasalari, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqalardan tarkib topadi. Ijtimoiy-siyosat davlat va nodavlat tashkilotlar, ehtiyojmand shaxslar va bolalar vasiylar, homiylar, ijtimoiy jamoatchilik fikri omiliga ham tayanadi. Ijtimoiy siyosatning mohiyati jamiyatning potensial resurslarining real resurslarga aylantirish, aholi turli guruhlari oʻrtasida oʻzaro koʻmak muhitini vertikal va gorizontol koʻlamlarda intensivlashtirishdan iborat. Demak, ijtimoiy muhofaza ijtimoiy zaxiralarni qayta taqsimlash orqali jamiyatning strategiyasi va maqsadlarini aniqlab beruvchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kafolatlar tizimi

hamdir.

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi yuqorida keltirilgan umummetodologik tamoyillarga bo'ysundirilgan. Ushbu sohaning barqaror rivojlanishi aholi turmush darajasining oshib borishi hamda kambag'allik darajasi kamayishiga xizmat qiladi.

Xuddi shunday maqsadlar ostida 2016 yilda respublikamizda keng qo'lamli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, tub islohotlarni amalga oshirish jarayoni boshlandi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilish Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligiga, tibbiy yordam ko'rsatish masalalari Sog'liqni saqlash vazirligiga, ijtimoiy moddiy yordam berish hamdaijtimoiy nafaqa belgilash va to'lash monitoringini yuritish vazifalari Moliyavazirligiga o'tkazildi. Shu qatorda, yoshi bo'yicha yetim va nogironligi bor bolalar guruhlarga ajratilib, ularga Xalq ta'limi vazirligi mas'ul qilindi. Aholining yoshi katta nogiron qatlami esa Sog'liqni saqlash vazirligigataalluqli bo'ldi.

Xususan, aholi orasida yillar davomida yig'ilib, o'z yechimini kutib yotgan ijtimoiy-maishiy muammolar bois virtual va Xalq qabulxonalariga qisqa fursatlarda ko'plab murojaatlar, ariza va shikoyatlar kelib tushdi. Xususan, 2017 yilning dastlabki ikki choragida Xalq qabulxonalarida ijtimoiy ko'mak berishborasida aholidan millionga yaqin shikoyat qayd etildi.

Natijada, davlat va jamiyat hayotini tubdan yaxshilash hamda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hayotiy zaruratga aylandi. Shu asnoda, 2017 yil 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

«O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni e'lon qilindi. Harakatlar strategiyasining 4- bandi «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari» bo'yicha belgilanib, kam ta'minlangan oilalar soni va aholini daromad bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish vazifalari ilgari surildi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, pensionerlar, nogironligi bo'lgan yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish masalalari kun tartibiga qo'yildi. Shuningdek, majmuali ijtimoiy himoya chora-tadbirlarining ajralmas komponentlari hisoblangan arzon uy-joylar bilan ta'minlash, aholining hayot sharoitlarini yaxshilashni ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya

qilish vazifalari qo'yildi. Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amaliyoti 37 687,8 milliard so'm va 8 349,3 million AQSH dollari miqdorida moliyalandi.

Mazkur raqamlarni 2015 yil bilan taqqoslasak, o'rtasidagi farq kamida besh barobar ekanligi oydinlashadi. Bu holat yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoya va



ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash naqadar muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

2018-yilda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari chuqur isloh qilinishi hamda har bir sohadagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida izchillik bilan ishlar boshlandi. Bunda «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-ravshan tamoyil ustuvorligi o‘rnatildi.

«Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak»ligi tamoyili kundalik faoliyatning asosiy vazifasiga aylantirish dolzarblashdi. «Xalq qabulxonalari» va «Yagona darcha» asosida esa aholiga eng zarur bo‘lgan davlat xizmatlarini bir idora orqali ko‘rsatish tizimi yaratildi.

Tabiiyki, yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat diqqatini tortdi. Xususan, 2018 yil 9 noyabrda Bandlik vamehnat munosabatlari vazirligida BMTning bolalar tashkiloti YUNISEF, Butunjahon Banki va Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan «O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini baholash» mavzuida seminar o‘tkazildi. Xalqaro tadbirda O‘zbekistonda 2018 yilda o‘tkazilgan umummilliy so‘rov natijalarigamuvofiq past daromadli oilalarning 75% ijtimoiy ko‘mak pullarini olmasligi ma’lum qilindi.

Xalqaro ekspertlar tomonidan O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimida kompleks yondashuvni ta’minlovchi ijtimoiy xizmat amaliyoti o‘rnatilmaganligi, ijtimoiy himoya esa fragmentar xususiyatli bo‘lib, bu holat sohadagi investitsiyalarning samarasizligiga olib kelayotganligi qayd etildi. YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi sobiq boshlig‘i Sasha Graumannning ta’kidlashicha, siyosiy va institutsional darajada integratsiyaning yetishmasligi muhtoj qatlamlarga samarali ijtimoiy himoyani taqdim etilmasligining asosiy sababi bo‘ldi. Shu bois, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda atigi 17% oilalar bola parvarishi uchun ko‘mak pulini oldi, kambag‘allikning umumiy darajasi atigi 8% ga qisqardi, xolos. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtiruvchi yagona tizim, davlat organi faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan. Bu bilan 30 ga yaqin davlat tashkilotlari va muassasalari, komissiyalar o‘z faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib, bir-biri bilan kelishilmagan holda shug‘ullanadi.

Vaholanki, mamlakatda YAIMning 6-9%i ijtimoiy himoyaga ajratilmoqda. Bu ko‘rsatkich BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlariga mos kelsa-da, ijtimoiy himoya sohasidagi uzilishlar ko‘payib, nogironligi bor kishilar risoladigidek ijtimoiy himoalanmadi, ijtimoiy ko‘mak pullarining miqdori sezilarli ravishda pasayib ketdi. YUNISEF xulosalariga ko‘ra, so‘nggi yillarda muhtoj kishilarning atigi 10%i ijtimoiy ko‘mak pulini olib, mehnat bozori dasturlari tomonidan qamrab olingan bo‘lsa, pensiya yoshidagi 30% shaxslar ijtimoiy sug‘urta dasturlariga kiritilmadi<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda davlat byudjetining aksariyat qismiaholining ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirilganini, bu borada yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori barqarorligini kuzatishimiz mumkin. Ijtimoiy sohadagi mavjud muammolarning tanqidiy tahlili asosida 2018-yildadavlat byudjetining 53,4% miqdorida mablag‘ aynan ushbu sohani moliyalash uchun ajratildi. Bu 19 trillion so‘mni tashkil etib,

ushbu summaning 65,8%i oylik maoshlarni ta'minlashga yo'naltirildi. Shuningdek, 2018-yil yakunlariga muvofiq, pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qaytako'rib chiqish, pensiya tiziminitubdan isloh qilish, nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oila a'zolarini, boquvchisini yo'qotganlarni o'n olti yoshgacha ijtimoiy muhofaza qilish masalasi dolzarblashdi. 2019-yilda bu ko'rsatkich 54% ni tashkil etib, ushbu mablag' aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish, muhtoj qatlamlarni ijtimoiy ta'minlash, uy-joy, ijtimoiy-maishiy turmush darajasini yaxshilash uchun sarflandi. 2019-yil 21-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini isloh qilish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Mazkur yig'ilishda mamlakatimiz rahbari yetarli darajada daromad manbaiga ega bo'lmagan qishloq aholisining aksariyati kam ta'minlangan aholi qatlamini hosil qilishini alohida ta'kidladi. Ular, turli hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakatimiz jami aholisining taxminan 12-15 foizini, ya'ni, 4-5 million kishini tashkil etmoqda. «Kambag'allikni kamaytirish – deb ta'kidladi mamlakatimiz rahbari, – bu aholda tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir. Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yo'nalishlarga muvofiq, "kambag'allik" tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan xalqaro me'yorlarga mos yangi metodologiya yaratilishi dolzarblashdi. Shuningdek, ko'mak pullari va pensiya miqdorini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan «Iste'mol savatchasi» va «Yashash minimumi»ni belgilash va joriy etish, rivojlangan taraqqiyot sharoitida har bir davlat ichki siyosati asosida yotuvchi ushbu indekslarning mamlakatimizga xos ko'rsatkichlari va me'yorlariga aniqlik kiritish hayotiy zaruratga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «Ijtimoiy himoya birgina ko'mak pullarini to'lash bilan cheklanmasligi kerak va muhtoj kishilarni "Oyoqqa turib olishiga yordam berishi shart"<sup>2</sup>, deb ta'kidladi. Aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida so'nggi 2 yil davomidamamlakatimizda yuritilayotgan siyosat va amalga oshirilayotgan chora- tadbirlardagi ijobiy tendensiyalar bois, O'zbekiston Barqaror taraqqiyot maqsadlari Fondi tomonidan moliyalanish borasidagi murojaati tasdiqlangan 24 davlatdan biri bo'ldi. BMTning mamlakatimizdagi doimiy vakili Xelena Freyzer 2019-yil 11-noyabr kuni ijtimoiy himoya bo'yicha qo'shma dasturni imzolab, O'zbekistonda ijtimoiy himoya boshqarmasi tashkil etilishi uchun mazkur Fond tomonidan 2 million dollar pul ajratilishiga kelishildi.

U O'zbekiston hukumati va BMTning mamlakatda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash borasida qo'shma dasturni imzoladi. Ushbu dastur asosida

O‘zbekiston fuqarolarining sifatli ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmat bilan ta’minlanishi o‘rnatildi. Qo‘shma dasturning hayotga tadbiq etilishida BMTning uch agentligi – Xalqaro Mehnat Tashkiloti, BMT Taraqqiyot dasturi, BMT bolalar fondi YUNISEF qo‘llab-quvvatlab turishi rejalashtirildi. O‘zbekiston hukumati tomonidan esa Vazirlar Mahkamasi, Boshprokuratura va fuqarolik jamiyatining boshqa tashkilotlari va vazirliklarning muvofiqlashgan faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 2020-yilda O‘zbekistonning har bir mintaqasida ijtimoiy himoyaning yangi tizimini sinovdan o‘tkazish, 2021 yilda Ijtimoiy himoyaning Milliy strategiyasi tasdiqlanishi, 2022-yilda esa Ijtimoiy himoya vazirligi tashkil etilishi rejalashtirildi. Ushbu islohotlar “Shok terapiya” usulida olib borilishi, aholi qatlamlariga turlicha ta’sir ko‘rsatishi e’tiborga olingan holda aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich amalga oshirilishi nazarda tutildi.

---

Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish zarurati kun tartibidagi dolzarb masalaga aylandi. Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora- tadbirlar samaradorligini ta’minlashda ijtimoiy himoyaning ikki ustuni – ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy xizmatning uyg‘un faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, ijtimoiy ta’minot tizimi hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan va Pensiya jamg‘armasi tomonidan ajratiladigan pul mablag‘lari vositalari ko‘rinishidagi turli to‘lov dasturlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy xizmat tizimi esa, insonlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish, realibitatsiya orqali yordam berishga qaratilgan kasbiy faoliyat hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligini ta’minlash uchun yagona muvofiqlashtiruvchi organ faoliyati kerak bo‘lib, u ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatni samarali amalga oshirish uchun eng quyi tizimdan boshlab, barcha davlat tuzilmalari hamda nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Ushbu organ turli me’yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, turli tashkilotlar tomonidan ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy ta’minot dasturining amalga oshirilishi va boshqarilishini monitoring qilish uchun mas’ul bo‘lishi lozim. Bizning holatda, davlat ijtimoiy himoya tizimida postinstitutsional adaptatsiya jarayonida bitiruvchi yoshlarni sohalararo kompleks yondashuvga tayangan professional sotsial kuzatib borish elementlarini joriy etish zarur. Mazkur tizimning ishlash mexanizmi sohalararo kompleks yordam ko‘rsatish tamoyiliga asoslangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvga binoan yaxlit tizim shakllanishi va ushbu tizim komponentlari faoliyati samaradorligi ta’minlanishining bosh omili mahalla fuqarolari yig‘inlari tarkibida ijtimoiy ish xodimi shtat birligini joriy etish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy ish xodimi aniq maqsadli sohalararo kompleks yordamni tashkil etishda tegishli soha vakillari, mutaxassislar ishtirokini shakllantiradi, yo‘naltiradi va muvofiqlashtiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, sohalararo kompleks yordam ko‘rsatishni tashkil etishda, yordam ko‘rsatish obyekti diqqat markazda bo‘ladi. Bunda, sohalararo

kompleks yordam ko‘rsatish yaxlit tizim sifatida shakllanishi va quyidagi tizimosti elementlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

- iqtisodiy tizimosti;
- ijtimoiy tizimosti;
- siyosiy tizimosti;
- ma’naviy tizimosti.

Ushbu elementlar bir-biriga nisbatan avtonom ko‘rinishga ega bo‘lsada, ijtimoiy yordam jarayonida ular yaxlit manzaraga ega bo‘ladi.

axlit tizim tamoyili asosida olib boriladigan ijtimoiy himoya multidissiplinar jamoa tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, multidissiplinar jamoa muayyan ijtimoiy muammoni hal etishga qaratilgan turli soha vakillarining manzilli maqsadga qaratilgan yagona jamoa sifatida olib boriladigan faoliyatdir.

Ijtimoiy himoya jarayonida turli soha vakillarini qamrab oluvchi multidissiplinar jamoa (yoki sohalararo kompleks yordam ko‘rsatish jamoasi) tarkibi quyidagi soha vakillaridan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

- 1) mahalla fuqarolar yig‘inlari raisi;
- 2) profilaktika inspektori;
- 3) psixolog;
- 4) oilaviy poliklinikadan biriktirilgan umumiy amaliyot vrachi va hamshira;
- 5) umumta’lim maktablari o‘qituvchilari;
- 6) yuristlar;
- 7) Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi mutaxassislari;
- 8) ijtimoiy ish xodimi (kasbiy tayyorgarlikdan o‘tgan oliy ma’lumotli professional mutaxassis, ijtimoiy ish xodimi va enagalik xizmatini ko‘rsatuvchi xodimlar);
- 9) ijtimoiy ish xodimining rahbari (supervayzer);
- 10) volontyorlar.

Ijtimoiy ish xodimi faoliyati zaminida maxsus diplomga egamutaxassislarning mehnat faoliyati, ijtimoiy xizmat tizimini yaratish, mavjud ijtimoiy xizmatlarni xalqaro standartlar nuqtai nazaridan baholash, ijtimoiy xizmatlar turlarini kengaytirish, ijtimoiy xizmatchilarning malakasini oshirish kabi tadbirlar yotadi. Ushbu faoliyat “Keys-menejment” tamoyili asosida qurilib, har bir murojaatchining shikoyati asosida yordamga muhtojlarning imkoniyat darajasi o‘rganiladi, uy xo‘jaligidagi sharoitlar baholanadi, maqsadga yo‘naltirilgan harakat rejasi tuziladi, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaytiriladi hamda ulardan foydalanishda qulaylik yaratish uchun birga harakat qilinadi. Asosiy maqsad qisqa muddatli chora-tadbirlar ko‘rish emas, balki insonni qiyin vaziyatdan qutqarib, normal hayotga qaytishini ta’minlashdir.

Hududiy kesimda respublika miqyosida ularning har chorakda hisobot konferensiyasini o‘tkazuvchi Markaziy boshqarmasi, yirik shahar va viloyatlarning har bir tumanida ofislari shakllantirilishi va belgilangan hudud aholisining

ko‘lamidan kelib chiqib, shtat birliklari soni o‘rnatilish maqsadga muvofiq. Maqsad multidissiplinar jamoa a‘zolarining sonini aholi barcha qatlamlari vakillarini qamrab olish imkoniga ega bo‘lish darajasida shakllantirish.

O‘zbekistonda ijtimoiy ish ta‘lim va kasb sohasini rivojlantirish zarurati mamlakatimizning bir qator olimlari tomonidan asoslangan. Ushbu sohaning jamiyatimiz uchun zarurligi professor M.Bekmurodov tomonidan ilmiy asoslangan, buning natijasida, ijtimoiy ish sohasida 2004-yilda Toshkent madaniyat institutida bakalavr va magistr darajasida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha kadrlar tayyorlash keyinchalik 2005-yilda FarDU va SamDUda, 2010 yil O‘zMUda, 2017 yil NamDUda, 2018 yil GulDUda, 2020 yildan esa BuxDUda ham yo‘lga qo‘yildi.

Ijtimoiy ish xodimi ushbu faoliyatni quyidagi tarzda amalga oshiradi. Tegishli aholi punktida mahallalar jami aholisidan ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar soni ajratib olinadi. Bunda hududda istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi tarkibiga differensiallashgan holda yondashish muhim. Bu ularning har biriga xos bo‘lgan ehtiyojlarga qarab yordam turlarini ixtisoslashtirish va manzilliligini ta‘minlash imkonini beradi. Xususan, institutsional muassasa bitiruvchilari ro‘yxati alohida tuzilib, ularga zarur yordam turlariga aniqlik kiritiladi. Hududning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini (jumladan, institutsional muassasa bitiruvchilarini – Z.E) istisnosiz qamrab olinishi uchun multidissiplinar jamoa tarkibida mutaxassislar soni aniq belgilanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, mutaxassislarning funksional vazifalari aniq o‘rnatilgan, ularning ish grafigi belgilangan, albatta, ish stavkasiga muvofiq maosh bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Mahalla fuqarolari yig‘inlari faollari orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ehtiyojmand qatlam tomonidan yordam, xavfli vaziyat to‘g‘risida murojaatlar kelib tushgach, multidissiplinar jamoa harakatga keladi.

Signal qabul qilingach, zudlik bilan ijtimoiy ish xodimi vaziyat haqidagi dastlabki ma‘lumotlar asosida tegishli mutaxassislar bilan birgalikda ehtiyojmand kishi yashash manziliga boradi. Dastlabki kuzatuvlar asosida zarur yordam (masalan, birinchi tibbiy yordam) ko‘rsatiladi. Ushbu jamoatarkibida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining mutaxassislari qatnashadi. Albatta, ushbu mutaxassis tegishli mahalla aholisining ijtimoiy tarkibini yaxshi bilishi kerak. Demak, yordam so‘rab murojaat etgan kishilarning ehtiyojmandlik darajasini belgilashda ushbu mutaxassisning tajribasiga tayaniladi. Ijtimoiy himoya samaradorligini yanada oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 18 fevralda «Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5938-son Farmoni hamda 2020 yil 18 fevraldagi «Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4602-son Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga ko‘ra, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining vazifalari deb quyidagilar belgilandi:

– jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko‘maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-

ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatish;

- oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish;

- xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash;

- xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

- xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahallatizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, aholi kundalik muammolari bilan ishlash va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi mavqeini yuksaltirish;

- mahallalarda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- yolg'iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga moddiy ko'maklashish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, nuroniylarning bilim va boy

hayotiy tajribasidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash masalalarida samarali foydalanish;

– fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Fikrimizcha, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligini oshirish jarayonida ijtimoiy himoya tizimi, xususan, institutsional muassasa bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasi ayrim islohotlarga muhtoj. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirliklari tegishli idoralar bilan axborot almashinuvi tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda, bosh maqsad yuqori davlat organlarining ijtimoiy himoya borasidagi faoliyati va amaliy ko'mak o'rtasidagi uzilishining oldini olish bo'lib, multidissiplinar jamoa faoliyati yaxlit muvofiqlashtiriladi, ushbu faoliyatning ijtimoiy samaradorligi ta'minlanadi.

Shuningdek, ijtimoiy nafaqalar to'lashning mavjud tizimini tanqidiy tahlil etish asosida aholining muhtoj qatlamlari tarkibini yangidan o'rganish, ularni majmuali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qamrovini kengaytirish, bunda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish imkonini berdi. Shuningdek, nafaqa tayinlash mezonlarini belgilashda ochiq, adolatli va innovatsion usullar asosida qayta ko'rib chiqish, bu borada mutasaddi organlar faoliyatini optimallashtirish dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Ota-ona qarovsiz qolgan bolalar, yolg'iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit va ta'sirchan tizim yaratilishi shart. Bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy to'lovlar, nogironlik, dafn marosimi, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar, ish paytida mayib bo'lganlik uchun tovon puli kabi to'lovlar qayta ko'rib chiqilib, xalqaro tajribada keng qo'llaniluvchi «Ijtimoiy sug'urtalash» tajribasi o'rnatilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birgalikda, Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga nogironligi bo'lgan kishilarning kasbiy klassifikatorida ko'rsatilgan kasblarni qayta ko'rib chiqib, ularning mehnat faoliyatini amalga oshirishda qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarur.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy adaptatsiyasi dasturini ishlab chiqib, ularni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, uy-joy, ish bilan ta'minlashda innovatsiyalarni joriy etish lozim.

Ijtimoiy ta'minot olayotgan kishilarni ro'yxatga oluvchi yagona reestrni shakllantirish maqsadga muvofiq. Ushbu reestrda soliq qo'mitasi, ichki ishlar, kadastr, o'zini o'zi boshqarish organlari, sog'liqni saqlash tashkilotlari, pensiya

ta'minoti, banklar, kommunal to'lovlar yagona bazaga kiritiladi. Bu ijtimoiy ko'makka muhtoj kishilarning turli hujjatbozlik va ularga sarflanadigan vaqtni tejashga xizmat qiladi. Xullas, ushbu badda ilgari surilgan muammolarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni ilgari suramiz:

Birinchidan, sohada institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy himoya bo'yicha yagona davlat organini tashkil etish orqali ijtimoiy himoya funksiyalarining fragmentarlik muammolarini hal qilish zarur.

Ikkinchidan, xalqaro standartlar asosida ijtimoiy himoyaning kompleks milliy strategiyasini ishlab chiqish. Ushbu jarayon ijtimoiy himoyaning tor doiradagi muhtoj kishilar uchun xayriya sifatida qabul qilinishini o'zgartirishga yo'naltirilgan. Bunda har bir fuqaro ehtiyojidan kelib chiqib, ijtimoiy himoyalani ta'minlash nazarda tutilgan.

Uchinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun «Ko'mak puli+xizmat» shaklidagi integratsiyalashgan yondashuvning qo'llanilishi. Faoliyat turlarini turkumlashning xalqaro klassifikatsiyaga mutanosib holda nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlari ro'yobga chiqarilishi hamdaular hayotining mavjud shart-sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar tushunchasini izohlang.
2. Patronat bolalarni oilaga joylashtirish shakllini tushuntiribbering.
3. Ijtimoiy yetim tushunchasini izohlang.
4. Deinstitutionalizatsiya tushunchasining mohiyatini tushuntiribbering.
5. Institutionalizatsiya tushunchasining mohiyatini yoritib bering.
6. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yoritib bering.

## **2- MAVZU. YETIMLIK SOTSIAL HODISA SIFATIDA INSTITUTSIONALASHUVI.**

### **Reja:**

- 4.2.5.1 Yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o'rganilishi.
- 4.2.5.2 Sharq mutafakkirlari qarashlarida yetimlik sotsial hodisasifatida ilmiy o'rganilishi.
- 4.2.5.3 O'zbekistonda yetimlik sotsial hodisa sifatida institutsionalashuvi.
- 4.2.5.4 G'arbda yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o'rganilishi.



**Tayanch soʻzlar:** *sivilizatsiya, yetimlik, ijtimoiy yetimlik, xufyona yetimlik, uy yetimlari, ikkilamchi yetimlik, OITS yetimlari, migrant yetimlar.*

#### **4.2.5.3.1 Yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy oʻrganilishi**

Insoniyat sivilizatsiyasining tarixiy davrlari davomida ota-onaning vafoti yetimlikning asosiy sababi sanalgan. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida dunyo miqyosida sodir boʻlayotgan globallashuv, modernizatsiyalashuv kabi jarayonlar nafaqat iqtisodiy-moliyaviy, balki ijtimoiy-maʼnaviy hamdaaxloqiy qadriyatlar parchalanishi kabi sotsial deformatsiyalarga (lot. *deformatio* – buzilishlar) sabab boʻldi. Oʻz oʻrnida, bunday sotsial deformatsiyalar ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlar taqdirida izsiz ketmaydigan ijtimoiy ofatlarga olib keldi. Shuningdek, Gʻarb sotsiologlari ham mazkur yondashuvlarni qoʻlladilar. Xususan, E.Dyurkgeym koʻrsatganidek, jamiyatda sodir boʻlayotgan transformatsiyalar ijtimoiy tuzilma faoliyatini izdan chiqarishi va turli salbiy anomaliyalarga olib kelishi mumkin. Charlz Kuli taʼbiri bilan aytganda, ayrim kishilarning hulq-atvori yoki xarakteri aksariyat koʻpchilik tomonidan meʼyor sifatida qabul qilingan namuna yoki darajadan yaqqol pastligi yoki nomutanosibligi nazarda tutiladi. Uning fikricha, sotsial omillarni oʻzgartirish orqali insonni oʻzgartirishga harakat qilish mumkin. Oilalardagi bunday ijtimoiy noqobillikni T.Parsons oʻrinli taʼriflaydi:

«Er-xotin va voyaga yetmagan bolalardan iborat oila jamiyatning asosiy boʻgʻini sifatida zamonaviy kasbiy iyerarxiya stratifikatsiyasi shkalasiga binoan barbod boʻlmoqda. Oilada tarbiyalanayotgan bolaning ehtiyojlariga loqayd qaralmoqda. Zero, bolaning oiladagi maqomi katta yoshdagi oila aʼzolarining professional karyerasi nuqtai nazaridan sezilarsiz. Bu oilaviy birdamlikni yemiruvchi omillardan biri sanaladi». Bolalar qarovsizligi aynan oʻsha sotsial ofatlar ichida eng ayanchlisi. Zero, zamonaviy taraqqiyot sharoitida dunyo miqyosida 100 milliondan ortiq bola nafaqat ota-onasining vafoti, balki ularning oʻzfarzandlariga nisbatan majburiyatidan ixtiyoriy ravishda voz kechishi yoki ushbu masʼuliyatdan rasman chetlatilishi oqibatidagi yetimlikdan aziyat chekmoqda.

Yetimlik ilm-fan dunyosida bahs-munozaralarga sabab boʻlib kelayotgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ilmiy atamashunoslikda ushbu soʻz muayyan millatning sotsiomadaniy xususiyatlaridan kelib chiqib talqin etiladi. Xususan, Sharq mamlakatlarida kundalik muloqotda qoʻllaniladigan “yetim” soʻzining etimologiyasi, arabcha “Yatim” (erkaklar ismi) soʻzining mazmuniga borib taqaladi. Ushbu ism turkiy talaffuzda aynan “Yetim” sifatida jaranglaydi. Uning oʻzagida yotuvchi “ytm” – shaxsga nisbatan qoʻllanilib, birinchidan, aynan “Yetim qolmoq”ni anglatga, ikkinchidan “Yagona”, “Noyob” maʼnosida ishlatiladi.

V.I.Dal oʻzining izohli lugʻatida ushbu tushuncha mazmunan hech qanday

qo‘llab-quvvatlanmaydigan, yolg‘iz, boshpanasiz bechora kishi sifatida talqin qilingan. Xuddi shu mazmundagi fikrlar Ye.I. Trofimovning tadqiqotlaridaham o‘z aksini topgan. Muallif umumslavyan va hind yevropa tillari oilasida ushbu atama qadimdan aholining turli kategoriyalari ichida «Ota-onasidan biri yoki ikkalasidan ajralib qolgan bechora» ma’nosini anglatganligini bildirgan. Ushbu ta’rif aholining barcha qatlamlariga xos yetimlikni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida “Yetim” atamasi ota-onasi yoki ulardan biri vafot etgan bolaga nisbatan ishlatilib, xalq orasida ota-onasi vafot etib, yolg‘iz qolgan bola «Chin yetim», onasi bilan qolgan bola «Gul yetim», otasi bilan qolgan bola “Shum yetim”, ayrim hollarda otasi hamda onasi tomonidan tashlab ketilgan bolalar (ya’ni, ijtimoiy yetimlar – Z.E) «Tirik yetim» deb atalgan. Bunday bolalarga nisbatan “Tashlandiq bola”, “Yetimcha” kabi tahqirlovchi atamalar ham qo‘llanilgan. “Tashlandiq” so‘zi xufyona va oldindan ogohlantirilmasdan yot kishilar tarbiyasiga tashlab ketilgan bolaga nisbatan qo‘llanilgan. Tabiatda ushbu hodisaning muqobil holati kakku qush modasining yot qush iniga tuxum qo‘yib ketishida kuzatiladi. Shu bois, kundalik muloqotda

“Tashlandiq bola” va “Kakku qush poloponi” sinonim sifatida qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun1-bob, 3-moddasida «Yetim bola – ota-onasining ikkisi ham vafot etgan yoki sud qaroriga muvofiq vafot etgan, deb e’lon qilingan bola», deb belgilangan.

Ilmiy tadqiqotimiz diqqat markazida turuvchi bolalikdan yetimlik alohida xususiyatli ijtimoiy hodisa sanaladi. Rossiya pedagogik ensiklopediyasida «Yetimlik – ona vasiylikidan mahrum bo‘lgan voyaga yetmaganlarning turmush tarzi» ni anglatadi. Bu yetimlikka bir yoqlama yondashuvbo‘lib, unga binoan, onaning vafoti yoki boladan voz kechishi yetimlikning asosiyomili sanaladi. Bunda otaning farzand tarbiyasi va parvarishidagi tengmas’uliyati e’tibordan chetda qoladi.

Ye.B.Breeva o‘z tadqiqotida bolalar yetimligining tashqi belgilarini o‘rganar ekan, «Bunday bolalarning ota-onasi bo‘lsa-da, ular bolalar uylari, boshpanalar, internatlarda yashashga majburdilar», deydi. Muallifning ta’rifiga ko‘ra, bolaning o‘z oilasi bag‘rida emasligi uning yetimligidan guvohlik beradi. Shuningdek, klassik mazmundagi yetim (ya’ni, ota-onasi vafot etgan) bolalar ushbu ta’rifdan chetda qoladi va zamonaviy jamiyatlarda yetimlikning bu turi sotsial hodisa sifatidago‘yoki yo‘q bo‘lib ketgandek tasavvurhosil qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yetimlikka nisbatan ilmiy-ommabop atamashunoslikda qo‘llaniluvchi so‘zlar va so‘z birikmalari ushbu ijtimoiy hodisaning o‘ziga xos jihatlari mavjudligidan guvohlik beradi. Biz ushbu

tushunchalar mazmunini umumlashtirgan holda quyidagi yaxlit xulosani ilgari suramiz: «Kundalik muloqotda qo‘llaniluvchi «chin yetim» bolaning ham otasi, ham onasi vafot etganligini anglatadi. Ilmiy atamashunoslikdagi «Biologik yetimlik» tushunchasi ham xuddi shu mazmunda qo‘llaniluvchi so‘z birikmasidir. Demak, ushbu ikki so‘z birikmasi aynan bir ijtimoiy holatni anglatuvchi sinonim so‘zlar bo‘lib, mazmunan ota-onaning vafoti bois ulardan ajralib qolgan bolaning turmush tarzini anglatadi va ular qonunchilik bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetim bolalar sanaladi.

V.S.Muxina tabiiy kataklizmlar (ofatlar, ocharchilik va h.k.) va ijtimoiy silkinishlar – iqtisodiy-ijtimoiy transformatsiyalar, o‘tish davri, turli urushlar, millatlararo konfliktlarni biologik yetimlikning omillari sifatida guruhlaydi. Shu bois, qochoqlar, majburiy migrantlar qatlami shakllanadi va ular orasida yetimlar ulushi oshib bormoqda. Xususan, 2015-yilda 244 million xalqaro muhojirlar va qochoqlar qayd etilgan bo‘lsa, 2050-yilga kelib, ushbu raqam 321 milliondan oshib ketishi kutilmoqda. Yevropaga kelgan 1 milliondan ortiq qochoqlarning 253 700 nafari bolalar bo‘lib, ulardan 100 mingnafari yolg‘iz bolalar sifatida qayd etilgan.

O‘tgan asrning 60-80 yillarida xalqaro miqyosda bolalar huquqlarini muhofazalash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilgani e‘tiborga sazovor. Budavrda, bir tomondan, BMT yoshlar ijtimoiy-demografik guruhiga bo‘lgan munosabatning yangicha prinsiplarini belgilab beruvchi qator hujjatlar qabul qildi. 1965-yilda BMT Bosh Assambleyasining «Yoshlar o‘rtasida tinchlik g‘oyalari, millatlararo o‘zaro hurmat va tushunishni targ‘ib etish to‘g‘risida»gi Deklaratsiyasi e‘lon qilindi. Natijada, xalqaro hamjamiyat e‘tibori o‘sib kelayotgan yosh avlod muammolariga yo‘naltirildi. Shunday bo‘lsa-da, yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar zamonaviy jamiyatlarning og‘riqli nuqtalaridan biri bo‘lib qolaverdi.

Biologik yetimlikning asl mazmuni bizning kungacha buzilmasdan saqlanib kelsada, zamonaviy taraqqiyot ushbu ijtimoiy hodisaning yangi kategoriyalarini, xususan, ijtimoiy yetimlikni shakllantirdi. Ilmiy doiralarda bu ikki tushuncha yonma-yon qo‘llanilib, yetimlikni shakllantiruvchi omil va sabablari tubdan farqlanishini bildiradi. Biz bu boradagi fikrlarni umumlashtirib, biologik (chin) yetimlik asosida ota-onaning vafoti yotsa, ijtimoiy yetimlik, aksincha, tirik ota-onaning biri/ikkisi tomonidan yoki yolg‘iz ona/ota tomonidanturli vaj va sabablar bois bola tarbiyasidan bo‘yin tovlashi, deb hisoblaymiz.

“Ijtimoiy yetimlik” atamasi ilk bor 1987-yilda o‘qituvchilarning Umumrossiya konferensiyasida A.A.Lixanov tomonidan «Tirik ota-onasi bo‘la turib» yetim qolgan 400 ming bolalarning ijtimoiy holatini izohlash maqsadida qo‘llanildi. Uningcha, zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy yetimlar

yetimlikning barcha shakllari ichida mutlaq ko'p sonli bo'lib, jami yetim bolalarning deyarli 93% ni tashkil etadi.

Xuddi shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy yetimlikni izohlagan N.D.Nikandrov yetimlikning ushbu shaklini keltirib chiqaruvchi omillarni «qadriyatli bo'shliqda umumiy maqsadning yo'qotilishi»da ko'radi. Darhaqiqat, ijtimoiy makondagi zamonaviy transformatsiyalar katta yoshli aholi qatlamida hayot mazmuni yo'qotilishi oqibatidagi ijtimoiy-ruhiy bo'shliqlarni hosil qilmoqda. Vaholanki, katta yoshli avlod vakillarining hayotiy murakkab vaziyatlari va sotsial muammolari natijasidan bolalar aziyat chekuvchilardir. Ularning aksariyati, M.A.Galaguzova, Yu.V. Vasilkov va T.A.Vasilkovlar tadqiqotlariga binoan, hali 18 yoshga to'lmagan, voyaga yetmaganlar bo'lib, biologik ota-onalari ularning tarbiyasi va parvarishi bilan shug'ullanmaydi. Natijada, L.S.Kochkina ta'biri bilan aytganda: «Davlat bu kabi ota-onalarning bolalariga berayotgan tarbiyasidan qoniqmaydi va bu funksiyani o'z zimmasiga oladi».

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy yetimlik bolalar nazoratsizligi va qarovsizligidan hosil bo'luvchi keng qamrovli ijtimoiy hodisa bo'lib, O.I.Dubinina, V.A.Stepanov, L.A.Satarova hamda O.A.Dorojkinalar bolaning ota-ona qarovsiz qolishiga olib keluvchi omillarni quyidagicha turkumlaydi: 1) ota-onaning yo'qligi yoki ularning ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi; 2) ota-onalik huquqining cheklanganligi; 3) ota-onaning bedarak ketgan deb topilganligi; 4) ota-onaning layoqatsiz deb topilganligi (yoki layoqati cheklanganligi); 5) ularni vafot etgan deb e'lon qilinganligi; 6) ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida muddatini o'tayotganligi.

Mazkur turkum ijtimoiy yetimlik omillarini deyarli to'liq qamrab olsada, bizningcha, uning xufyona kechuvchi yana bir shakli, ya'ni bolaga zarur e'tibor va mehr ko'rsatmaslik, bolaning psixofiziologik ehtiyojlarini zarur darajada qondirilmisligi chetda qolgan. «Xufyona yetimlik» (yoki «Uy yetimlari»

– Z.E.)da voyaga yetmagan bolalar rasman ota-ona bag'rida bo'lsa-da, ularning bola parvarishiga loqaydligi yoki shafqatsiz munosabati bois hissiy bog'liqlik o'rnatilmaganligi nazarda tutiladi. Zero, institutsional muassasaga bolaning kelib tushishi aksariyat vaziyatlarda go'daklik va ilk bolalik davrida (ya'ni, 3yoshgacha) sodir bo'ladi. Oila bag'rida tarbiyalanayotgan bolada aynan ilk go'daklikdavrida tashqi dunyoga ishonch hissini hosil qiluvchi ota-ona va yaqin kattalarga nisbatan hissiy bog'liqlik shakllanadi. Hissiy bog'langanlik bolada tug'ma ehtiyoj bo'lib, uning o'rnatilganligi shaxsda me'yoriy psixofiziologik rivojlanish va barqaror ijtimoiylashuvni ta'minlaydi. Ushbu ehtiyoj bolada ota-onaning jismonan yo'qotilishi (vafoti yoki boladan voz kechish), ular tomonidan loqayd yoki shafqatsiz munosabat, bolaning o'z oilasidan tashqaridatarbiyalanishi bois izdan chiqadi.

L.M. Shipisyaning fikricha: «Xufyona ijtimoiy yetimlik – ma’naviy tuban oilalarda ota-onasi bilan birga yashovchi bolalarning turmush tarzi bo‘lib, bunday vaziyat bola psixofiziologik rivojlanishida kamchiliklarni shakllantiradi». N.N.Versinskaya tadqiqotlariga ko‘ra, bunday bolalar sirasiga, hatto, «to‘kin-sochin va shinam hayot kechiruvchi», moddiy ta’minlangan, badavlat oila farzandlari ham kiradi. Zero, ular me’yoriy ijtimoiylashuv uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lsalar-da, ota-onalari ularga yetarlicha mehr bermaydi, e’tibor qilmaydi. Natijada, bunday bolalar o‘z istiqbol reja va maqsadlarini to‘g‘ri shakllantira olmaydi, g‘araz niyatli shaxslar, guruhlar ta’siriga osonlikchaberiladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, yetimlik xufyona rivojlanayotgan aksariyat oilalar tashqi ko‘rinishdan to‘laqonli, barqaror oila deb, tasavvur qilinadi. Yillar davomida ushbu soxta niqob ostida bolaga nisbatan ijtimoiytahdidlar o‘tib boradi. Aksariyat hollarda oilada sog‘lom muhitning yo‘qligi ijtimoiy-ruhiy tang vaziyatdagi bolaning uydan qochib ketishi natijasida fosh bo‘ladi.

Bizningcha, ushbu turkumga ijtimoiy yetimlikning keskin shakllaridan biri bo‘lgan “ikkilamchi yetimlik”dan aziyat chekayotgan bolalarni kiritish maqsadga muvofiq. Ikkilamchi yetimlik deganda, farzandlikka yoki homiylik/vasiylikka olingan boladan tutingan (yoki ijtimoiy) ota-ona ham voz kechganlik holatini tushunishimiz mumkin. Ikkilamchi yetimlik omillari homiy/vasiy ota-onada bola tarbiyasi va parvarishi borasida psixologik- pedagogik ijtimoiylashtirishga doir ko‘nikmalarning yetarli emasligi, bola va tutingan ota-ona manfaatlaridagi ziddiyatlar, o‘zaro iliq munosabatning o‘rnatilmaganligi, bolada irsiy yoki boshqa kasalliklar paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keluvchi ziddiyatlarga tayyor emaslik, farzandlikka yoki vasiylik/homiylikka olishdagi g‘araz niyat kabilardir. Achinarlisi, ikkilamchi yetimlik bola shaxsiyatida kuchli axloqiy va ruhiy degradatsiyaga sabab bo‘ladi.

Ba’zi hollarda oilaga berilgan bolalar institutsional muassasalarga qaytarilishi kuzatiladi. Aynan shuning uchun bolalarni oilaga berish jarayonida oilalar holatini aniq baholaydigan indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Statistik ma’lumotlarga binoan, Germaniyada 2012 yilda 40 000 bola bolalar uylariga qabul qilingan. Ularning 17 ming nafari ota-onasi tomonidantahqirlanganligi uchun, 7 ming nafari oilaviy tarbiyadagi muammolar bois, 3 ming nafari esa kriminal hodisalar oqibatida oilasidan judo bo‘lgan. Boshqalari zo‘ravonlik, uy-joy sharoitining yaxshi emasligi, giyohvand moddalar iste’moli, ota-onasining ajrashib ketganligi sababli bolalar muassasalarigakelib qolgan.

T.N.Otdelkinaning tadqiqotlariga ko‘ra, zamonaviy jamiyatlarda yetim va ijtimoiy yetim bolalar sonining o‘shish tendensiyasi katta yoshli avlod

vakillarining og‘ir va surunkali kechuvchi kasalliklarga chalinish chastotasi bilan uzviy bog‘liq. Zero, shiddatli taraqqiyotning salbiy oqibatlaridan biri bo‘lgan OIV/OITS jahon miqyosida yetimlikning yangi turi – «OITS yetimlari»ni shakllantirdi. “OIV/OITS yetimlari” aksariyat asotsial hulq- atvorli ota-onalarning ikkalasi yoki ulardan birining vafot etishi munosabati bilan yetim qolgan bolalardir. BMTning OITS bo‘yicha dasturlari (UNAIDS), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va YUNISEFning rasmiy statistik ma’lumotlariga muvofiq, ushbu atama aksariyat vaziyatda otasi tirikligidan qat’i nazar, onasi OITS tufayli vafot etgan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan qo‘llanilmoqda. Vaholanki, 80% “OITS yetimlari”ning ota-onasidan biri tirik. XXI asr vabosi sanalgan ushbu kasallik bois, dunyo miqyosida so‘nggi yillarda 20 milliondan ortiq bola yetim qoldi. Ijtimoiy yetimlikdan aziyat chekayotgan bolalarning ichida bunday bolalar soni borgan sari oshib bormoqda.

Rasmiy raqamlar dunyo miqyosida jami yetim bolalarning atigi 10-15% i biologik (chin) yetimlar, qolgan 90%-85% i esa ijtimoiy yetimlar ekanligini ko‘rsatadi. Mos ravishda, to‘liq davlat ta’minotidagi institutsional muassasalarda tarbiyalanayotgan jami bolalarning o‘rtacha 5-10% i biologik (chin) yetim bolalar bo‘lsa, 90-95% i ijtimoiy yetim bolalardir.

MA.Dmitriyeva fikricha, G‘arb davlatlarida ijtimoiy yetimlik omillariga sabab bo‘layotgan tub muammolar nikoh yoshining kechikishi, ajrimlar, norasmiy nikoh munosabatlarining ommalashuvi, tug‘ilishning kamayishi, bir jinsli munosabatlarning legallashtirilishi, zararli odatlarga ro‘ju qo‘yish, natijada esa rasmiy nikoh va oila institutining parchalanishi bilan uzviy bog‘liq. Afsuski, G‘arbning rivojlangan davlatlarida an’anaviy oila institutini saqlab qolishga loyiq ijtimoiy siyosat yuritilmaydi.

Oila-nikoh munosabatlarining tanazzuli borasida ilmiy izlanishlarolib borgan tadqiqotchilar fikricha, tezkor va o‘zgaruvchan zamonaviy jamiyatlarda erkin munosabatlar shaxsga ortiqcha mas’uliyat yuklamasligi boisurf bo‘lib bormoqda. Afsuski, bunday qulay munosabatlar farzandlarning ruhansog‘lom va komil inson sifatida voyaga yetishiga rahna soladi. Bugungi kundaoilalarning buzilishi shu darajadaki, unga kundalik oddiy bir voqea sifatida qaraladi. Oiladagi nosog‘lom muhit ham tarbiya buzilishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ayrim oilalarda bola uchun zarur imkoniyatlar mavjud emasligi sababli noxush holat bilan yolg‘iz kurash olib borish fikri bilan yashaydi. Oqibatda birgina AQSHda bolalarning atigi ¼ to‘liq oilalarda tarbiyalanmoqda. 2000 yildan buyon boladan anonim voz kechuvchilar uchun maxsus jihozlangan Bebi-boks tarmog‘i vujudga keldi. Ular, odatda, tibbiy yoki diniy muassasalar huzurida tuziladi. Ular ichiga bola qoldirilgach, 30 soniyada eshigi avtomatik yopiladi va muassasa xodimlariga signal yoki SMS xabar keladi. Xabar qabul

qilingan zahoti bolani to'liq ko'rikdan o'tkazish maqsadida tibbiy xodimlar vapolitsiya mutasaddilari keladi, bola vasiylik organlariga topshiriladi. Bunday «bola qutilari» Germaniyada «hayot oynasi», Italiyada «hayot beshigi», Yaponiyada «laylak beshigi» yoki «bolalar pochasi», Xitoyda «bolalarni qutqarish orolchasi» deb ataladi. Germaniyada ilk bebi-boks 2000 yilda Gamburg shahrida hayotidan norozi fohisha, giyohvand va aqliy zaif ayollar tomonidan o'z bolasini o'ldirishi kabi mudhish holatlar oldini olish maqsadida o'rnatilgan. Ushbu bolalar qutilariga dastlabki 10 yil davomida (1999-2010 yillarda) 973 nafar xufyona tug'ruq yordamida dunyoga kelgan bolalarning 278 nafari tashlab ketilgan. 2016 yilda esa bunday muassasalar soni 91 taga yetdi. So'nggi paytlarda xuddishunday muassasalarga enditug'ilgan, nogironligi bo'lgan chaqaloqlarni tashlabketish ko'paymoqda.

BMTning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi bolalarni anonim tarzda qoldirilishidan tashvishlanib, bebi-bokslar tizimi faoliyati Bola huquqlarito'g'risidagi Konvensiyaning 6, 9, 19-moddalariga zid ekanligi bois 2012 yildan ularni taqiqlashni tavsiya etdi. Zero, «bolalar qutilari»ning ommaviy tarzda o'rnatilishi boladan osonlikcha voz kechish payida bo'lgan mas'uliyatsiz ota-onalarni xursand qilmoqda.

Bolani oiladan majburiy tarzda tortib olish bola hayoti, manfaat va huquqlarini muhofazalash maqsadida aksariyat noqobil oilalarda sodir bo'ladi. Bunda ota-onalik huquqidan mahrum etish huquqiy akt sifatida sud qarori bilan amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan farzandidan ota yoki onaning ixtiyoriy voz kechishi (aksariyat holda, tug'ruqxonada) yuridik akt bo'lib, maxsus rasmiy qonunchilik hujjati bilan mustahkamlanadi. Dastlabki 3 oy davomida ota-ona o'z qarorini o'zgartirishi va bolani oilaga qaytarishi mumkin. Bola rasman «Vozkechilgan bola»maqomiga ega bo'lgach, u bolalar institutsional muassasalariga yo'naltirilishi yoki boshqa oilaga berilishi mumkin.

Aksariyat vaziyatlarda bolaning oiladan tashqarida tarbiyalanishi uning institutsional muassasaga joylashtirilganligini anglatadi. O'z o'rnida, institutsional muassasa – yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar hamda o'smirlarning uzoq muddatga to'liq davlat ta'minotiga oluvchi tashkilotlar.

Shunday bo'lsa-da, institutsional muassasalar afzalliklaridan biri aka-uka, opa-singillarning bir guruhga joylashtirilishi bo'lib, bu qarindoshlik rishtalarini saqlab qolish va bolada oilasidan butunlay uzilganlik hissini kamaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. G'arb tajribasida sibilnglar (ing - sibling – tug'ishgan aka-uka yoki opa-singil) bilan uzviy munosabat bolaning barqaror rivoji uchun o'ta muhim sanaladi. Zero, bolalar ham aka-ukasi yoki opa-singillari bilan bir guruhda bo'lishi yoki ular bir-birlarini ko'rib turishiuchun sharoit yaratilganligini qadrlaydilar. Biroq, A.Sinkler va A.Gibbslar

aniqlashicha, hozirgi kunda siblinglar o'rtasidagi aloqalar mustahkamligi sezilarli tarzda kamaygan. Chunki, tadqiqotda ishtirok etgan yetim bolalarning yarmi o'z jigarbandlari bilan tez-tez ko'rishib turish istagini bildirgan bo'lsa, qolgan qismi esa o'z siblinglaridan ajratilgan holda yashayotganligi ma'lum bo'lgan.

I.B. Nazarovaning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, muassasadagi aksariyat tarbiyalanuvchilar oilada yolg'iz farzand emas (88,3%), to'rt dan bir qismi (27,6%) aka-uka yoki opa-singlisi bilan birga tarbiyalanadi. 12,2% tug'ishganlar esa alohida-alohida muassasada yashaydi. Katta yoshda mustaqil yashovchilar 25,1%ni, otasonasi bilan yashaydiganlar 21,4%ni, qarindoshlari qaramog'ida bo'lgan bolalar 15%ni tashkil etadi. Muassasada tarbiyalanayotgan qizlarning 46,2%i opa-singlisi bilan, o'g'il bolalarning 53,8%i aka-ukasi bilan doimiy muloqotda bo'ladi.

Xullas, ijtimoiy yetimlik ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat institutsional tuzilmasida muqim o'rnatilganligi bois qisman rasmiylashgan ijtimoiy institutdir. Sababi, ijtimoiy yetimlik institutsional funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan rasmiy tashkilot va muassasalar faoliyatida uyg'un mushtaraklikni ta'minlaydi. Ushbu tashkilotlar qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan tartibda o'z huquq va vakolatlaridan kelib chiqib, ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni institutsional muassasalarga rasmiylashtiradi, ularning keyingi ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy yetimlik integral ijtimoiy institut sanalib, o'ziga xos tizim hosil qiluvchi funksiyalarni bajaruvchi muassasalar, tashkilotlar faoliyatiga yo'naltirildi. Mazkur institutning asosiy unsurlari davlat ta'minoti, postinstitutsional qo'llab-quvvatlash tizimi va hokazo.

Uchinchidan, ushbu faoliyat, avvalo, yetimlik va ijtimoiy yetimlikni o'rnatuvchi davlat organlari, uning maqsadlarini himoyalovchi subyektlar tomonidan amalga oshirilib, yetim va ijtimoiy yetim bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

To'rtinchidan, uzoq muddat muassasa sharoitida tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy holatida o'ziga bo'lgan ishonchning kamayishi, himoyalanganlik, rad etilganlik, tashlab ketilganlik tuyg'usi, yaqin qarindoshlari va muassasaga joylashtirgan kishilarga nisbatan nafrat kuzatiladi.

#### **4.2.5.3.2 Sharq mutafakkirlari qarashlarida yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o'rganilishi**

Shuni alohida ta'kidlash joizki, qadimdan yetim bolalar muammosi ilg'or fikrli kishilar, davlat arboblari, ilm-fan namoyondalarini befarq qoldirmagan. Xususan, islom dini kirib kelgunga qadar bo'lgan davrda Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy asoslari bayon etilgan "Avesto"da keltirilishicha jamoaning kundalik hayoti, xususan, oilaviy munosabatlari qat'iy tartibga solingan. Shu bois, qadimgi ajdodlarimiz ota-onalik mas'uliyatini jiddiy his etgan. Farzand tarbiyasida qat'iy me'yor va taomiyllarga tayanib, ular voyaga yetgach, o'z jamoasi oldida qiz farzandga – "kadbonu", ya'ni uy bekasi, o'g'il farzandga esa "kadxudo" – oila boshlig'i maqomi berilishiga



erishganlar. Yetim-yesir bolalar va faqir, beva- bechora kishilarga nisbatan munosabatda savob va gunohning o‘zaro tafovuti to‘g‘ri anglangan holda ularga nisbatan adolatsizlikning har qanday shakli keskin qoralangan. Jumladan, ularning mol-mulkiga ziyon yetkazish qat’iyan man etilgan.

Islom dini kirib kelgach muhojir, ehtiyojmand aholi qatlamlari, ayniqsa, yetim bolalar haqiga xiyonat qilmasdan, aksincha ularga g‘amxo‘rlik qilish islomiy e‘tiqodning markaziy masalalaridan biriga aylandi. Muqaddas Qur‘oni karimda savobli ishlar qilish, hidoyat bilan mashg‘ul bo‘lish, zalolatdan qochish, yetim-yesirlarga xayr-ehson qilish, mehr-shafqatli bo‘lish odamiylik va muruvvatning yuksak ko‘rinishi sifatida qaralarkan: “Kimki biror yomonlik qilsa, unga (oxiratda o‘sha yomonligi) barobaridagina jazo berilur. Erkakmi, ayolmi – kimki mo‘minlik holida biror yaxshilik qilsa, aynan o‘shalar jannatga dohil bo‘lurlar” - deb o‘rnatildi. Hadislarda keltirilishicha, “halol yo‘l bilan to‘plagan mollaridan ehson qiluvchi, miskin va beva-bechoralarga rahmu shafqat qiladigan odamga ko‘p yaxshiliklar bo‘lur”. Birgina Niso surasining 10-oyatida bu xususda qattiq tahdid bo‘lib unga binoan “Yetimlarning mol-mulkini zulm yo‘li bilan yeydigan kimsalar, albatta, qorinlarida olov yegan bo‘lurlar va albatta, do‘zaxda toblanurlar” – deyilsa, 22-oyatida:“(Voyaga yetgan) yetimlarning mol-mulkini (qaytarib) beringiz, pok narsani nopok narsaga almashtirmangiz! Ularning mollarini o‘z mollaringizga qo‘shib ham yemangiz!. Zero, bu katta gunohdir!” – deb ta’kidlanadi. Demak, islom dinida yetim bolalar masalasida ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etish qat’iy talablardan biri sanaladi.

Sharq Renesanssi sanalgan IX-XII asrlarda tasavvuf ta’limoti vakillaridan Xo‘ja Ahmad Yassaviyning ijtimoiy qarashlarida jamiyatdagi “g‘ariblar”, “yetimlar” qatlami alohida tilga olinib, uning tariqatlarida xuddi shunday tabaqalarning manfaatlarini muhofazalash zarurati qayd etilgan. Zero, tasavvuf ta’limotining ayrim g‘oyalari o‘z zamonasiga nisbatan ma’lum ma’noda taraqqiyparvarlik ruhida bo‘lgan va ular ijtimoiy ojiz tabaqalarning haq- huquqlarini muhofazalashga intilganlar. Xuddi shu davrda yashab ijod etgan mutafakkirlardan Abu Rayxon Beruniy bolalikda yetim qolgan. Bu haqda u: “Mana men uning mamlakatlari orasida uzoq vaqt g‘urbat chekkandan keyin, chaqirilib, soyayi davlatida o‘sib- unganlarning biriman. Uning oliy majlisiga erishib... – zamondosh va tengdoshlarimga nisbatan yaqinlik va ehsoniga erishtiradigan ustunligim va arzirligim bo‘lmasa ham, unga yaqin va mehribonligiga moyil bo‘ldim. Ehsonida g‘oyatga va kamolga yetdim”- deydi. Mutafakkirning ushbu fikrlari mazmuniga oydinlik kiritgan A.Axmedovning fikricha: “Olimning “uzoq vaqt g‘urbat chekkanligi” uning yetimlikda kechirgan yillariga taalluqli deb qaralmog‘i kerak. Beruniy “uning soyayi davlatida unib o‘sganlarning biriman” va “ehsonida g‘oyatga va kamolga yetdim” deyishiga qaraganda, u yoshlik davrini nazarda tutadi. Bu davr esa Xorazmshoh Abu Abdulloh zamoniga to‘g‘ri keladi. Olimning o‘zi aytishicha, otasini ham, bobosini ham bilmagan. Aftidan u bolaligidanoq yetim qolgan ko‘rinadi”.

Yetimlikda o‘sgan Abu Rayxon Beruniy qomusiy olim, buyuk mutafakkir bo‘lib yetishar ekan, o‘zining “Mineralogiya” (“Javohirot kitobi”) asari muqaddimasida yozishicha: “agar biron kishi odamlarning osoyishtaligi deb mashaqqatlarga chidasa, ziqnalik qilmasdan, unga ato qilingan narsalarni birovlariga bersa, bunday odam o‘shanday qudrat bilan shuhrat topgan mard kishi sanaladi. “... himmat – yaxshilikka intilish muruvvat darajasi kabi orta beradi. Yaxshilik qilish hissi barcha odamlarda bir xil paydo bo‘laveradi, ayniqsa u o‘z jinsidan bo‘lak odam bo‘lsa, ayni muddao”.

Ota-ona qarovisiz yetim qolgan bolalar manfaatlarining kafolatlari Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari hukmronlik qilgan davrlarda davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoridan joy olgan. Saltanat quruvchisining fikricha, davlat birinchi galda, mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini himoya qilishi shart. Bunda, maslahat, kengash, qonun-qoidalar va adolat bilan qat’iy tartibda ish yuritilishi kerak. Shu bois, Sohibqiron o‘z saltanatida og‘ir sharoitda yashovchi, muhtoj va miskin, yetim-yesir aholi qatlamlariga doim g‘amxo‘rlik qilib kelgan. Ayniqsa, urushlarda vafot etgan kishilarning oila a‘zolari xususan, yetim farzandlari alohida e‘tiborda bo‘lgan. Hatto zabt etilgan mamlakatlarning aholisi ham bunday g‘amxo‘rlikdan chetda qolmagan. Bu borada Amir Temur o‘z mulozimlariga: «Yana amr etdimki, o‘lganlarning mollarini o‘z vorislariga yetkazsinlar. Agar vorisi yo‘q bo‘lsa, uni xayrli ishlarga sarf qilsinlar” – deb qat’iy ko‘rsatma beradi.

Yetim-yesirlar, g‘aribu miskinlarga xuddi shunday munosabat buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va amaliy faoliyatida ham o‘z aksini topdi. Mutafakkir o‘zdavrida aholining 32 qatlamini turkumlar ekan, ulardan yigirma yettinchi qatlam g‘arib va bechoralar bo‘lsa, yigirma sakkizinchisi uy-joysiz gadoylar, yetim- yesirlarning ijtimoiy xususiyatlarini alohida o‘rgandi. Alisher Navoiy xuddi shunday qatlamlarning ijtimoiy ahvolini ilmiy o‘rganibgina qolmay, ularga beminnat xizmat ko‘rsatuvchi masjid, madrasa, xonaqoh va shifoxonalar qurdirdi. Birgina “Xolisiya” xonaqosida yetim- yesirlar va miskinlarga kunlik tekin oziq- ovqat ulashish tartibini amalda qo‘lladi.

#### **4.2.5.3.3 O‘zbekistonda yetimlik sotsial hodisa sifatidainstitutsionalashuvi.**

Movarounnahrda, xususan, O‘zbekistonda yetimlik rasman institutlashmagan. Ammo, ijtimoiy institut sifatida chin mehr-oqibat, saxovat, rahmdillikni o‘lchash mezoni sifatida amal qilgan.

O‘zbek oilaviy hayoti, odatda, uch avlodni qamrab olgan. Oilada ota rahbar bo‘lib, ayollar va bolalar uy ishlarini bajarganlar. B. Ubaydullayeva fikriga ko‘ra: «Katta oilada bolalar tarbiyasiga ko‘proq e‘tibor berilgan. Bunda oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning roli muhimdir. Katta oila bolaga ma‘naviy, axloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasini bergan, ular bilan barchayoshdagi erkaklar va ayollar shug‘ullangan». Demak, bunday kengaytirilgan oilalarda yetim qolgan bolalar oila tarkibida qolgan va uni yaqin qarindoshlartarbiyalangan.

Ammo, XX asr arafasida Turkiston o'lkasida ijtimoiy-iqtisodiy parokandalik bois aksariyat yetim bolalar badavlat xonadonlarda uy xo'jaligiyumushlarini bajarib, kun kechirgan. Yetim bolalar chorvadorlarga 1 yilga, dehqonlarga 8-10 oy muddatga yollanib ishlagan. Ularning mehnat haqi 6-8 dona qo'y, yozlik va qishlik kiyim, kundalik ovqat bo'lgan. Dehqonchilik ishlarida band bo'lgan yetim bolalar 4-5 botmon g'alla (yoki 120-150 tanga pul), yozlik kiyim olgan. Shartlashilgan muddat tamom bo'lgach, yetim bola haqini olib ketishi yoki yangi muddatga yollanishi mumkin edi. Chorvaning yo'qolishi yoki o'lishi, tabiiy ofat natijasida ekinga yetgan zararni to'lash yetim bola gardaniga tushgan.

Sobiq ittifoq davrida Birinchi jahon urushining asoratlari bois yetimlar soni keskin oshdi. Bu davrda yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni to'liq davlat ta'minotidagi muassasalarda tarbiyalash yo'lga qo'yildi. Xususan, 1917-yilda tashkil etilgan Ijtimoiy himoya vazirligi tarkibida yetim va qarovsiz qolgan bolalar bilan ishlash boshqarmasi ochildi. Bunga sabab, urushlar bois yetimlikning ommaviy tus olishi bo'ldi. Bu davrda bolalar va o'smirlar nazoratsizligi va qarovsizligi kuchayib, V.V.Chernyavskiyning qayd etishicha,

«Bunday bolalar o'z oilalarida yashasalar-da, ota-onalari tomonidan ularning hulqi, ta'lim olishi, tarbiyasi, nazorat ostiga olinmadi. Qarovsiz qolgan bolalar nazoratsizlikning keskin ko'rinishi bo'lib, bunda bolaning o'z oilasi bilan aloqasi butunlay uzilgan bo'ladi. Ularning doimiy yoki vaqtinchalik turar joyi noaniq bo'lib, aksariyati ko'chalarda, vokzallarda tunaydilar va jinoiy guruhlarga jalb etilgan bo'ladi». 1930 yilda nashr etilgan Katta sovet ensiklopediyasida nazoratsiz va qarovsiz qolgan bolalar ilk bor talqin qilinadi. Unga binoan, «Qarovsizlik – bu pedagogik nazorat va vasiylikdan mahrum bo'lgan voyaga yetmaganlar bo'lib, ijtimoiy hulqi va sog'lig'iga zarar keltiruvchi shart-sharoitlarda yashaydilar». 1935-yilda esa davlat rasmiy hujjatlarida nisbatan “nazoratsiz” va “qarovsiz” atamalari ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan yetim bolalarga bir xil mazmunda qo'llanila boshlandi.

1936-yilda qabul qilingan «Bolalarni mehnatkashlar oilasi tarbiyasiga (patronat) topshirish tartibi to'g'risida»ga qarorga muvofiq, dastlab yetim bolalar mahalliy boshqaruv organlari mas'ulligida oilalar tarbiyasiga topshirilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida jang maydonlaridan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan aholi, jumladan, yetim bolalar o'zbek xalqi tomonidan do'stona g'amxo'rlik bilan iliq kutib olindi. Ikkinchi jahon urushi boshlanganda O'zbekiston hududida 40 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, 7166 nafar bola tarbiyalangan. Hatto, 1942 yil 2-yanvarda Toshkentda o'tkazilgan Faol ayollar kengashida quyidagilar ta'kidlangan: «O'zbekistonga yetib kelgan hech bir bola boshpanasiz, ona mehrisiz qolmasligi lozim». Mazkur murojaatdan so'ng bir nechakun davomida 643 oila 69 ta turli shaharlar va tashkilotlardan evakuatsiya qilingan o'g'il va qiz bolalarni tarbiyaga qabul qilganlar. 1942-yil sentyabr oyiga qadar 1015 nafar bolalar tarbiyaga qabul qilinib, 303 nafari esa farzandlikka olingan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida toshkentlik temirchi ShoahmadShomahmudov

(1890-1970-y.) va uning rafiqasi Bahri Akramova (1903-1987-y.) turli millatning qarovsiz va yetim qolgan bolalarini farzandlikka olib, ta'lim-tarbiyaberishgan. 1942-yil yanvar oyidagi qardosh xalqlarning yetim qolgan va evakuatsiya qilingan bolalarini tarbiyaga olish haqidagi xotin- qizlarning murojaatidan ta'sirlangan Shomahmudovlar Toshkent shahridagi 17- bolalar uyiga kelib, turli millat vakillari bo'lgan 13 yetim bolani asrab olishadi. Urushdan so'ng ular yana 3 nafar bolani o'z tarbiyalariga olishgan. Ularning asrab olgan farzandlari Habiba, Vova, Shuhrat – rus, Hamidulla – ukrain, Rafiq, Rahmatulla – tatar, Xolida – moldavan, Samug' – chuvash, Yo'ldosh, Ergash – yahudiy, Halima – qozoq, Qoravoy, Ne'mat, Muazzam, Hakima, Ulug'bek – o'zbek millatiga mansub edi. Urush yillarida o'zi nochor ahvolda bo'lsa-da, o'zgalarning yetim qolgan bolalariga mehr ulashgan o'zbek xalqi vakillarining fidoyiligi yozuvchi Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" romanida o'z aksini topdi. "O'zbekfilm" kinostudiyasining «Sen yetim emassan» badiiy filmi yaratilishiga aynan Shoahmad Shomahmudov oilasining ma'naviy jasorati asos bo'ldi. Keyinchalik Toshkentdagi Xalqlar do'stligi maydonida ushbu oila sharafiga «Xalqlar do'stligi» monumenti o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 9-may «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan so'zlagan nutqida urush yillarida o'zbek xalqining front ortida yetim bolalarga ko'rsatgan g'amxo'rlikini quyidagicha e'tirof etdi: «...toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov xonadoni ana shunday oilalardan biri edi. Bahri aya va Shoahmad ota 14 nafar och- yupun, yetim bolani o'z tarbiyasiga olib, ularga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatdilar. Yer yuzida juda kamdan-kam davlat va millat bunday yuksak insoniy fazilatlar bilan g'ururlanishi mumkin. Vaqt o'tgan sari Shomahmudovlar oilasi ko'rsatgan bu qahramonlikning ahamiyati va qadri tobora oshib bormoqda».

Shomahmudovlar oilasi evakuatsiya qilingan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatgan yagona kishilar emasdi. O'sha yillarda kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 nafar bolani asrab olgan bo'lsa, Yangiyo'l tumanidagi 9 ta kolxoz jamoasi ko'chirib keltirilgan 169 nafar bolani o'z tarbiyasiga olishdi. Buxorolik Muazzam Jo'rayeva va Ashurxo'jayeva o'z tarbiyasiga 8 nafardan bola oldilar. 1943 yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 bola o'zbekoilalariga qabul qilindi.

Urush maydonlarida halok bo'lganlarning bolalarini joylashtirish maqsadida "Ota-onasiz qolgan bolalarni joylashtirish to'g'risida"gi qarorga muvofiq, 1942-yilda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan va aksariyat harbiy xizmatchilarning bolalari uchun mo'ljallangan "Bolalar uylari" va internat tipidagi bolalar muassasalari ochildi. Dastlabki paytdayoq sobiq ittifoq bo'yicha 600 mingdan ortiq bola xuddi shunday muassasalarga joylashtirildi. Xususan, Polsha, Ispaniya kabi Yevropa mamlakatlaridan olib kelingan bolalarning aksariyati Samarqand viloyatidagi 21-sonli bolalar uyiga joylashtirildi. Ruminiyalik publitsist yozuvchi X.Zinke o'sha bolalar qatorida ko'chirib keltirilganda 18 yoshda edi. U samarqandlik kolxozchi Abdurasul Jo'rayev oilasi tomonidan qabul qilindi, keyinchalik o'z xotiralari asosida mashhur «Front kundaliklari» asarini yozdi. Bolalar uylariga dastlab urushda ota-onasi

vafot etgan chin yetim bolalar joylashtirildi. Ammo, ular orasida davlat yoki harbiy xizmat bois bolalari tarbiyasi bilan shug'ullana olmagan ota-onalarning farzandlari ham bor edi. 1945 yil oxirida respublikada 267 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 30 792 nafar bola tarbiyalandi. Umuman olganda, 1950-yilgacha aksariyat yetim bolalarni O'zbekistonga ko'chirib keltirilishini quyidagicha davrlashtirish mumkin: Birinchi davr 1917-1922 yillar. Bu davrda Rossiya hududida inqiloblar, Birinchi jahon urushi va undan so'ng bo'lib o'tgan fuqarolik urushi sabab yetim bolalar soni ko'payib ketgan.

Ikkinchi davr 1923-1940 yillarni qamrab oladi. Ushbu davrda kollektivlashtirish, siyosiy qatag'onlar oqibatida murakkab ijtimoiy- iqtisodiy vaziyat shakllanadi, natijada yetim bolalar qarovsiz qolganligi tufayli O'zbekistonga olib kelib joylashtirilgan.

Uchinchi davr 1941-1945 yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi jahon urushi tufayli yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar hukumat qarorlari asosida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan. Ushbu davrda 1 milliondan ortiq yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan turli millat farzandlarini o'zbek oilalari o'z bolasidektarbiyalagan. Bu tarixiy voqea o'zbek xalqini bag'rikeng millat sifatida dunyogatanitgan.

Ikkinchi jahon urushi tugagach, tarbiyalanuvchilarning yashash sharoitlarini yaxshilash, ta'lim sifatini oshirishga e'tibor qaratildi. Shu tariqa sobiq ittifoq davrida yetimlikning yangi shakli – ijtimoiy yetimlikdan aziyat chekayotgan, ota- onasi tirik bo'la turib, institutsional muassasaga topshirilgan bolalar qatlami shakllandi.

1956-yilda sobiq ittifoq hukumati tomonidan «Maktab-internatlarni tashkil etish to'g'risida»gi qaror qabul qilindi. Ushbu qaror bo'yicha Sovet Ittifoqi tarkibidagi respublikalarda maktab-internatlar tarmog'i yaratildi. O'z davrida bunday muassasalar «Kelajak maktablari» sifatida talqin etilib, ularda tarbiyalanayotgan bolalarning 50%i – kam ta'minlangan oilalar farzandlari, 25%i– yolg'iz onalar farzandlari, 10%i – nogironligi bo'lgan ota- onalarning farzandlari, 15%i – to'liq yetim bolalar va o'smirlar edi. Bu muassasalarda asosiy e'tibor bolalarning moddiy ta'minoti va ta'limga qaratildi. Ammo, ota-onasi mehridan uzilgan bolalarning psixofiziologik rivojlanishi va ijtimoiylashuvi muammolari yopiqlicha qoldi.

Sobiq ittifoqning parchalanishi munosabati bilan uning barcha qismlarida XX asrning 90-yillarida internat tipidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan 400 mingdan ortiq bolalar va o'smirlar barqaror rivojlanishiva ijtimoiylashuv muammolari ilm-fanda tanqidiy ruhda o'rganila boshlandi. Zero, bu davrga kelib, yiliga o'rtacha 120 ming bola bolalar uylari va internatlarga joylashtirilar edi. Ularning 80%i tirik ota-onasi bo'lgan

“ijtimoiy yetimlar” bo'lib, 80%i – bola tug'ilgan zahoti voz kechilgan bo'lsa,20%i – og'ir moddiy sharoit tufayli ota-onalari tomonidan tashlab ketilgan

“ijtimoiy yetim” bolalar edi. Natijada, yangi asr arafasida sovet tuzumi tomonidan yaratilgan internat tipidagi muassasalar tizimi o'zining mutlaq samarasiz ekanligini ko'rsatdi. Davlat ta'minotidagi institutsional

muassasalar ish faoliyati takomillashtirilmadi, bolalarning istiqboli, ularning jamiyatga to'laqonli integratsiyasi masalalari chetda qoldi. Shuningdek, sobiq totalitar tuzum sharoitida jamoatchilik ruhidagi tarbiya ustuvor sanaliboilaviy muhit, ota-ona va farzandlar orasidagi o'zaro iliq munosabat shaxs shakllanishida ta'sir kuchiga ega emas, deb topildi. Bunday yondashuv oqibatida, birinchidan, yetim va ota-ona vasiyligisiz qolgan bolalarni hech ikkilanmasdan internat tipidagi muassasalarga joylashtirish, ikkinchidan, oilani inqiroz holatidan chiqarib, bolani oila bag'riga qaytarish ishlari amalga oshirilmadi. Oilalarda boladan voz kechishga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolarni hal etish, oilani og'ir vaziyatdan chiqishga ko'maklashish mexanizmlari yaratilmadi. Natijada, yetim bolalarni an'anaviy ravishda institutsional muassasagajoylashtirilish tartibi saqlanib qoldi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar 18 ta Mehribonlik uylari, 13 ta go'daklar(bolalar uyi) uylari, 4 ta bolalar shaharchalari, 3 ta SOS-bolalar mahallari. 1 ta oilaviybolalar uyi, 6 ta "Muruvvat" internat uylari tarbiyalanadilar. Mehribonlik uylari faoliyati tarbiyalanuvchilarning maktab o'quv dasturini to'liq o'zlashtirishlari, ularning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash, jismoniy kamol topishlari, axloqiy hamda estetik tarbiya olgan barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga qaratilgan bo'lsa-da, muassasa sharoitida ta'lim-tarbiya olayotganbolalarning aksariyatida o'z shaxsiyati va atrof-muhitga nisbatan dunyoqarash asosini tashkil etuvchi hayotiy ko'nikmalar, qadriyatli mo'ljallar yetarlicha shakllanmasdan qoladi.

Ijtimoiy nochor ahvoldagi aholi qatlamlari, xususan, yetim qolgan bolalarni qo'llab-quvvatlash oliy insoniy fazilatlardan biri bo'lib, insonning diniy burchi, muhtojlarga insonparvarlik xizmatlari ko'rsatish tizimi sifatida ijtimoiyyordam va xayriya jahon dinlarining asosida yotadi.

#### **4.2.5.3.4 G'arbda yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o'rganilishi**

Xususan, Yevropa davlatlarida xristian dini tarqalishi bilan ijtimoiy masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

347 yilda Sardukiy bosh cherkovida (Farbiy va Sharqiy Rim imperiyasi chegarasida) faqirlar, yetimlar, bevalar va musofirlarga yordam ko'rsatish bo'yicha o'n ikkita qoida qabul qilindi. Shu bilan birga unda xayr-exsonlar tarqatishda, faqirlarni ovqat bilan ta'minlashda o'z aksini topgan boshpana va oziq-ovqatberish tizimi ustuvor o'rin egallaydi.

V.I.Brutmanning tadqiqotlarida yetim bolalar uchun boshpanalar borasidagi ma'lumotlar IV-V asrlarga daxldor ekanligi qayd etilgan. Markaziy Yevropada ayni davrda cherkovlar tomonidan xuddi shundayboshpanalartashkil etiladi. XII asrda Yevropaning ko'plab davlatlari yetim va tashlandiq bolalarga g'amxo'rlikni o'z zimmasiga olib boshladi. Dastlab Fransiyada, keyinchalik Buyuk Britaniyada yetim va tashlab ketilgan bolalarga eng kam miqdorda bo'lsada ko'maklashish va ularning ota-onalariga nisbatan chora ko'rish to'g'risidagi qonunlar chiqarildi.

Xususan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI-XVII asrlarda ijtimoiy

yordam davlat tizimi rasmiylashtirilishi davlat rolining oshishi va ayni bir vaqtda xristian cherkovi faolligining pasayishi bilan izohlanadi. Jumladan, 1529-yilda Germaniyada nochorlarga yordam to'g'risida Gamburg ustavi, 1682 yilda esa davlat ta'minoti chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon qabul qilinadi. Angliyada 1531-yilda nochorlarga yordam berish to'g'risida qonun qabul qilinadi, 1572 yilda faqirlarga yordam ko'rsatish uchun umummilliy soliq joriy etiladi. 1601 yilda Angliyada qabul qilingan Kambag'allik to'g'risidagi qonunda muhojirlarga moliyaviy yordam berishga urg'u berildi. Bu qonun mazkur sohada qonunchilikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi va hukumatning inson ehtiyojlari uchun javobgarligi shakllanishida burilish yasadi.

Ayni davrdan cherkovlar Yevropa jamiyatini tashlab ketilgan va topib olingan bolalar uchun boshpana va shifoxonalar ochishga choraladi. 1792 yilda AQSHda, 1734 yilda Italiyada "topib olingan bola"lar uyi ochildi. 1880-yildan boshlab Shimoliy Amerikada yetimlar va tashlandiq bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadi bo'lgan agentliklar ochilib boshlandi.

Rossiyada ijtimoiy himoya davlat tizimining qaror topishi 1701 yilda imperator Petr I tomonidan «Avliyo Patriarx uylarida g'ariblar, kasallar va qariyalarni aniqlash to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinishidan boshlandi. Imperator Petr I davrida birinchi yetimxonalar paydo bo'ldi, jamiyatga davlat tomonidan faqirlarni ajratish va har bir alohida toifa bo'yicha g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha choralar qabul qilish yuklandi.

Ota-ona qarovisiz qolgan bolalar orasida ijtimoiy ahvoli yanada ayanchli bo'lgan qatlam – bu imkoniyati cheklangan bolalar bo'lib, ularga nisbatan tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida turlicha munosabatlar kuzatilgan. Ayniqsa, aholi xurofotga ommaviy tarzda berilgan o'rta va yangi davrlarda oilada nogiron farzand tug'ilishi jamoatchilikning bid'atlariga sabab bo'lgan. Shu bois, nogironligi bor bolalar aksariyat vaziyatlarda turli muassasalarga tashlab ketilgan.

Ammo, ular ham boshqalar qatorida to'laqonli huquq va ehtiyojlarga ega bo'lgan insonlar ekanligi hamda ular sog'lom insonlar tomonidan alohida g'amxo'rlik va parvarishga muhtoj ekanligi to'g'risidagi insonparvarlik g'oyalari o'rta asrlarning so'nggi bosqichlarida Yevropa davlatlarida asosan ijtimoiy-gumanitar fanlarning ilg'or vakillari faolligi natijasida yoyila boshlandi.

Xususan, 1578-yildan Ispaniyada eshitish qobiliyatida muammolari bor kishilarga, 1648 yildan Angliyada ko'rish qobiliyatida nuqsonlari bor kishilarga alohida g'amxo'rlik bilan ko'maklashish tajribasi boshlangan. Ularga hayotiy faoliyatlarini yengillashtirishda ko'maklashuvchi maxsus muassasalar ochilib, ularga ta'lim berilgan. Ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarni individual tarzda o'qitish tajribasi esa 1670-yildan Fransiyada boshlangan.

Ushbu amaliy tajriba bilan bir qatorda Yevropaning ilg'or ilm-fan namoyondalari tomonidan ota-ona tomonidan voz kechilgan nogironligi bor bolalarning tibbiy-ijtimoiy ahvoli ilmiy-amaliy o'rganish jarayoni boshlangan. Xususan, oligofrenlarning maxsus o'qitish harakatlari XIX asrda boshlanib, bu

muammo bilan dastlab 1745 yilda tugʻilgan mashhur fransuz psixiatri F.Pinell shugʻullanib boshlagan. U 1792-yilda aqliy zaif kishilarning Parij muassasasi vrachisiftida faoliyatini boshlagan. Ushbu kasbiy faoliyati davomida uning xuddi shunday nuqsonga ega kishilarga jamoatchilikning salbiy munosabatini oʻzgartirib, hukumatdan aqliy zaif kishilarni zanjirband holda qamoqxona sharoitidagi muassasalarda saqlanishlaridan xolos etishga erishgan. U bidʻat va xurofotning qurbonlari boʻlayotgan aqliy zaif kishilarni qamoqxonasharoitidagi muassasalarda emas, yorugʻ va yaxshi tozalangan kasalxonalarda davolash tizimini yoʻlga qoʻygan. Bunday kishilarni davolashning ajralmas qismi sifatida ularga mehribonlik va ruhiy madad berishni taklif etagan va oʻzi ilk bor amalda ruhiy iztirobdagi insonlarga xuddi shunday munosabatda boʻlgan. Keyinchalik uning gʻoyalari taʻsirida ogʻir ruhiy kasal ayollar zanjirlardan ozod etilgan.

F.Pinellning ilmiy-amaliy tajribasi taʻsirida imkoniyati cheklangan turli shakldagi nogironlikka ega insonlar, bolalarga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashish gʻoyasi Yevropada keng ommalashdi. Keyinchalik bu boradagi izlanishlar fransuz olimlari J-E.D.Eskirol va M.M.G. Itarlar nomi bilan bogʻliq.

AQSHda E.Segen ilk bor aqliy zaif bolalar uchun maxsus maktab ochgan. Unda bolalarga taʻlim berish va tarbiyalash, mehnat va jismoniy tayyorlash nazarda tutilgan. Yevropada bu gʻoyalar M.Montesorri tomonidan rivojlantirilgan boʻlib, Mariya Montesorri 1870 Italiya qirolligida dunyoga kelgan. U pedagog vrach, olim, faylasuf, insonparvar kishi hisoblangan va dunyoda ilk bor imkoniyati cheklangan kishilar, xususan, bolalar bilan ishlashning mashhur pedagogik tizimini yaratgan. Uning xizmatlari 1988 yilda YUNESKO tomonidan XX asrning eng mashhur pedagoglari qatorida tan olingan. Montessorining ilk pedagogik maktabi 1907 yilda Rimda ochilgan boʻlib, u aqliy muammolari bor bolalar muassasalarida ular bilan professional ishlashni yoʻlga qoʻygan. U umrining soʻnggi yillarini Niderlandiyada oʻtkazgan boʻlib, 1929 yilda Xalqaro Montesorri-tashkiloti aynan shu davlatda tashkil etilgan. Uningoʻgʻli 1982-yilgacha ushbu tashkilotni boshqarib borgan. XX asrning boshida Yevropada nogironligi bor bolalar nuqsanlari toʻgʻirlashga yoʻnaltirilgan ilmiyoʻnalishlar rivojlanib bordi. Natijada aynan shu kabi insonlar bilan ishlashning quyidagi maxsus muassasalari paydo boʻlgan:

- Xristian-filantropik;
- Tibbiy-pedagogik, davolovchi, tarbiya va taʻlim;
  - Pedagogik taʻlim: eshtiish, koʻrish, aqliy faoliyatida buzilishlari bor bolalarni oʻqitish muassasalari;
  - psixodiagnostik tashhishlash aqliy qobiliyati buzilgan shaxslarni uchun maxsus muassasalar.

Oligofrenlik muammolari ilk bor Norvegiyada L.Dalem tomonidan oʻragilgan. 1871 yilda suropedagog Xansen va Lippestadlar tomonidan maxsus eksperimentlarini oʻtkazilgan. 1877-yilda ular aqliy zaif bolalar uchun maxsus muassasa-maktablarini ochgan. Keyinchalik qizlar va oʻgʻil bolalar uchun alohida taʻlim va tarbiya beruvchi maktablar ham ochilgan. 1892yilda Norvegiyada barcha,



shu jumladan korreksion maktablar ham davlat ixtiyoriga o'tishi haqidagi qonun qabul qilingan. Shu tariqa Norvegiya va Saksoniya Yevropada aqliy zaif bolalar ta'limi yo'lga qo'yilgan ilk davlatlar bo'ldi.

XX asrda ijtimoiy ish kasb va ta'lim sohasining rivojlanishi natijasida 1917-yilda ijtimoiy ish xodimlarining milliy birjasi va 1921-yilda Amerika ijtimoiy ish uyushmasini paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Yevropada esa 1928-yilda yetti Yevropa davlati Parij shahrida ijtimoiy farovonlik bo'yicha Xalqaro ittifoqqa birlashdilar. Tabiiyki, ushbu harakatlar yetim qolgan, nogironligi bor bolalar muammosini ilmiy-amaliy o'rganilishining sezilarli rivojlanishiga qudratli turtki berdi.

Mazkur band yakunida oldinda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga ega bo'lindi:

Birinchidan, yetimlik – turli xalqlarning etnik va sotsiomadaniy xususiyatlari qorishmasidan hosil bo'luvchi ijtimoiy hodisadir.

Ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida ijtimoiy (vayronkor urushlar, yuqumli kasalliklar epidemiyasi, ocharchilik, diniy xurofot vah.k.) va tabiiy (tabiat ofatlari, bahtsiz hodisalar) yetimlikni shakllantiruvchi bosh omillardan sanalgan.

Uchinchidan, ota-ona qarovsiz qolish tarixan ilg'or fikrli kishilarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

To'rtinchidan, zamonaviy taraqqiyot bosqichiga o'tilishi bilan yetimlik murakkab sotsial hodisa sifatida o'zgacha mohiyat kasb etib bordi.

### **Nazorat savollari:**

1. Yetim tushunchasini mazmun mohiyatini tushuntirib bering.
2. Avestoda yetim-yesir bolalar va faqir, beva-bechora kishilarga nisbatan munosabat qanday bo'lgan?
3. Islomda yetim-yesir bolalar va faqir, beva-bechora kishilarga nisbatan munosabat qanday bo'lgan?
4. Abu Rayxon Beruniyning yetimlik to'g'risidagi fikrlarini tushuntiribbering?
5. G'aribu miskinlarga nisbatan Amir Temur va Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil qilib bering?
6. O'zbekiston Respublikasida yetim va qarovsiz bolalarni ijtimoiy himoya tizimini yoritib bering?
7. G'arbda yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o'rganilishi tarixiniyoritib bering.

### **3- MAVZU. OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALAR MUAMMOLARIGA BOG'LIQ TADQIQOTLAR.**

## Reja:

1. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning ijtimoiy muammolaritahlili.
2. Jamoatchilik muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga oid tadqiqotlar tahlili.
3. Jahon tajribasida deinstiuttsializatsiya masalasi.
4. O'zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar.

**Tayanch so'zlar:** *ijtimoiy muammolar, mehribonlik uylari, biologik yetim, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolala, qarovsiz qolgan bolalar, ijtimoiy qarovsiz qolgan bola, jahon tajribasi, sotsiologik tadqiqotlar.*

### 1. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning ijtimoiy muammolari tahlili

Bugungi kunda jahon miqyosida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar soni ko'payib qoldi. Bular qanday bolalar? Bu savolga javob berish ancha mushkul. Yaqin tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, Fuqarolar urushi yillarida ota-onalaridan ajralib qolgan bolalarni davlat qaramog'iga olib tarbiyalash bosh muammo bo'lgan bo'lsa, II-Jahon urushi yillarida halok bo'lgan ota-onalarining farzandlarini bolalar uylariga olib, boshpana va ta'lim-tarbiya berish asosiy o'rinda turgan. Davlat qaramog'iga olingan bu bolalardan olimlar, yozuvchilar, qahramonlar va birqancha buyuk kishilar yetishib chiqqan. Bu esa o'z navbatida biologik omillarning sog'lomligidan dalolat beradi.

Hozirgi Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalarda uchraydigan nosog'lom muhit biologik omillarning izdan chiqqanligini ko'rsatadi. Biologik omillarning buzilishi esa ota-onalarning ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishalik, jinoyatchilik va jamiyatga zid turmush tarzini kechirishlari bolalar shaxsini izdan chiqishiga bosh sabab bo'ladi. Bunday bolalarga ta'lim-tarbiya berish, yangicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'z navbatida yuqori darajadagi pedagogik mahorat talabqiladi.

Biz o'z ilmiy izlanishimizda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalardagi muammolar, ruhiy o'zgarishlar, axloqiy, aqliy, xarakter va ijtimoiy psixologik xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar haqida to'xtalib o'tishga harakat qildik.

Barchaga ma'lumki, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar oiladagi bolalardan keskin farq qiladi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar xarakter xislatlardagi tajovuzkorlik (agressivlik)ni keltirib chiqaruvchi omillardan biri ona mehriга zorlik, ota-onalar tarbiyasiga muhtojlik bo'lib hisoblanadi.

Angliyalik psixolog olim R. Bernis onalik mehriга tashnalikni tahlil qilaturib, shunday deb yozadi: Salbiy (dalilsiz) "Men konsepsiyasi" ning rivojlanishi va hissiz tajovuzkorlik bolaning ota-onasiga va ota-onalik rolini bajaruvchi kishilarga nisbatan qo'polligi natijasidir. Bolada hech kimga qo'shilmaslik, odamovilik,

tundlik hissi paydo bo‘la boshlaydi. Bular esa salbiy “Men konsepsiyasi” ni keltirib chiqaradi. Tajovuzkorlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, qarama-qarshilik, aniq bir to‘xtamga kela olmaslik kabilar ota- ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga keyinchalik doimiy salbiy hissiyotlarning shakllanishiga olib keladi.

V.S.Rotenberg va S.M. Bondarenkolar ishlab chiqqan “Qidiruv faolligi” – deb atalgan konsepsiyada ta’kidlanishicha, “Agar qidiruv faolligini yo‘nalishini o‘zgartirilsa, tajovuzkorlikni yo‘qotish mumkin bo‘ladi”.

Mustaqil hayot kechirish tasavvuriga ega bo‘lmagan ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar aksariyat hollarda qiynalib qolishadi.

N.N.Tolstix tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kelajakkaishonch, unga munosabat, hayotiy rejalar, vaqtinchalik imkoniyat yaratish, o‘smirning o‘sishi, hammasi ijtimoiy vaziyat ta’siri ostida o‘tadi. Keyinchalik, L.S.Vigoskiy va L.I.Bojovichlar o‘z tadqiqotlarida bu g‘oyani rivojlantirganlar.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari uchun kundalik hayot axloqiy me‘yorlar, o‘qish, tartibga itoat etish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar hisoblanadi.

Yopiq holdagi bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar kichik guruhlar bilan munosabatda bo‘ladi, ularda boshqa guruh bilan munosabatda bo‘lish cheklangan.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari kattalarga yoki tarbiyachilarga yoqish uchun tartibga, intizomga bo‘ysunishga harakat qilishadi.

Oiladagi bolalarni kundalik hayot tashvishlari bilan birga ko‘pgina umuminsoniy muammolar ham qiziqtiradi, ular o‘qishdan, oilaviy ishlarga qarashishdan tashqari, bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazish va shu kabi holatlarni mustaqil hal qilishadi.

Ma’lumki, bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchilarning ruhiy rivojlanishi umumiy tarbiya maskanlaridagi bolalarga nisbatan ancha orqada. Shuning uchun ham bolalar shaxsiy hayot pozitsiyasiga ega bo‘lishlari, o‘z-o‘zlarini, ichki vatashqi imkoniyatlarini anglashlari, shaxslararo munosabatlarga kirishishlari, oila muhitiga muvoffaqiyatli moslashishilari uchun oilada tarbiyalanishlari lozim.

N.P.Ivanova va O.V.Zavodilkanalarning ta’kidlashiicha, oilaning har bir a’zosiga xos bo‘lgan rolli kutilmalarning o‘zaro muvofiq kelishi bolaning tutungan oila muhitiga muvofaqiyatli moslashishining shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, bolaning shaxsiy hayot tajribasi ham uning oila bilan identifikatsiyalashuviga, ya’ni o‘zini oila a’zosi qatorida his etishi xususiyatlari hosil bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, mualliflarning tadqiqot natijalariga suyangan holda e’tirof etishlaricha, tutingan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning shaxslararo munosabatlarga kirishish xususiyatlari rivojlanishi dinamikasida ijobiy ko‘rsatkichlar kuzatiladi.

Bolalar uyidagi qiyin tarbiyaviy jarayon tarbiyachidan nafaqat bugungi vazifani, qolaversa, jamoa rivojlanish tizimini va kelajakni belgilash, yo‘llarini belgilashni taqozo qiladi.

Ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijasida, 13 yil bolalar uyida faoliyat olib borib, o'ttirilgan tajribalarga asoslangan holda, S.A.Dzenushkayte shaxsning barcha maqsadlarini, istiqbolini ifodalovchi tarbiya maqsadi haqida insonparvarlik munosabatlarini quyidagicha ta'riflaydi:

- Kimki yordamga muhtoj bo'lsa, unga sidqidildan yordam berish;
- Boshqalarga nisbatan hurmatda bo'lish;
- Boshqalar quvonchiga, g'amiga sezgirlik bilan munosabatda bo'lish;
- Boshqalar qayg'usiga sherik bo'lish;
- Insoniy qadr-qimmatga ozor bermaslik;
- Odamlar orasidagi insonparvarlik munosabatlariga zid ko'rinishlarga qarshi murosasiz bo'lish kerak.

Bugungi kunda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaga olib tarbiyalash ijtimoiy ish sohasining asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar qatori, boquvchisini yo'qotgan bolalarni o'z tarbiyasiga olgan oilalarga ko'mak berish zamon talabidir. O'z oilasiga ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni olib tarbiyalayotgan oilalar tarbiya jarayonidagi barcha qiyinchiliklardan, ham moddiy, ham metodik va bir qancha psixologik-pedagogik yordamga muhtojligiklari sezilib qoldi.

A.S.Spivakovskaya ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaga olib tarbiyalashning ikki xilini ajratib ko'rsatadi. Birinchi toifaga quyidagi sabablar taalluqli: turmush tarzi ehtiyojini boshqarishga asoslangan tarbiyaga erishish, oliy maqsad yoki aniq sifatlar ta'minlashiga oid tarbiya.

Ikkinchi toifaga quyidagi sabablar taalluqli: emotsional bog'lanishli ehtiyojlarning aniq tizimlar ta'minotiga asoslangan tarbiya.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaga olib tarbiyalayotgan ota-ona bola tarbiyasi bilan shug'ullanayotganda, o'z hayotiy faoliyatini g'amxo'rlik bilan to'ldirib borsa, yaxshi xulqi uchun bolani rag'batlantirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning shaxs sifatlarining shakllanishi va bir qancha ruhiy holatlarga taalluqli muammolar bilan bog'liq tadqiqotlar ham olib borilgan bo'lib, avstriyalik olim A.Adler ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar orasidagi jinoyatchilik, qonunbuzarlik xususiyatlarni o'rganib chiqib, ba'zi bir olimlar fikrini inkor qiladi, qarovsiz holda qonunbuzarlik bilan shug'ullanib kelgan bolani tarbiyaga olib, qayta tiklash mumkin emasligi haqidagi qarashga tanqidiy munosabat bildirib, bola hech qachon tug'ma ravishda jinoyatchi yoki qonunbuzar bo'lib dunyoga kelmaydi. Tarbiya jarayonida yosh xususiyatlari, shaxs sifatleri yo'nalishi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, qayta tarbiyalashga erishish mumkinligini aytib o'tadi.

**2. Jamoatchilik muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga oid tadqiqotlar tahlili.**

Jamoatchilik muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga oid tadqiqotlarning natijasi olimlarning institutsializatsiyalashgan sharoitlarda yashab kelayotgan bolalar umumrivojlanishi haqidagi qayg'urishlarining bejiz emasligini ko'rsatib keladi.

Z.Freyd o'z tadqiqotlarida oilasidagi o'z yaqinlaridan ajralib qolish oqibatida bolalarda salbiy hissiyotlarning rivojlanib borish omillarini o'rganib chiqqan.

Z.Freyd o'z ilmiy izlanishlarida bolaning onasidan ajratib tarbiyalash jarayoni bolaning ruhiy holatini izdan chiqishiga sabab bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Oilada o'z onasini eslay oladigan bolalar o'z onasini tez-tez qumsab turadi, uzoq vaqtgacha uchrashmaslik esa salbiy hissiyotlarning namoyon bo'lib borishiga sabab bo'ladi.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari orasida intizomni saqlash uchun qo'llaniladigan tartib, jazolash kabi holatlar bo'yicha ham ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilgan.

Bunday tadqiqotlardan biri amerikalik olim R.A.Shipis olib borgan ilmiy izlanishlar bo'lib hisoblanadi.

R.A.Shipis bolalar uyidagi intizomni saqlash uchun qo'llaniladigan jazolashni qat'iy qoralaydi.

R.A.Shipis o'z tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: "Bolalarni guruh oldida jazolash yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Aybsiz aybdorlar jazo yarasini unutmaydilar, tarbiyachiga nisbatan hurmatsizlik hissi paydo bo'ladi. Izquvarlik qilish ham yaramaydi. Bu yerda ham aybsiz bolalar aybdor bo'lib qolishi hech gap emas. Buning o'rniga sodir etilgan jinoyatni guruh oldida muhokama qilish yaxshi natijalar beradi. Birinchi navbatda intizom buzilishining sababini o'rganish kerakligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ishonch va aralashish, intizom buzilishi bilan bog'liq bo'lsa, jazolash voqea sodir etilgandan so'ng qo'llaniladi. Jazolash paytida, bolalar

tarbiyachi intizomni tiklashini va shu yerda tartib o'rnatish olishligini bilishi kerak".

A.A.Xvostov bolalar uylaridagi intizomning keskin buzilib ketishi, bolalar orasida jinoyatchilikning avj olishi, axloqiy me'yorlarning buzilishi kabi holatlarni ijtimoiy psixologik tadqiqot predmeti sifatida o'rganib chiqqan.

Intizomga taalluqli masalalardan biri tarbiyachining shaxsiy xarakteristikasi bo'lib, bu masala yuzasidan K.F.Tonuliya, K.R.Torenburg, V.Vasmund va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Tarbiyachi o'z hatti-harakatini doimo nazorat qilishi lozimligi yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan ta'kidlanadi. Bu esa o'z navbatida tarbiyachini obyektivlikka olib keladi.

Amerikalik psixolog olim A.Yu.Marokko ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muammosi ustida, ularning ruhiy rivojlanish yo'llari haqida fikr yuritib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. Bolalar yashash sharoitini yaxshilash Amerika ligasi (ALBD – Amerikanskaya Liga za Blagosostoyaniye Detey) da ijtimoiy moslashtirish, ularga yordam berish ustida ishlashning bir qancha usullari ko'rsatib o'tilgan.

Eng keng tarqalgan tizimlardan biri bu foster oila boʻlib hisoblanadi. Bunday oilalar asosan ikki kishidan iborat: er va xotin. Ular tarbiyalash uchun oilasiga bolalar olishadi. Yashash, ovqatlanish, madaniy damolish hammasi oila zimmasida turadi. Foster oilalarga ota-onasi bilan kelisha olmagan, ular uyida yashashni istamagan bolalar olinadi. Bu bolalarning koʻpchiligi psixologik stressga uchragan boʻlib, tinch, osoyishta yashash sharoitini izlab foster oilalarga kelib qolishadi. Bu yerda bolalarga hamma yetarli sharoitlar yaratib berib, kelajakda oʻz oilalariga qaytarishga harakat qilinadi.

Bolalar yashash sharoitini yaxshilash Amerikaligasi sistemasida ish olib borayotgan psixologlar bir qancha ijtimoiy psixologik usul va yoʻl- yoʻriqlarni ishlab chiqqanlar. Tarbiyachilarning vazifasi esa ana shu usullarni voqelikka olib chiqishga yordamlashadi.

### **3. Jahon tajribasida deinstitutshializatsiya masalasi**

Jahon tajribasida deinstitutshializatsiya masalasining (tarbiyaning institutshional shaklidan voz kechib, bolalarni oʻz tarbiyasiga olishga tayyor boʻlgan oilalarni qidirish) faollik bilan ilgari surilishi esa institutshializatsiyalashgan muassasalarda yashab kelayotgan bolalarning nafaqat har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar bilan taʼminlash, balki oʻsib kelayotgan bolalarda oʻz kelajaklarini qurish koʻnikmasi shakllanishining tabiiy muhitini yaratishni taqozo etadi. Bu muhit esa, shubhasiz, oiladir.

Bolalar uyida goʻdaklik davridan buyon yashab kelayotgan bolalar rivojlanishiga gospitalizm hodisasining salbiy taʼsiri ular psixik taraqqiyotining har tomonlama orqada qolish koʻrsatkichiga ega boʻlib borishida oʻz izini qoldiradi. Ijtimoiy xulq-atvorni egallab borishdagi oʻziga xoslik, shaxslararo munosabatga kirishish davomidagi qiyinchiliklar, kasbiy, oilaviy kelajaklarini rejalashtirish bilan bogʻliq holda yuzaga keladigan muammolar deprivatsion sindromning asoratlaridandir. Institutshional muassasalarga alternativ boʻlgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, jumladan, oilaga joylashtirishning shakllarini keng targʻibot qilish deinstitutshializatsiya masalalarining amaliy yechimini izlash yoʻllaridan biridir. Zero, mazkur muassasalarda istiqomat qiluvchi bolalarning shaxsi xususiyatlari tarkibida jamoatchilik kayfiyati kabi meʼyorda ijtimoiylashuv jarayoni kechishiga zid boʻlgan koʻnikmalarni shakllantiruvchi tor ijtimoiy muhit tarbiyalanuvchi kelgusidagi hayoti muvoffaqiyatli kechishiga salbiy taʼsir qiladi.

Ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalar juda taʼsirchan boʻladilar. Shuning uchun Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga xos psixik pessimizm hissining bartaraf etilishi uchun ularning yashash tarzi oilaviy tipdagi bolalar muassasasi sharoitiga yaqinlashtirilishi hamda bolalar milliy anʼanalar, urf-odatlariga oʻrgatilib borilishi zarur. Bu sharoitni esa oilaviy muhit andozasi boʻlgan patronat oilalar taʼminlab berishi mumkin.

Koʻpgina davlatlarda soʻnggi oʻn yillikda yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalar uchun katta muassasalardan voz kechish va bolalarga tabiiy (oilaviy)

muhitda ko‘mak berish kuzatilmoqda. Bunga Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng Shvetsiyada asos solindi. Shvetsiya tajribasi bolani o‘z oilasida diqqat markaziga qo‘yishnigina emas, balki oilani jamiyatdan chetlashtiruvchi jarayonlarni bartaraf etishni ham o‘z ichiga olgan.

Rivojlangan davlatlarda ota-onalar o‘z farzandlarini parvarish qila olishlari uchun oilaga yordam ko‘rsatishga intiladilar. Ayrim vaziyatlarda bolani tutingan ota-onaga berish kabi choralarni qo‘llaydilar.

Aynan oila bolaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham, ko‘pgina davlatlarda ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘pgina ishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar natijalarining ta‘kidlashicha, bolani oilaviy hayotga tayyorlash ishi ularning oilaviy hayot va oilaviy munosabatlar haqidagi bilimlarni egallashlari mumkin bo‘lgan muhitning mavjud bo‘lishini talab qiladi.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilaga joylashtirish muammolarini hal etish bilan bir qatorda boshqa bir talay muammolar – nafaqat ijtimoiy, balki mazkur jarayonni tashkillashtirish bilan bog‘liq bo‘lg‘usi nomzod ota-onalarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy, pedagogik, psixologik to‘siqlar mavjud bo‘lishi mumkin.

RBIMM xodimlari tomonidan “Patronat oilalarning bolalarni jamiyatga samarali integratsiyalashuvini ta‘minlovchi ijtimoiy, pedagogik va psixologik resurslarini aniqlash” loyihasi doirasida O‘zbekiston hududidagi patronat oilalarning ijtimoiy, pedagogik va psixologik resurslari o‘rganilgan.

Patronat oilaning ijtimoiy resursini o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatadiki, bola patronat oila sharoitida o‘z xonasi va o‘z burchagiga ega bo‘ladi. Bolalarni qarindoshlari bilan munosabatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratilganligi hamda oilaning mavjudligi natijasida u haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

Pedagogik resurslar patronat oila ota-onalari tomonidan bolalarni maishiy xo‘jalikni yuritishga o‘rgatiladi, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya beriladi, shuningdek, jamoa tarbiyasidan mustasnoligidir.

Psixologik resurslar orqali patronat oilada bola ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashi uchun ko‘proq imkoniyat yaratiladi.

Patronat, avvalo, bolalarning manfaatlarini ko‘zda tutadi. Bu jarayonning asosiy tashkilotchisi oiladir. Bolani patronatga olgan oila a‘zolarining hayot tarzi, ularning ma‘naviy hamda ma‘rifiy qiyofasi bolaning shaxs sifatida rivojlanishining tashqi omili sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, patronat oilalarning tarbiyalanuvchilar ruhiyatini (ichki omil) to‘laqonli shakllanishidagi hamda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvidagi roli va ahamiyati kattadir. Himoyaga muhtoj bolalarni jamiyatga samaraliroq integratsiyalashuvini ta‘minlash, ijtimoiylashuvning oiladagi oddiy elementlari (uy-ro‘zg‘or yumushlari, oila haqida

amaliy tushunchaga ega bo'lish, otalik va onalik hamda farzandlik funksiyalarini o'zlashtirish, oila a'zolari bilan muloqotga kirishish xususiyatlari, oilaviy byudjetni rejalashtirish) haqida bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollanishlariga yordam berish patronat oilalarning asosiy funksiyalaridandir.

Demak, patronat oilalardagi mavjud oilaviy muhit, ota va onaning oiladagi o'rni, ular xulqining tarbiyaviy namunasi, iliq oilaviy- ijtimoiy munosabatlar, farzandlik tarbiyasi, mehnat ko'nikmalari bilan bog'liq bilim va tajriba mazkur oilada tarbiya topayotgan bolaning samarali ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

Yuqorida o'rganib chiqilgan ilmiy tadqiqotlardan shu narsa ma'lumki, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning ruhiy rivojlanish jarayonida shunday o'ziga xos maxsus xususiyatlar borki, bu ruhiy rivojlanishdan orqada qolish emas, balki bu maxsus xususiyat ichki tushuncha, tasavvur bir qatorda namoyon bo'lmasligi, harakatlantiruvchi fikrlash va axloqiy javobgarlikning tashqi vaziyatlar bilan bog'liq holati bilan xarakterlanadi.

Insoniyat taraqqiyoti beshigi hisoblanmish oila doimo jamiyatning o'zagi, asosi bo'lib kelgan. Oila va uning a'zolarining iliq hamda bir-birini qo'llab-quvvatlovchi munosabati shu oilada o'sib kelayotgan bolaga o'zini atrofdagilar nazarida ahamiyatli va qadrga ega bo'lgan inson sifatidagi etishiga yordam beradi.

Inson ruhiyatini barkamollikka yetaklovchi sharoit oilada bo'lib, bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini hayotga keng tadbiq qilish ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimini muvofiqlashtirishning eng maqbul yo'llaridan biri hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bugungi kunda jahon miqyosida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar soni ko'payib qoldi. Bular qanday bolalar?
2. Hozirgi Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalarda uchraydigan nosog'lom muhit biologik omillarni yoritib bering.
3. Angliyalik psixolog olim R. Bernis onalik mehriqga tashnalikni tahlil xaqida qanday fikr bildirgan.
4. S.A. Dzenushkayte shaxsning barcha maqsadlarini, istiqbolini ifodalovchi tarbiya maqsadi haqida insonparvarlik munosabatlarini qanday ta'riflaydi?
5. Jamoatchilik muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga oid tadqiqotlar tahlilini tushuntirib bering.



6. Jahon tajribasida deinstitutionalizatsiya masalasini yoritib bering.
7. O‘zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarini tushuntirib bering.

#### **4- MAVZU. OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOYIY HIMOYALASH MASALALARINING XALQARO VA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARIDA AKS ETTIRILISHI.**

##### **Reja:**

- 1. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro tajribasi.**
- 2. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalari.**
- 3. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi.**
- 4. O‘zbekistonda yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni noinstitutionlashtirish muammolari**

**Tayanch so‘zlar:** *ijtimoiy muammolar, mehribonlik uylari, bolalar shaharchasi, go‘daklar uyi, oilaviy bolalar uyi, xalqaro va milliy qonunchilik, vasiylik va homiylik, patronat oila.*

##### **1. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro tajribasi**

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalari davlatimiz siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni himoyalash borasidagi xalqaro va milliy darajada qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy tamoyili butun dunyoda bolalar huquqini muhofazasining ta‘minlanishi va umuman ijtimoiy yetimlik muammosini oldini olishga qaratilgan.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyada “...barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘iladilar”, deb belgilanadi. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanishi, o‘z ota-onasini bilishi, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bu huquq bolaga barkamol voyaga yetish, sog‘lom tan va tafakkurda, hech narsaga alishib bo‘lmaydigan ota-onaning ko‘z qaramog‘ida bo‘lib, ularning mehr-muhabbatidan bahramand bo‘lish, tashqi olam-atrof bilan o‘ziga eng yaqin kishilar hisoblanmish ota-

onalari orqali bog‘lanish, bu tufayli atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarni asl holida tushunishi, idrok qilish va xulosa chiqarish, o‘zgaralar tajovuzidan, tahdididan munosib himoyalaniish imkonini beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e‘lon qilgan.

## **2. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalari**

Bugungi kunda ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy- huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalalari ularni yashash joylari bilan ta‘minlash, ma‘lum bir muassasa yoki shaxslar vasiyiligiga berish, ta‘lim va tarbiya olishga, shuningdek, sog‘lom va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga nisbatan bo‘lgan huquqlarni himoyalashning muqobil shakllari hamda imkoniyatlarini joriy etish va hayotga tadbiq qilishga qaratilgan.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga oid quyidagi xalqaro va milliy darajadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonuni;
  - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12- apreldagi 171-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksini hayotga tadbiq qilish chora tadbirlari haqida”gi Qarori;
  - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12- apreldagi 171-sonli qaroriga 2-Ilova. “O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Nizomi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12- apreldagi 171-sonli qaroriga 3-Ilova. “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi Nizomi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgin tarzda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1189-son bilan 2002-yil 18-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta‘limi Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyafzal bilan ta‘minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldagi 158-sonli qaroriga Ilova. “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risida”gi Nizomi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21- avgustdagi 179-

sonli “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-maydagi 110-sonli qaroriga Ilova. “Vasiylik va homiylik organiga ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish tartibi haqida”gi Nizomi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 11 fevraldagi “Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lganbolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4185-son Qarori.

Keyingi yillarda davlatimiz siyosatining oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofazalashga qaratilgan tadbirlar tizimi jahon miqyosida amalga oshirilayotgan siyosiy tadbirlar negizining bir qismi sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya bunga yaqqol misoldir.

1992-yilda “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga qo‘shilganligi munosabati bilan o‘tgan davrda malakatimiz shaxsning, ayniqsa, bolalarning huquqlarini keng ma‘noda e‘tirof etish usullari va vositalarini rivojlantirish hamda himoya qilishga da‘vat etilgan ushbu muhim xalqaro hujjatning barcha asosiy moddalariga to‘la amal qilib kelmoqda.

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga muvofiq ishtirokchi davlatlar:

- Bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924-yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Paktda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Paktda, shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari vategishli hujjatlarida e‘tirof etilganligini e‘tiborga olib, Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a‘zolari, ayniqsa, bolalar o‘sib-ulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga to‘liq oladigan bo‘lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta‘minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda,

- Bolaning shaxsi sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamoloti uchun u oila g‘amxo‘rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o‘sishi zarurligini e‘tirof etib,

- Bola jamiyatda mustaqil hayotga to‘la tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e‘lon qilingan g‘oyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr- qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib,

- Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘rsatib o‘tilganidek, “Bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan bo‘lsa, maxsus ravishda muhofaza va g‘amxo‘rlikka, binobarin, tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyin ham munosib

darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj” ekanligini e’tiborga olib,

- Jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og‘ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e’tiborga muhtoj ekanliklarini e’tirof etib,
- Bolaning himoya qilinishi va uyg‘un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an’analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib,
- Har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e’tirof etib, ... kelishib oladilar.

Bu kelishuvga muvofiq mazkur Konvensiyaning 20-moddasiga ko‘ra:

1. O‘zining oila g‘amxo‘rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo‘lgan yoki o‘zining eng yaxshi manfaatlari yo‘lida bunday g‘amxo‘rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan ko‘rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir.
2. Ishtirokchi - davlatlar o‘z milliy qonunlariga muvofiq ravishda bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta’minlaydilar.

3. Bolani bunday parvarishlash, jumladan, islom shariati bo‘yicha “kafola”gatarbiyaga berishni, asrab olishni yoki, zarurat tug‘ilgan taqdirda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o‘z ichiga oladi. Parvarishni almashtirish turlari qarab chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga muvofiqligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim. Oilasidan mahrum bo‘lgan bolani himoyalash maqsadida, davlat oila muhitidan ayrilib qolgan bolaning ijtimoiy muhofaza etilishini, tegishlicha oilaviy g‘amxo‘rlikning yaratilishini yoki bunday hollarda bolagi o‘z parvarishigaoladigan maxsus muassasaga joylashtirilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ta’kidlanganidek, “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-aprelidagi qarori bilan tasdiqlangan va 1998-yil 1-sentabridan amalga kiritilgan Oila Kodeksining “Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari” to‘g‘risidagi II-bo‘limida

- Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish;
- Farzandlikka olish;
- Vasiylik va homiylik;
- Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) masalalari ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksida ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning huquq va manfaatlari himoyasi, ularni aniqlash va hisobga olish, bolalarni joylashtirish shakllari, jarayoni va uni amalga oshirish uchun mas’ul

bo'lgan tashkilot hamda shaxslarning majburiyatlari belgilangan bo'lib, bu jarayon qonun doirasida kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 151-172-moddalarida farzandlikka olish, farzandlikka olishi mumkin bo'lgan shaxslar, farzandlikka olishni sir saqlash, farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega bo'lgan shaxslar, farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olinishiga roziligi, bolaning rozilgisiz farzandlikka olish, farzandlikka oluvchining eri (xotini)ning bolani farzandlikka olishga roziligi, vasiylik yoki homiylikdagi bolani farzandlikka olish, ota-onaning bolani farzandlikka olinishiga roziligi, ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olish, davlat bolalar muassasalari tarbiyasi va ta'minotidagi bolalarni farzandlikka olish, bolani takroran farzandlikka olish, farzandlikka olish rad etilganligi ustidan shikoyat qilish, farzandlikka olishda tug'ilishni qayd etish daftariga o'zgartirish kiritish, farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari, farzandlikka olishda boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya yoki nafaqaning saqlanishi, farzandlikka olishning vujudga kelish vaqti, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish asoslari, farzandlikka olishni bekor qilish asoslari, farzandlikka olishni bekor qilishni talab etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va bekor qilish tartibi, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilish oqibatlari batafsil yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 173-193-moddalarida vasiylik va homiylikning maqsadi, vasiylik va homiylikni belgilovchi organlar, vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish, vasiylik va homiylik belgilanadigan shaxslar, ota-onasi bo'lgan voyaga yetmagan bolalarga vasiy yoki homiy tayinlash, ota-ona vaqtincha bo'lmaganda bolalarga vasiylik yoki homiylik belgilash, vasiy va homiy tayinlash tartibi, vasiy va homiy qilib tayinlanishi mumkin bo'lgan shaxslar, vasiy va homiyning huquq hamda majburiyatlari, vasiy va homiylik faoliyatini nazorat qilish, vasiylik va homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini boshqarish, vasiyning vasiylik va homiylik organlarining roziligi bilan qilishi mumkin bo'lgan harakatlari, vasiy va homiy tomonidan qilinishi mumkin bo'lmagan harakatlar, vasiylik yoki homiylikdagi shaxsga nafaqatayinlash, voyaga yetgan shaxsga homiylik majburiyatidan ozod etish, vasiy va homiy o'z majburiyatini bajarishdan chetlatish, vasiylikning tugashi, homiylikning tugashi, vasiy yoki homiy yetkazgan mulkiy zararni to'lash, vasiylik va homiylik organlarining qarori ustidan shikoyat qilish, vasiy va homiyning hatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartiblari ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 194-200-moddalarida oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat), bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv, bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvning bekor qilinishi, oilaga tarbiyaga olingan bolalarning huquqlari, tutingan ota-ona, bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarning javobgarligi, oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib borish bo'yicha belgilangan vasiylik va homiylik organlarining majburiyatlari e'tirof etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksining 237-moddasida “...O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishda bolaning qonuniy vakili va bola fuqarolikka ega bo‘lgan davlat vakolatli organining roziligi, shuningdek agar o‘sha davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab qilinsa, farzandlikka olish haqida bolaning ham roziligi olinishi lozim.

Agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo‘lsa, farzandlikka oluvchining qaysi fuqarolikka mansubligidan qat’iy nazar, farzandlikka olish mumkin emas, farzandlikka olingan taqdirda esa, u sud tartibida bekor qilinishi lozim...” – deb belgilangan.

Bundan tashqari, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, qo‘llab-quvvatlash tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksini hayotga tatbiq qilish chora tadbirlari haqida”gi Qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-avgustdagi 179-sonli “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, ular hayotini tashkillashtirish, jumladan, oilaga joylashtirishning muqobil shakllari bilan ta‘minlash masalasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli Qarorining 3-Ilovasi “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1189-son bilan 2002-yil 18- noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta‘limi Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyafzal bilan ta‘minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi tarbiyalash uchun oilalarga beriladigan ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni moddiy va moliyaviy jihatdan ta‘minlanishi masalasini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Bunda moddiy ta‘minlash tartibi, mas‘ul organ va shaxslar, moddiy ta‘minot miqdori va hajmi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgin tarzda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq kam ta‘minlangan, 16 yoshgacha bolalari hamda 18 yoshgacha kasb-hunar kollejlari o‘qiydigan farzandlari bo‘lgan muhtoj oilalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash ishi tashkil etilmoqda.

“Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldagi 158-sonli qaroriga Ilova) da oilaviy bolalar uyini tashkil etish tartibi va shartlari, bolalarni oilaviy bolalar uyiga

tarbiyalash uchun berish, tarbiyalovchi ota-onalar va tarbiyalanuvchi bolalarning huquq va majburiyatlari, oilaviy bolalar uyi ta'minoti va uni moddiy-texnik ta'minlash masalalari ko'rsatib o'tilgan.

“Vasiylik va homiylik organiga ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi haqida”gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-maydagi 110-sonli qaroriga Ilova) da ota-onasining qarovsiz qolgan bolalarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi ko'rsatib o'tilgan.

### **3.Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi**

Biz ushbu paragrafda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi haqida mulohaza yuritishdan oldin bolalarning ota-ona qaramog'isiz qolib ketish omillari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Bolalarning ota-ona qaramog'isiz qolishiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

**1. Ota-ona vafot etganda.** Ma'lumki, bolani tarbiyalash ota-ona vazifasidir. Bola o'z ota-onasidan tarbiya olish huquqini davlat ota-onasi vafot etib qarovsiz qolgan bolaga vasiy yoki homiy tayinlash orqali ta'minlaydi.

**2. Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklaganda.** Oila Kodeksining 79- moddasida ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqidan mahrum qilishi asoslari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh torsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumin tushuntirishicha, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik ota-onalik burchlarini uzluksiz ravishda bajarmaslik, o'z bolalariga qanday bo'lmasin g'amxo'rlik qilmaslikni anglatadi. Tabiiyki, bunday harakat (harakasizlik) bolani halokatga olib kelishi mumkin;

- Uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh torsa. Bu holat “tug'uruqxona va bolalarni davolash profilaktoriyasi va o'quv-tarbiya muassasasi komissiyalari tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishilozim”;

- Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;
- Muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa. Bunday asos bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarni muomalaga layoqati cheklangan deb topilganidan qat'iy nazar amalga oshirilishi mumkin;
- O'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqini cheklanishi esa sud tomonidan bolaning manfaatlari hisobga olingan holda, ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmay turib, bola ota-onadan yoki ularning biridan olinishi to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilishi bilan amalga oshiriladi. Oila qonunchiligiga binoan, agar ota-onalik huquqi cheklangandan so'ng o'z xulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etadi.

**3. Ota-onasi kasal bo'lganda.** Ushbu sabab ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishning obyektiv sababi hisoblanadi (ota-ona vafoti, ozodlikdanmahrum qilish kabi). Og'ir dardga chalingan ota-ona farzandining tarbiyasi bilan shug'ullanishga imkon topmagach, bolaning hayoti, sog'lig'i uchun xavf tug'dira boshlaydi. "Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi bolaning ota-onasi tomonidan ko'rsatilgan shaxsni vasiy yoki homiy etib tayinlashi lozim"<sup>3</sup>. Kasal bo'lib qolgan ota-ona jismonan bolasiga g'amxo'rlik qila olmaydi. Boshqa jihatdan esa, o'z harakatlari oqibatlarini to'liq anglab yetadi va kimlar farzandiga munosib tarbiya bera olishini biladi.

**4. Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda.** Bunday hollarda ota-onaning o'ziga homiylik tayinlanishi lozim bo'ladi. Bolalar ota-onalaridan olinib, vasiylik va homiylik organining qaramog'iga topshiriladi, chunki ota-ona ixtiyorida qoldirish bola uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Ota-onasi olti oydan ortiq muddat bo'lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bola o'z ota-onasi bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga egadir.

**5. Ota-ona bedarak yo'qolganda.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga binoan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor

<sup>3</sup> Antokolskaya M.V. Semeynoye pravo. -M.: Yurist. 2000. -S. 307



shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin.

Bolalarning oilalarda tarbiyalanishining katta ahamiyatga ega ekanligi tufayli tarbiya berishning farzandlikka olish va vasiylik (homiyluk) tayinlash shakllari keng tarqalgan. Biroq, farzandlikka olish uchun bir necha shartlar mavjud bo'lganligi bois, uni amalga oshirish murakkabroq kechadi. Ba'zi hollarda (ota- onalarning vaqtincha boladan uzoqda bo'lishi) bolalarni joylashtirishning bunday shaklini tanlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bolalar tarbiyasi uchun qonun yoki maxsus hujjat bilan mas'ul shaxs bo'lishi talab qilinar ekan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda hali bolalar muassasalariga joylashtirilmagan bolalarga vasiy (homiyluk) tayinlanishi lozim bo'ladi. Vasiy (homiyluk) tayinlanishi bilan ushbu shaxsga bola tarbiyasi bo'yicha huquq va majburiyatlar beriladi. Ko'rinib turganidek, vasiylik (homiyluk) bolalarni oilada tarbiyalashning eng qulay shaklidir. Ba'zan esa bolani vasiylik (homiyluk)ka olgan shaxslar bilan bola o'rtasida juda yaqin munosabatlar paydo bo'lib, vasiy (homiyluk) bolani farzandlikka olgan hollarham uchrab turadi.

Demak, ota-ona o'z bolasiga tarbiya berish kabi vazifasini bajara olmasa yoki bajarmasa, vasiylik va homiyluk organlari bu bolaga nisbatan vasiylik (homiyluk) belgilab, uning oilada tarbiyalanishini ta'minlab berishi lozim.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota- onaning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi. Agar ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiyluk organi sud tomonidan ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqargandan keyin olti oy o'tgach, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etishi shart. Vasiylik va homiyluk organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib ota-onani (ulardan birini) bu muddat o'tmasdan turib, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida da'vo taqdim etishga haqli.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi da'vo bolaning yaqin qarindoshlari, voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmasiga yuklatilgan organlar va muassasalar, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari va boshqa muassasalar, shuningdek prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning to'la mohiyati bo'yicha o'z xulosasini berishi, prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar esa bundan mussano ekanligi belgilanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani bolalarni ta'minlash majburiyatidan ozod etmaydi. Shu tufayli da'vo qo'zg'atilgan yoki qo'zg'atilmaganligidan qat'iy nazar birgalikda hal etilishi shartligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ko'rsatib o'tilgan.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar, albatta, prokurorning ishtirokida, shuningdek vasiylik va homiylik organlarining qatnashuvida ko'rilishi shart. Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqishi bilan birga, voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun mablag' undirish masalasi ham sud tomonidan hal qilinishi kerak.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onasi (ulardan biri)ning o'ziga nisbatan ota-onalik huquqi cheklangan bola turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota-ona va boshqa qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlarini, shu jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi.

Ota-ona ikkalasining ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda bola vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beriladi hamda bola manfaatlarini vasiylik va homiylik organi himoya qiladi.

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalashga qaratilgan bironta ham harakatni amalga oshira olmaydilar. Masalan, ular bolalari uchun o'quv muassasalari va ta'lim olish shaklini tanlash, ularning shaxsiy xarakteriga ega bo'lgan huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z bolalari nomidan qonuniy vakillik vazifasini bajarish kabi huquqlarga ega bo'lmaydilar. Ota-onalik huquqini cheklash oilaviy munosabatlarni butunlay tugatishni bildirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 85-moddasida ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishib turish huquqini hamma vaqt ham saqlab qoladi. Bunday bo'lishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu hol kelajakda ota-ona va bolalar o'rtasida ko'ngilga xush yoquvchi munosabatlar vujudga kelishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Bunda huquqdan cheklashda ota-onalarning aybi bo'lmasligini ham hisobga olish kerak, ammo bu huquqni amalga oshirish vasiylik va homiylik organining nazorati ostida va faqat vasiylik va homiylik organining roziligi bilan ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishishi va muloqotda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi uchun, albatta, vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola tarbiyalanib turgan muassasa ma'muriyatining roziligi ham talab qilinadi.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi, u bilan ko'rishib turishi, bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishim mumkin degan xulosaga kelgan hollarda, vasiylik va homiylik organlari bunday ko'rishishga ruxsat bermasliklari yoki muloqotda bo'lishnima'n qilishlari mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, vasiylik va homiylik organlari vasiylikka yoki homiylikka berilayotgan shaxs to'g'risida quyidagi hujjatlarni tayyorlab beradilar:

- Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (pasport) nusxasi;

- Ota-onaning o‘limi haqidagi guvohnomalar nusxasi yoki ota-onasining yoki ulardan birining ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi yoxud bedarak yo‘qolgan deb topilganligi haqidagi sud qarori;
- Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdan va ta‘minotdan bo‘yin tovlaganligi haqidagi, ota-onalarga qidiruv e‘lon qilinganligi haqidagi hujjatlar, ichki ishlar, davolash muassasalari va shunga o‘xshash boshqa muassasalarning bolalarning ota-onasiz qolganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalari;
- Salomatligi to‘g‘risida tibbiy muassasaning xulosasi;
- Vasiylik va homiylik organining bolani vasiylik yoki homiylikka olishni xohlayotgan oilaning maishiy turmush sharoitlari oila a‘zolarining salomatligi va oilaning boshqa sharoitlari to‘g‘risidagi tekshiruv dalolatnomalari taqdim etilishi darkor.

Konstitutsiyaning 64-moddasida aytilganidek, “ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”. Qonunchiligimizning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri shundaki, u bola manfaatlarini ustuvor deb biladi. Shu ma‘noda agar oiladagi muhit, sharoit bola manfaatlariga zid bo‘lsa, qonunchilik uni ushbu oilada, sharoitda qolishga yo‘l qo‘ymaydi. Shuningdek, Konstitutsiyada “davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi...” deb belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksinin 179-moddasi “Vasiy va homiy tayinlash tartibi” – deb nomlangan bo‘lib, ushbu moddada quyidagi bандlar belgilab berilgan: “Vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organlari vasiy yoki homiy tayinlaydi.

Vasiy yoki homiy etib voyaga yetgan har ikki jinsdagi fuqarolar ularning roziligi bilangina tayinlanishi mumkin.

Vasiylik yoki homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma‘lum bo‘lgan vaqtdan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy yoki homiy tayinlanishi lozim.

Vasiy yoki homiyni tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlarini, tegishli majburiyatlarni bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik yoki homiylikka muhtoj shaxs o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek vasiylik yoki homiylikka olinuvchining o‘z xohishi e‘tiborga olinishi lozim”.

1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan va 1997-yil 1-martda amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hisoblanib, ushbu holatni qayd etish FHDYO organlariga topshirilgandi. Mazkur kodeksga 1998-yil 25-dekabrda kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hujjatlari sirasidan chiqarilib, tug‘ilish, o‘lim, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralish kabi fuqarolik holati hujjatlarida ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yo‘li bilan ifodalanish belgilandi.

Asosan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalar, ayni vaqtda faqat voyaga yetmagan bolalarnigina ularning manfaatlarini ko'zlab farzandlikka olinadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi (xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari

– vasiylik va homiylik organlaridir) tavsiyasiga ko'ra tuman (shahar) hokimi qarori bilan rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari"da belgilanishicha, FHDYO organi qabul qilingan hujjatlar asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartishlarni kiritadi va tug'ilganlik haqida yangi guvohnoma beradi. Farzandlikka oluvchilar bolaning tug'ilishi qayd etilgan daftarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lmagan farq bilan o'zgartirilishi mumkin. Agar bola o'n yoshdan oshmagan bo'lsa, tug'ilgan joyi ham O'zbekiston Respublikasi doirasida o'zgartirilishi mumkin.

Voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin. Quyidagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar:

- Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- Qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganlar;
- Asab kasalligi yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;
- Farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;
- Qasddan sodir qilingan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar.

Qonun o'gay ota va o'gay ona tomonidan farzandlikka olish hollaridan tashqari holatlarda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagifارق o'n besh yoshdan kam bo'lmashligini shart qilib qo'yadi.

Farzandlikka olinuvchining qarindoshlari, farzandlikka olinuvchi oilasida yashayotgan shaxs, aka-uka, opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar, o'gay ota va o'gay ona, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, kasallik, baxsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar farzandlikka olishda ustunlik huquqiga egadirlar. Qoida tariqasida, o'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi. Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, bunday hollarda er (xotin)ning roziligi ham talab etiladi. Shuningdek, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi ham talab etiladi. Ammo quyidagi hollarda ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi:

- Ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
- Ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
- Ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafotetgan

deb e'lon qilingan bo'lsa;

- Ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Ayni vaqtda farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (shuningdek, qarindoshlari) bir- birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

Farzandlikka oluvchilar o'z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo'lsalar, ota- onalik huquqini suiste'mol qilayotgan bo'lsalar, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar, muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar, farzandlikka olish bekor qilinadi.

Bolaning hayoti va sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda, vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining tegishli hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bola farzandlikka olinganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorga xabar berishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi bolani olish to'g'risida hujjat qabul qilganidan keyin yetti kun ichida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota- onalik huquqini cheklash to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat etishi shart.

Bolani uning otasi yoki onasidan, shuningdek, uni qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan olish fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bolani ota-onasidan yoki qaramog'ida saqlab turgan shaxsdan ajratib olish uchun asos bo'lsa, uning sog'lig'i yoki hayotiga oilada vujudga kelgan xavfli muhitning o'zi kifoya bo'ladi.

Bolani ota yoki onasidan yoxud uni qaramog'idan asrab turgan shaxsdan ajratib olgan vasiylik va homiylik organi zudlik bilan bu haqida prokurorga xabar qiladi va bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirish choralarini ko'radi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi tomonidan bolani olish haqida tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgandan keyin yetti kun ichida vasiylik va homiylik organi yoki prokuror da'vo ariza bilan sudga murojaat qilishi kerak.

Da'vo arizada bolaga nisbatan uning ota yoki onasini yoxud har ikkalasini ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota- onalik huquqlarini cheklash to'g'risidagi masalani hal qilish talabini qo'yadi.

Ayrim hollarda voyaga yetmagan bolalarning otasi yoki onasining ruhiy kasalligi ularning oilada yashashi va normal tarbiyalanishi uchun imkoniyat bermaydi. Bunday ota-onalarni ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun hamma vaqt yetarli asos bo'lavermaydi. Ular faqat kasalliklari tufayli bolalarini tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarini ado etmaydilar. Ammo voyaga yetmagan

bolalarni bunday oilada qoldirish ham ular uchun xavfli muhitni tugʻdiradi. Bunday holarda, sud bolaning ota-onalarini ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan uni olib, tegishli tarbiya muassasalariga joylashtirish haqida qaror chiqarishi mumkin.

Bolalarni ota-onasidan yoki qaramogʻida boʻlgan boshqa shaxslardan olish masalasi sud tomonidan daʼvo ishlarini yuritish tartibida koʻriladi. Bolani olish haqidagi daʼvo ariza vasiylik va homiylik organi tomonidan, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan, bolani vasiy yoki homiysi, ota-onalardan biri va prokuror tomonidan berilishi mumkin. Bunday daʼvo ishlari albatta, vasiylik va homiylik organi hamda prokurorning ishtirokida koʻrilishi kerak.

Ota-onadan birining yoki har ikkalasining oʻrtasida vujudga kelgan bola tarbiyasi bilan bogʻliq nizolar voyaga yetmagan bolalar tarbiyasini nazorat qiluvchi va bolalar huquqini himoya qilish majburiyati zimmlariga yuklatilgan organlarning, fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organining, shuningdek, prokurorning talabiga asosan koʻriladi. Birinchi navbatda bola tarbiyasiga oid nizolar vasiylik va homiylik organi tomonidan koʻrilishi mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda vasiylik va homiylik organlarining bola tarbiyasiga doir qarorlari bajarilmagan hollarda, masala sud tartibida koʻrib chiqiladi.

Vasiylik va homiylik organlari nafaqat oʻzlari qoʻzgʻatgan ishlari boʻyicha, balki boshqalar tomonidan qoʻzgʻatilgan ishlarni koʻrilishida, bolalarning huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish borasida sud jarayonida ishtirok etib, xulosa berishga majburdirlar.

Vasiylik va homiylik organlari ota-onalarning voyaga yetmagan oʻz bolalarini tarbiyalash bilan bogʻliq majburiyatlarini qanday bajarayotganlari ustidan nazorat olib borish bilan birga, ularga oʻz ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda koʻmaklashadilar. Zarur hollarda voyaga yetmagan bolalarga oʻz huquqlari va majburiyatlarini himoya qilishda yordamlashadilar.

Bolani oilaga tarbiya (patronat)ga berishning normativ-huquqiy asoslari:

Oʻzbekiston Respublikasi Oila Kodeksi;

OʻzR VAzirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-son qaroriga 3-Ilova

“Voyaga yetmagan bolani farzandlikka va oilaga tarbiya(patronat)ga berish

toʻgʻrisida”gi Nizom; Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11

fevraldagi 4185-sonli “Yetim bolalar va ota-onasining qaramogʻidan mahrum

boʻlgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qoʻshimcha chora-

tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori; Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi va

Moliya vazirligining 2002 yil 21 oktyabrdagi 87, 121-son qarori bilan tasdiqlangan,

Adliya Vazirligidan 1189-son raqam bilan roʻyxatga olingan

Tarbiyalash(patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh,

poyabzalbilantaʼminlash hamda bolani oʻz tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga

har oylik nafaqa toʻlash tartibi toʻgʻrisida»gi Nizom.

Patronatning afzalliklari

Yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolani qarindoshlar oilasida saqlabqolish imkoniyati;

Davlat muassasasida tarbiyalanishdan ko‘ra afzalroq;

Davlat uchun arzonroq joylashtirish shakli;

Tutingan oilada bolaning har tomonlama tarbiyalanishi, hayotiy

ko‘nikmalarni egallashi uchun ijtimoiy, pedagogik va psixologik resurslarmavjud;

Tutingan oilaga berilgan bolaning ta‘minoti uchun davlat tomonidan

ijtimoiy nafaqa ajratiladi va bola yilda 1 marotaba kiyim-kechak bilan

ta‘minlanadi.

Qaysi bolalarni oilaga tarbiya(patronat)ga berish mumkin?

Yetim bolalar: har ikki ota-onasi o‘lgan yoki sud tomonidan o‘lgan deb

topilganlarning farzandlari;

Yolg‘iz onaning o‘limi (otasi mavjud bo‘lsa otalikni o‘rnatish maqsadga muvofiq);

Ota-onalik huquqi cheklangan yoki huquqidan mahrum etilganlarning farzandlari;

Sud tomonidan muomala layoqati cheklanganlarning farzandlari;

Ota-onasi voz kechgan bolalar (bunday holatlarda ota-onalardan aliment;pulini talab qilish maqsadga muvofiq);

Topib olingan/tashlab ketilgan bolalar;

Jazoni o‘tash muassasalarida bo‘lganlarning farzandlari;

Sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilganlarning farzandlari; Bolani kimga va qayerdagi bola patronatga beriladi?

Qarindoshlarga!!!

Oilaning yaqin tanishlariga;

Begona oilalarga (vasiylik va homiylik organida ro‘yxatda turgan va qonun bilan belgilangan talablarga javob beruvchi shaxslarga);

Oiladan;

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan har qanday sharoitda;

Bolalar uyi, Mehribonlik uylari va boshqa davlat tarbiya va davolash,

ijtimoiy himoya muassasalaridan.

Patronatni rasmiylashtirish tartibi:

Bolani o‘z oilasiga oluvchi tutingan ota-onalikka nomzod shaxs bilan Vasiylik va homiylik organi o‘rtasidagi **Shartnoma** tuzish yo‘li bilan rasmiylashtiriladi.

Rasmiylashtirish tartibi:

1. Hujjatlarni rasmiylashtirish.

*Bolani ro‘yxatga olish.*

*tutingan ota-onani ro‘yxatga olish.*

1.2. *Tutingan ota-onani belgilash.*

2. Bolani shartnoma asosida tarbiyaga berish.

2.1. *Moliyaviy-moddiy ta‘minotni belgilash.*

3. Hayot tarzi va tarbiya jarayonini nazorat qilish.

Tutingan ota-onalar tomonidan o‘rnatilgan tartibda hisobot taqdim etishi;

O'rganish ishlari natijasi asosida Shartnomani bir yilga davom ettirish va ta'minot masalalarini yo'lga qo'yish.

#### **4. O'zbekistonda yetim va ota-ona qarovsiz qolgan bolalarni noinstitutSIONlashtirish muammolari**

Ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash, ko'mak va yordamga muhtoj insonlar, jumladan, institutsional muassasa tarbiyalanuvchi/bitiruvchilari to'laqonli hayot kechirishlari uchun munosib sharoit yaratib berish masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalari qatoridan joy olgan. Mustaqillik yillarida bu borada dolzarb ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

«Lekin aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga malakali tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, kasbga o'qitish, bandligini ta'minlash bo'yicha hali oldimizda ko'p vazifalar turibdi».

Mamlakatimizda 2018-yil holati bo'yicha, 33,5 million nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Aholining 18 millionga yaqini (60%) yoshlar hisobigato'g'ri keladi. O'sish ko'rsatkichlari esa yiliga 500 mingdan ortiqni tashkil etadi. 2019 yilning birinchi choragi ma'lumotlariga ko'ra, 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida 50 ming nafarga yaqini (shulardan 145 nafari muqaddam sudlangan, 1245 nafari oila-turmush darajasida) huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar ro'yxatiga kiritilgan. Shu davr mobaynida 47 335 nafar (shulardan 2 996 nafari muqaddam sudlangan, 2 364 nafari oila-turmush darajasida, 22 005 nafari boshqa toifadagi huquqbuzarliklarni sodir etgan) yoshlarga nisbatan profilaktika hisobi o'rnatilgan. Shu sababli, yoshlar siyosati jamiyat rivoji va ijtimoiy o'zgarishlarning muhim omili sifatida turli mexanizm, uslub va strategiyalarni ishlab chiqish hamda hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi. Mamlakat ijtimoiy barqarorligini ta'minlash ko'p jihatdan yoshlarning barcha qatlamlari, jumladan, institutsional muassasa bitiruvchilari manfaatlari himoya qilinishiga, ularning orzu- istaklari, tashabbuslari qo'llab-quvvatlanishi hamda imkoniyatlari yuzaga chiqishi uchun yetarli shart-sharoit yaratilishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida institutsional muassasa tarbiyalanuvchisi/bitiruvchisini qo'llab-quvvatlash davlat ijtimoiy siyosatida onalar va bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimining komponenti sanaladi. Xususan, yetim va qarovsiz bolalar tarbiyasini davlat o'z otalig'iga olgan. Bolalar uylari, maxsus maktab-internatlarga yetim va ota-onaning yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan, sud hukmi bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, yaqin qarindoshlari tomonidan voz kechilgan bolalar joylashtiriladi. Mustaqillik yillarida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bolalar uylari «Mehribonlik uylari» deb nomlana boshlandi.

Mamlakatimizda bolalardan voz kechish to'g'risidagi arizalarni o'rganish boladan voz kechishning quyidagi omillarini ko'rsatdi (4.1-jadvalga qarang).

#### **4.1.-jadval.**



### Onalarning yangi tug‘ilgan chaqaloqlarini tashlab ketish sabablari.

Ayollarning o‘z farzandlarini tashlab ketishlari sabablari	nafar	%
Ona voyaga yetmaganligi bois	11	14,8
Bola nogiron tug‘ilgan, oilada boshqa farzandlar bor	6	8
Bola (to‘ng‘ich) nogiron tug‘ilgan	11	14,8
Ona yolg‘iz bo‘lganligi bois	9	12
Boshqa hududdan kelgan va turmush qurmagan ayol	4	5,4
Ota-ona oila qurmaganligi bois	20	27
Bola nikohsiz tug‘ilganligi bois	1	1,3
Og‘ir oilaviy sharoit bois	10	13,5
Ota-ona OITS bilan kasallanganligi bois	2	2,7
<b>Jami</b>	<b>74</b>	<b>100</b>

Jadvalda keltirilishiga ko‘ra, boladan voz kechishning bosh omillari qatorida uch sabab, ya’ni bolaning nogironligi, nikohsiz tug‘ilganligi, oilaviy noqobillik/kambag‘allik asosiy ko‘rsatkich sifatida ekanligi ilgari suriladi. Holbuki, mazkur muammo yuzasidan o‘tkazgan tadqiqotimizda boladan voz kechishning yana uchta omili aniqlandi. Bular: migratsiya sababli xorijda tug‘ilgan boladan voz kechish – 12,5%, shaxsiy hayoti keskin o‘zgarib ketishini xohlamaslik oqibatida boladan voz kechish – 11,3%, bola savdosi foydasini ko‘zlab, farzandidan voz kechish – 8,7%. Shu boisdan, boladan voz kechish holatida subyektiv omillar tendensiyasi dinamikasi obyektiv omillar tendensiyasidan tobora kengroq yoyilish xususiyatiga ega bo‘lib borayotganligini alohida qayd etamiz.

Mehribonlik uyi to‘g‘risidagi Nizomning 1-bandida: «Bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi chora sanaladi. Mehribonlik uylari – yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun davlat tarbiya muassasasi. Yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash, kamol toptirish va qo‘llab-quvvatlash, tarbiyalanuvchilarni to‘liq ruhiy sog‘lomlashtirishga, ijtimoiy moslashtirish va jamiyatga uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadi».

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar 18 ta Mehribonlik uylari, 4 ta bolalar shaharchalari, 3 ta «SOS- bolalar mahallalari», 1 ta oilaviy bolalar uyi, 6 ta “Muruvvat” internat uylaridatarbiyalanadi. Ushbu muassasalar bolalarni joylashtirishning institutsional shakli sanalib, ularning ichida eng ko‘p sonlisi hisoblangan Mehribonlik uylari soni hozirgikunda 21 ta dan 18 taga tushirildi. Ular qayta tashkil etilib, bolalar shaharchalariga aylantirildi.

Mehribonlik uylari 0-3 yoshlilar uchun go‘daklar uyi, 3-7 yoshlilar uchun bolalar bog‘chasi, 7-16 yoshli bolalar uchun umumiy o‘rta ta’lim maktabi tartibida ishlaydi. Zero, ular muassasaga joylashtirilgach, 3 marta ijtimoiy muhitning o‘zgarishiga duch keladilar. Ular har safar yangi sharoitga moslashishga, shaxsiyat

shakllanishi va ijtimoiylashuv jarayoni faol kechuvchi asosiy davrni yopiq sharoitda o‘tkazishga majbur bo‘ladi.

Shunday bo‘lsa-da, muassasa sharoitida ta’lim-tarbiya olayotgan bolalarning aksariyatida o‘z shaxsiyati va atrof muhitga nisbatan dunyoqarash asosini tashkil etuvchi hayotiy ko‘nikmalar, qadriyatli mo‘ljallar yetarlicha shakllanmaydi. Shu bois, institutsional muassasalar faoliyatida homiylik va vasiylik omillarining roli katta.

Hozirgi paytda Xalq ta’limi vazirligi tizimida tumanlar darajasida 202 ta homiylik va vasiylik organlari faoliyat yuritmoqda. Homiylik va vasiylik oranlarining faoliyati respublikamizda 7 ta Kodeks, 4 ta qonun va Vazirlar Mahkamasining 13 ta qarorlari va muassasalararo 11 ta hujjatda o‘zifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasining «Homiylik va vasiylik organlari to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish tuman bo‘limlari 193 ta bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida homiylik va vasiylik organlari uchun mutaxassislar tayyorlanmasligibois ushbu organlarning 92% mutaxassislari pedagoglar, o‘qituvchilar bo‘lib, atigi 8%i yuristlardan iborat.

Respublikamizda 2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, institutsional muassasalar hisoblangan 18 ta Mehribonlik uylari, 4 ta bolalar shaharchasi, 1 ta oilaviy bolalar uyi, 3 ta “SOS – bolalar mahallalari”da jami 3382 ta bola tarbiyalanmoqda. 2018 yilda ushbu ko‘rsatkich 2484 nafarni tashkil etib, ularning sotsial tarkibiga ko‘ra 338 nafari (13,6%) – chin yetimlar, 678 nafari (27,3%) – ota-ona huquqidan mahrum etilganlarning farzandlari, 117 nafari (4,7%) – nogironligi bo‘lgan ota-onalarning farzandlari, 167 nafari (6,7%) – ota- onalari ozodlikdan mahrum qilish joylaridagilarning farzandlari, 1184 nafari (47,7%) – kam ta’minlangan oilalarning bolalaridir. 2019-yilda farzandlikka berilgan bolalar soni 3550 nafar, institutsional muassasaga joylashtirilgan bolalar soni esa 698 nafarni tashkil etdi.

Institutsional muassasa tarbiyalanuvchilari, shu jumladan, bitiruvchilari davlat organlarining nazorati ostida bo‘ladi. Xususan, 2018 yilda homiylik va vasiylik organlari mutaxassislari tomonidan sud muhokamalarida 10 060 nafaryetim va ijtimoiy yetim bolalarning huquqlari muhofaza etilgan (4.2-jadvalgaqarang).

#### 4.2.-jadval.

#### 2018 yilda homiylik va vasiylik organlari tomonidan sud ishlari orqali huquqlari muhofazalangan bolalar soni

Sud ishlari turlari

Jami

Qizlar  
soni

Ota-ona huquqidan mahrum etilganlardan olingan bolalar	273		110
Ota-ona huquqidan mahrum etilmasdan olingan bolalar	192		97
Yashash joyi bo'yicha bo'lgan bolalar soni	560		233
Alohida yashovchi ota-onalarning bola tarbiyasida ishtiroki borasidagi tortishuvlar bo'lgan bolalar soni	2973		1438
Bobo yoki buvining bola tarbiyasida ishtirok etish borasidagi tortishuvlar	590		298
Farzandlikka olingan bolalar soni	2829		1326

Ushbu ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlilidan kelib chiqib, biz quyidagi xulosalarni ilgari suramiz:

birinchidan, statistik raqamlarga muvofiq, respublika miqyosida institutsional muassasalarga joylashtirilgan bolalar soni joylashtirilishning boshqa shakllariga nisbatan ozchilikni tashkil etadi;

ikkinchidan, respublikamiz miqyosida yetim va ijtimoiy yetim bolalarning keyingi taqdirini kuzatib borish ishlari aksariyat vaziyatlarda institutsional muassasalarga joylashtirilgan bolalarga nisbatan qo'llaniladi;

uchinchidan, joylashtirishning boshqa shakllari bo'yicha oilalarga berilgan bolalar tarbiyasi tegishli organlar tomonidan yetarlicha nazorat ostiga olinmaydi. Ularning keyingi taqdiri mavhumligicha qoladi.

Ota-ona qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar kichik guruhlar shaklida oilaga yaqinlashtirilgan sharoitlarda tarbiyalanadi. Mehribonlik uylarini Bolalar shaharchalariga aylantirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni joylashtirishning yana bir shakli 1997 yilda «O'zbekistondagi SOS-bolalar mahallalari» Assotsiatsiyasi tashkil etilishi bilan ishga tushdi. Tashkilot o'z faoliyatini ijtimoiy yetimlik xavfi mavjud bo'lgan ota-ona qarovisiz qolgan bolalar va og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga qaratadi. Ayni damda

«O'zbekistondagi SOS-bolalar mahallalari» respublikamizning uch mintaqasi, ya'ni Toshkent shahri, Samarqand va Xorazm viloyatlarida faoliyat yuritmoqda. Bu muassasalarda 173 nafar bola tarbiyalanmoqda. Mazkur yo'nalishda Toshkent shahrida 14 ta oilaviy xonadonlar qurilgan bo'lsa, Samarqandda – 12 ta, Urganchda – 6 ta oilaviy homiylik xonadonlari yaratilgan bo'lib, ularda mahallalarga integratsiyalashgan va boshqa oilalar bilan yonma-yon yashash tartibi joriy etilgan. SOS-oilalarda 6-8 nafar turli yosh, jinsga mansub bolalar birgayashaydi. Ular orasida aka-uka/opa-singillar ham uchraydi. Ularni bir oilada tarbiyalash Assotsiatsiyaning ustuvor vazifasi sanaladi. Bolalar SOS-onalarning tarbiyasi ostida bo'lib, ularning vazifasi bolalarni xuddi o'z oilasidagi kabihis qilishlarini ta'minlashdan iborat.

Afsuski, «Farzandning kelgusida ularga g'amxo'r bo'lishi», «Uyida yordamchi bo'lishi» kabi sabablar asosida o'smir yoshidagi farzandini oilasiga qaytarib olayotgan ota-onalar asosli e'tirozlarga sabab bo'ldi. Bir tomondan, ota-onalarda kech bo'lsa-da, farzandini qaytarib olish istagining paydo bo'lganibolaga o'z oilasida yashash imkoniyatini ta'minlab beradi. Lekin boshqa tomondan

savol paydo bo'lishi mumkin: «Nima uchun ota-ona bolaga aynan kerak bo'lgan yillarida oldida bo'lmadi, lekin bolaning qo'lidan ish kelib, ro'zg'orda yordamchibo'la oladigan yoshida unga zaruriyat paydo bo'ldi?». Bu dilemmalar jamoatchilikdan bola manfaatlari yo'lida oqilona qaror chiqarishni talab etadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, respondentlarning muayyan qismi o'smir yoshiga yetgan bolalarni o'z ota-onasi bag'riga qaytish holatlariga negativ yondashishlari ma'lum bo'ldi. Tadqiqot natijalari o'z vaqtida «Kam ta'minlanganlik» sababli bolani muassasaga vaqtincha joylashtirishga "majbur" bo'lgan ota-onalarda vaqt o'tib, farzandisiz yashashgako'nikib, uni unutish kabi salbiy ustanovkalar hamda ijtimoiy noma'qul bo'lgan stereotip fikrlar paydo bo'lishini ham ko'rsatadi. Ayrim ota-onalar tomonidan bolani muassasaga joylashtirilishi sababi sifatida bugungi kunda Mehribonlik uylaridagi maktablarda o'quv jarayoni hududiy ta'lim muassasalaridagidan ko'ra sifatli yo'lga qo'yilganligi kabi motivlarniro'kach qilishadi. Bunday ota-onalar farzandi yeyish-ichish va kiyim-kechak bilan bepul ta'minlanganligi, ular uchun ortiqcha sarf-xarajat qilinmasligi bois boqimanda bo'lib boraveradi. Shu narsa e'tiborni tortadiki, o'ziga to'q ota-onalar ham davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan institutsional muassasaga o'z farzandlarini tashlab ketadi, vaqti-vaqti bilan bolalaridan xabar olishga kelib turishadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarida institutsional muassasani bitirgan yoshlarni ijtimoiy himoyalash, ya'ni bir martalik pul to'lovi, o'qishga kirish uchun imtiyoz, uy-joy bilan ta'minlanishini oldindan bilgan holda ota-onalar maqsadli tarzda o'z bolalarini muassasaga joylashtirish kabi holatlar ham uchradi. Achinarli holatlardan biri, bola Mehribonlik uyiga bir yilga joylashtirilsa-da, ota-ona bolasini qaytarib olib ketmaganligi bois, tegishli hokimliklar tomonidan ushbu muddat buyruq asosida qayta-qayta uzaytirib boriladi.

So'nggi yillarda respublikamizda muassasa tarbiyalanuvchilarining yangi kategoriyasi, ya'ni ota-onasi mehnat migratsiyasida bo'lganlarning farzandlari paydo bo'ldi. Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, migratsiyaga ketgan odamlarning uchdan bir qismi o'z Vataniga qaytib kelmaydi, buning oqibatida tashlab ketilgan bolalar turli qiyinchiliklarga uchraydi. Ular muassasada tarbiyalanayotganlarning 2,6% ni tashkil etmoqda. Ayrim ota-onalar mehnat migratsiyasiga ketishdan oldin farzandlarini yaqin qarindoshlariga tashlab ketadi. Ammo, tez orada qarindoshlar turli sabablar (ota-onasi pul jo'natmayotganligi, bola tarbiyasi bilan shug'ullana olmayotganligi va h.k.) bilan bolani davlat ta'minotiga topshiradi. Xuddi shunday sabablar bilan tashlab

ketilgan bolalar huquqlarini muhofazalashda quyidagi amaliy chora- tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- birinchisi, jahon tajribasiga tayangan holda mehnat migratsiyasi natijasida ortda qolgan voyaga yetmagan bolalarni huquqiy himoya qilishning me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish;

- ikkinchisi, xorijiy davlatlar va yaqin qo'shni davlatlar bilan shu sohada hamkorlik qilish va tajriba almashish;

- uchinchisi, ota-onasi mehnat migratsiyasida bo'lgan vaqtda bobosi yoki buvisi yoxud yaqin qarindoshlari qaramog'iga qoldirilib ketilgan voyaga yetmagan bolalarni mahalla va boshqa nodavlat tashkilotlar tomonidan doimiy nazorat qilinishini yo'lga qo'yish.

- to'rtinchisi, institutsional muassasada tarbiyalanayotgan bolani oilalarga olish va bu borada tegishli qaror qabul qilishda mahalla fuqarolari yig'inlari ishtirokini jonlantirish.

Bolaning institutsional muassasaga joylashtirilishi va uning muassasada qolish muddatining muntazam cho'zilishi, bu borada mas'ul organlar, xususan, homiylik va vasiylik organlari, joylardagi hokimiyatlarning o'z vazifalariga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashmayotganligidan darak beradi. Zero, bola institutsional muassasaga joylashtirilgach, uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'la oladigan yaqin qarindoshlari qidirilmaydi. Farzandidan voz kechgan ota-onalar bilan ham psixologik, ham yuridik muammolar haqida tushuntirish ishlari olib borilmaydi. Shu bois, ota-ona qarovisiz qolgan ijtimoiy yetim bolalarni ijtimoiy muhofazalash markazida noinstitutsonallashtirish, ya'ni institutsional muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalarni oilaga, vasiylikning muqobil shakllariga ko'chirish siyosatining amalga oshirilishi ayni muddao.

Mamlakatimizda so'nggi 4 yil davomida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimi tahlili hamda tizimda axborot texnologiyalarini joriy etish, keng omma va jamoatchilik orasida ijtimoiy yetimlikning oldini olish sohasida dolzarb masalalar va noinstitutsonallashtirish masalalari mohiyatini keng targ'ib qilish, bolaning ota-onasidan ajralishi va oilaviy muammolar bartaraf etilishiga yo'naltirilgan faoliyatni kuchaytirish masalalarida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga joylashtirishning muqobil shakllarini rivojlantirish, institutsional muassasalar tarbiyalanuvchilarini oilaviy muhitda reintegratsiyalashuvi bu boradagi dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab- quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish va O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2019-yil 11-fevraldagi «Yetim bolalar va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PQ-4185-son Qarori ijrosini taʼminlash maqsadida «2019-2023 yillarda Mehribonlik uylarini noinstitutsonallashtirish dasturi»ning loyihasi ishlab chiqilib, ijtimoiy tarmoqlarda keng jamoatchilik eʼtiboriga havola qilindi.

Ushbu dasturning rasman qabul qilinishi mamlakatimizda yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni oilaga (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oilaga (patronat) berilishi) qabul qilayotgan nomzod (shaxs)larni tanlash va kuzatib borish hamda nazorat qilish tartibi oʻrnatilishiga xizmat qiladi.

Internat tipidagi bolalar muassasalari soni qisqarishi, oilaviy joylashtirish shakllari rivojlantirilishi noinstitutsonallashtirishning yakuniy maqsadi hisoblanadi. Bunda muassasada tarbiyalanayotgan bolalar gʻamxoʻrlikning oila sharoiti yaratilgan shakllariga oʻtkaziladi. Noinstitutsonallashtirishning ikkinchi yoʻnalishi institutsional muassasa tarbiyalanuvchilarini oila muhitiga reintegratsiyalashuvi boʻlib, deyarli 95% respondentlar fikriga koʻra, ijtimoiy yetim bolalarni Mehribonlik uylaridanota-onasi bagʻriga, chin yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni esa farzandlikka oluvchi oilalarga joylashtirishni ijtimoiy adolat deb biladi. Shunisi muhimki, xalqaro hamjamiyatda bolalarni himoyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning oilada yashashga boʻlgan huquqini himoyalashdir. Demak, noinstitutsonallashtirish borasidagi vazifalarning quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

birinchidan, bolalarning institutsional muassasalarga joylashtirilishining oldini olishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish. Mavjud tizim ijtimoiy yetimlikka tushib qolish sabablari bilan ishlashga yoʻnaltirilib, ijtimoiy yetimlik profilaktikasiga qaratilish maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, ijtimoiy yetimlik kelib chiqish omillarining oldini olishda targʻibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish. Bunda ommaviy axborot vositalarining roli katta boʻlib, ijtimoiy reklama va roliklar tarmogʻini yaratish va uzatish orqali keng jamoatchilikni ijtimoiy yetimlik hamda uning oqibatlarini muammolariga jalb etish lozim;

uchinchidan, xatar guruhidagi oilalar va bolalarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash uchun ijtimoiy xizmatlar tarmogʻini yaratish. Bu markazlar turli hududiy birliklarda joylashgan boʻlib, zarur psixologik, pedagogik, ijtimoiy va huquqiy yordamni amalga oshirishi shart. Ushbu markazlarda bolani oilaga

qabul qilish va tarbiyalash borasida tutingan ota-onalarga zarur bilim beruvchi treninglar o'tkaziladi;

to'rtinchidan, ijtimoiy nochor ahvoldagi bolalar va oilalar bilan ishlovchi mutaxassislarning malakasini oshirish, yangi bilim, innovatsion shakl va usullarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

### **Nazorat savollari:**

1. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro tajribasini yoritib bering.
2. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga oid qanday xalqaro va milliy darajadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?
3. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Oila Kodeksining "Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari" to'g'risidagi II-bo'limida nimalar deyilgan?
5. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibini yoritib bering.
6. Qanday toifadagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar?
7. Qanday hollarda ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi?

## **5- MAVZU. ERTA IJTIMOIY YETIMLIKNI OLDINI OLISH MUAMMOSI: NAZARIYA VA AMALIYOT.**

### **Reja:**

**1. Go'dak yoshdagi bolalarning rivojlanishida institutsionallashuvning ta'siri.**

**2. Bolani yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muassasasiga "vaqtincha" joylashtirish.**

**3. Farzandidan voz kechish niyatida bo'lgan ayollar bilan ishlashning xalqaro tajribalari.**

**Tayanch so'zlar:** *go'dak yoshdagi bolalar, mehribonlik uylari, bolalar shaharchasi, go'daklar uyi, farzandidan voz kechish, ayollar, vasiylik va homiylik, patronat oila.*



## **1. Go‘dak yoshdagi bolalarning rivojlanishida institutsionallashuvningta’siri**

Ijtimoiy yetimlikning asosiy fojiali oqibatlaridan biri – bu internat tipidagi muassasa, ayniqsa, ota-ona g‘amxo‘rligini ko‘rmagan, erta yoshdan Bolalar uyida tarbiyalangan tarbiyalanuvchilarning jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy noqobilligi hisoblanadi.

1951-yildayoq, ingliz olimi 1 mavjudligini isbotlagan. 1951-yilda, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan nashr etilgan Boulbining “Materinskaya zabota i psixicheskoye zdorovye”, monografiyasi, butun dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan. Boulbining olib borgan tadqiqotlari va boshqa tadqiqotlarni tahlil qilib chiqargan xulosalarini quyidagicha yakunlash mumkin: erta yoshdan bola emotsional iliq muhitda o‘sishi kerak, ona va bola uchun qoniqish va xursandchilik manbasi bo‘lgan, yaqin va barqaror hissiy aloqalarga asoslangan, onaga (yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs) bog‘langanlikni shakllantirishi kerak. Bolaga bunday hissiy aloqa yetishmagan holatlar, bir qator psixik buzilishlarning, og‘irligi turli darajada bo‘lgan yoki tuzalmas deprivatsiya oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Vengriya psixologlari ma’lumotlariga ko‘ra, Bolalar uyida tarbiya olgan bir yarim yoshli bola, ijtimoiy xulq-atvori va aqliy rivojlanishi 1 yoshdagi bolaning rivojlanishiga teng bo‘ladi, ikki yarim yoshida esa, bir yarim yoshli bolaning rivojlanish darajasigacha zo‘rg‘a yetadi. Rivojlanishda bunday ortda qolishdagi uzilish yildan yilga o‘sadi.

Bolalar uylari tarbiyalanuvchilari, Mehribonlik uyiga oiladan tushgan tengqurlariga qaraganda rivojlanishdan ancha ortda qolishlariga e’tibor bergan bo‘lishingiz mumkin. Bolalar uyining qariyb 50 foiz tarbiyalanuvchilari organik buzilishlari bo‘lmagan, tabiatan sog‘lom bo‘lsalar ham, ancha kech yurishni va gapirishni boshlaydi. RBIMM mutaxassislari tomonidan yordamchi Mehribonlik uylari (VIII turlari) tarbiyalanuvchilari o‘rganilganda, ularning taxminan 40% foizi Bolalar uyida o‘sganliklari aniqlandi. Ehtimol, bunday bolalar go‘daklik davrida mehribon oilada o‘sib katta bo‘lganlarida, ular yordamchi maktabga tushmagan bo‘lardilar.

Nima sababdan internat tipidagi muassasalarda yaxshi parvarish va tibbiy xizmatga qaramasdan, barcha mutaxassislar ularda tarbiya olayotgan tarbiyalanuvchilar uchun keltiradigan salbiy oqibatlar haqida bir ovozdan gapiradilar? Bu savolga javob olish uchun go‘dak yoshidagi bolaning Bolalaruyida saqlanishi, uning bosh miyasining rivojlanishiga qanday ta’sir etishi vamuassasaga joylashtirish bilan yuzaga keladigan oqibatlarga

sabab bo'lgan omillarga qaratilgan bir qancha tadqiqot natijalarini ko'ribchiqamiz.

Bola hayotining birinchi 3 yilligi, uning yashashi, o'sishi va rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Aynan mazkur davr, inson hayotidagi rivojlanish va o'zgarishlar avj olib borayotgan davr hisoblanadi. Erta yosh davri jismoniy va aqliy salomatlik, hissiy barqarorlik, madaniy va shaxsiy mansublik va rivojlanayotgan qobiliyatlarning asosini yaratadi.

Bola hayotining ilk rivojlanish bosqichlarida, bosh miyada, miyaning neyronli asosining shakllanishi bilan bog'liq bo'ladigan keskin o'zgarishlar yuz beradi. Bola tug'ilganda uning boshidagi neyronlar bir-biri bilan yetarlicha bog'lanmagan bo'ladi. Miya, alohida kulrang hujayralar o'rtasida bog'lanishlarni hosil qilish yo'li bilan rivojlanadi. Bog'lanishlar, bolaga tashqi olamdan kelayotgan ta'sirlar orqali shakllanadi. Bola bilan mashg'ulotlar olib borilayotganida, aksonlar paydo bo'ladi va daraxt shoxlariga o'xshab bir-biri bilan bog'lanadi. Bu jarayonning eng intensiv davri, odam hayotining birinchi uch yiliga to'g'ri keladi. Bu davrda, miya hujayralari o'rtasida million bog'lanishlar rivojlanadi. Bola qo'llamagan bog'lanishlar esa, yo'qoladi (1.1.1-rasm.). Miya, doimiy ravishda uning faoliyatini faollashtiradigan varivojlanishni ta'minlaydigan qo'zg'atuvchilarga muhtoj bo'ladi. Insonning aqliy faoliyatining 40 foizi hayotining birinchi uch yilida shakllanadi. Go'daklik va erta yoshdagi bolalar miyasining me'yoriy rivojlanishiga zarur bo'lgan sharoit yaratish uchun tashqi taassurotlarning yetarli darajada bo'lishi muhim, chunki, tashqi olamdan kelayotgan turli xil ma'lumotlar miyada tahlil etilib, sezgi organlarini va miyaning ma'lum tuzilmalarini faollashtiradi.


N.M.Shelovanov (1960) tomonidan aniqlanishicha, bolaning miyasidamashq qilinmagan qismlar, me'yorda rivojlanmay qoladi va faoliyati susayib boradi.

Yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan, inson nerv tizimini o'rganishda, kichik yoshdagi bolaning noqobil sharoitda bo'lishi oqibatida bosh miyasida paydo bo'ladigan buzilishlarni qayd etish imkoniyati tug'ildi. Bunday tadqiqotlarga misol sifatida, Xarri Djunganining Ruminiyada ishlab chiqqan ijobiy-emission tomografiya metodini keltirishimiz mumkin. Neyronlarning yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi bola hayotining birinchi oyi va yiliga xos hisoblanadi. Shuning uchun, institutsional muassasada hayotining erta bosqichidan boshlab o'sgan bola his etgan muhtojliklar, uning bosh miyadagi bog'lanishlar sxemasining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.


Institutsionallashtirish bolaning miyasiga quyidagicha ta'sir etadi:

Miyaning, ayniqsa bilish faoliyati, xotira va hissiyotlarga javob beradigan, peshona oldi qismi va chakka qismi faolligini pasaytiradi va/yoki o'zgartiradi; muhim bo'lgan omillarni o'zgartiradi; miyaning ayrim qismlarining hajmini o'zgartiradi; miya qismlari o'rtasida o'zarobog'lanishlarni o'zgartiradi va natijada, jismoniy, bilish, ijtimoiy va hissiy sohalarda murakkab oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Oilada o'sgan 2 yoshli  
bola



Muassasada o'sgan  
2  
yoshli bola



1.1-rasm. Miyaning rivojlanishi.

N.M.Shelovanov yozishicha, sensor izolyatsiyasi (bolalar bog'chasi va Bolalar uyida ko'p marotaba kuzatilgan) sharoitida bo'lgan bolada, rivojlanishning barcha tomonlaridan ortda qolish va sustlik, nutqning rivojlanmaganligi, aqliy rivojlanishning sustligi kuzatiladi.

M.Yu.Kistyakovskaya, hayotining birinchi oyida bolalarda ijobiy hissiyotlarni shakllantiradigan omillarni tahlil qilib, sezgi organlari, xususan, ko'rish va eshitish organlari faqat tashqi ta'sirlar orqali shakllanishini va rivojlanishini aniqladi.

Ushbu dalillarga tayangan holda hamda o'z kuzatuv va tajribalarini olib borgan mashhur bolalar psixologi L.I.Bojovich, go'dakning psixik rivojlanishida yangi taassurotlarga nisbatan ehtiyoj yetakchi hisoblanadi, degan farazni ilgari surgan.

Ushbu farazga ko'ra, taassurotga bo'lgan ehtiyoj taxminan, bola hayotining uchinchi-beshinchi haftaligidan paydo bo'ladi va u boshqa ijtimoiy ehtiyojlar, shu jumladan tabiatan ijtimoiy bo'lgan, ona bilan aloqa qilish ehtiyojlarining shakllanishiga asos bo'ladi. Bu holat muassasalar, bolalar kasalxonalari, Bolalar uylari va internatlarning tajribasi bilan tasdiqlanadi.

Avval R.Shpis (1945) ko'rsatganidek, bunday muassasalarda bolalar yaxshi bo'lmagan oziq-ovqat yoki tibbiy xizmatdan emas, balki o'ziga xos sharoit, undan biri – sust qo'zg'atuvchilarga ega bo'lgan muhitdan azob chekadilar.

O'z yaqinlari tomonidan uzoq vaqt davomida stress va befarq munosabatga uchragan odamlar, psixik buzilishlarga moyilroq bo'ladi hamda o'qish va xulq-atvordagi muammolarga duch keladilar. Agar, bolaning atrofida unga dushmanlarcha munosabatda bo'lsa, unga g'amxo'rlik qilmasa, unda bolada

miyaning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan stress gormonlari ishlab chiqariladi.

Miyaning kimyoviy/gormonal faoliyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi: gipotalamus bosh miyaning gipofizidan gormonlarning ishlab chiqarilish mexanizmini ishga tushiradi va buyrak usti bezlari kortizol deb nomlangan stress gormonini ishlab chiqaradi. Zo'ravonlik natijasida stress holatlaridan ta'sirlanish tizimlarining kuchli, tez-tez va uzoq qo'zg'alishi va/yoki doimiy e'tiborsizlik, zaxarli stress deb nomlanadi. Kichikyoshdagi bolalarda bunday stress, bosh miya tuzilishi va boshqa a'zolar tizimini buzishga qodir hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yaxshi sharoitda o'sgan bolalarga qaraganda, Bolalar uylarida hamda boshqa noqobil sharoitda o'sgan bolalarda kun davomida kortizolning darajasi har xil bo'lib, uning darajasi, yuqori yoki past bo'lishi aniqlandi. Zaxarli stress mavjudligidan dalolat beradigan stress gormonlarining anomal darajada bo'lishi, kognitiv va emotsional rivojlanishning past darajada bo'lishiga ta'sir etib, katta yoshga yetkunga qadar davom etadi hamda o'sishga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa tadqiqotlarning tasdiqlashicha, bolaning erta yoshdan internat tipidagi muassasaga joylashtirilishi, uning bosh miyasiga bir qator salbiy ta'sirlarini ko'rsatadi:

- elektrik va metabolik faollikni pasaytiradi va o'zgartiradi;
- o'sishga, hissiyot va kognitiv funksiyalarga ta'sir etadigan asosiy gormonlarning darajasini o'zgartiradi;
- miyaning bir sohasi bo'lgan bodomsimon bezlar hajmining o'zgarishiga, miyaning turli sohalarini bog'lash funksiyasini bajaradigan miyadagi oq suyuqlikning buzilishiga olib keladi.

Bolalar uyi bolalarning oziqlanishga, tibbiy parvarish, uy-joy, ulg'ayish bilan ta'lim, san'at, sportga bo'lgan bazaviy ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Ammo, moddiy ehtiyojlarning qondirilishi bu bolani parvarish qilishning faqat bir tomoni hisoblanadi. Bundan tashqari bolalar, hissiy-iliq munosabatlarga muhtoj bo'ladilar, ularning yo'qligi esa, butun hayoti davomida yuzaga keladigan, murakkab muammolarga sabab bo'ladi.

Sharoitning optimal bo'lishiga ham qaramay: bir nechta go'dakka bir tarbiyachi to'g'ri keladi, to'g'ri parvarish va tozalik ta'minlanadi, odatda, bir tarbiyachi, bir bolaga g'amxo'rlik qilmay, bir nechta tarbiyachilar, bir nechta bolalarga almashinib qaraydilar.

Tarbiyachilar bolalarni yaxshi ko'rishi mumkin, ularning har biriga individual munosabatda bo'lishi mumkin, ammo bunga qaramay, bolalar o'zlarining barcha ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan ma'lum bir insonga nisbatan bog'liq bo'lib qola olmaydi.

Internat tipidagi muassasadagi bolalar bir tarbiyachiga nisbatan mustahkam bog'lanishni shakllantira olmaydilar, lekin, kattalardan e'tibor va mehr talab etish ko'nikmasini egallaydilar.

Bir inson tomonidagina iliq munosabat va g'amxo'rlik ko'rish bola uchun

muhim. Bu inson faqat bolaning qondosh onasi bo'lishi shart emas, ammo uning o'rmini bosuvchi shaxs doimo mehribon va hissiy iliq munosabatda bo'lishi lozim. Bolada dunyoga asosli ishonchni shakllantirish uchun ikkita shart mavjud: onalik g'amxo'rligining samimiyligi va uning doimiyligi.

**Bog'lanish** – odamlar o'rtasidagi o'zaro hissiy aloqa shakllanib, ular bir-biri bilan ajralgan bo'lsa ham noma'lum vaqtga qadar saqlanadigan jarayon hisoblanadi.

Kattalar bog'lanishni his etishni yaxshi ko'radilar, ammo ular bu hissiyotsiz ham yashay oladilar. Bolalar esa, bog'lanishni his etishlari shart. Ular, kattalarga nisbatan bog'lanishni his etmay turib, to'laqonli rivojlana olmaydilar, chunki bu ularning xavfsizlik hissi, dunyoni idrok etish va rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Sog'lom bo'lgan bog'langanlik hissi, bolada vijdon, mantiqiy tafakkur, bir onli hissiy kechinmalarni nazorat qilish, o'z-o'zini hurmat qilish, o'zining va boshqalarning hissiyotini tushuna olish hamda atrofdagilar bilan til topisha olish qobiliyatining

rivojlanishiga imkon beradi. Bundan tashqari, ijobiy bog‘lanish rivojlanishdan ortda qolish xavfini kamaytiradi.

Bog‘lanish hissi juda muhim bo‘lgani uchun uning qanday rivojlanishiniko‘rib chiqamiz (1.1.2-rasm).



1.2-rasm. Bog‘lanish sikli

Chaqaloqlar noqulay, yoqimsiz hissiyotlarni tug‘diradigan ochlik hissini sezganlarida, o‘z ehtiyojlarini yig‘i orqali ifoda etadilar. Ota-ona bunday yig‘ini eshitsalar, unga sabab bolaning ochligi deb biladilar va bolaga ovqat beradilar. Bunday ehtiyoj qondirilganidan so‘ng chaqaloq yana boshqa ehtiyoj sezmaguncha, misol uchun, taglikni almashtirish kerak bo‘lganda, o‘zini xotirjam his etadi. U holda ehtiyoj yana ifodalanadi, keyin qondiriladi va bola yana xotirjam bo‘ladi. Ehtiyojlarning paydo bo‘lishi va qondirilishi bilan bolada uning ehtiyojlarini qondiradigan bir yoki bir nechta odamlarga ishonch va bog‘langanlik hissi shakllanadi.

Kattalar tomonidan ehtiyojlarning muntazam va to‘g‘ri qondirilishi, chaqaloqning asab tizimini barqarorlashtiradi va qo‘zg‘alish-tormozlanish jarayonini muvozanatlashtiradi. Bundan tashqari, kattalarning unga javobi orqali bolalar o‘z ehtiyojlarini aniqlab olish va ularni qondirish uchun nima qilish kerakligini eslab qoladilar, bu esa – o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Go‘daklik va ilk bolalik (3 yoshgacha) davrida, bolani doimiy ravishda parvarish qilgan insonga nisbatan bog‘lanish hissi tez shakllanadi. Ammo, bog‘lanish hissining rivojlanishi yoki buzilishi, g‘amxo‘rlikning emotsional tomondan qanday ifodalanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Kattalarning bolaga nisbatan iliq munosabati, bogʻlanish hissini mustahkamlaydi, bola boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni oʻrnatishga, yaʼni boshqalar bilan muloqot qilish va muloqotdan huzurlanishga oʻrganadi. Agar kattalar bolaga nisbatan gʻazablanish va sovuq munosabatlarni bildirsa, u holda buzilgan bogʻlanish shakllana boshlaydi.

Bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilar, aniq rejada olib boriladigan ularning ovqatlanish va tozalik ehtiyojlari qondirilishida oʻz navbatini kutadilar va koʻz-koʻzga emas, balki yuqoridan pastga qaraydigan, doim har xil boʻlgan insonlarning oʻtib turishlarini kuzatadilar.

Gʻamxoʻrlik va hissiy munosabat bildirish natijasida 18 oyga toʻlgan bolada dunyoga bazaviy ishonch hissi shakllanadi.

Ilk bolalik yoshida hissiy tahqirlanganlik tajribasiga ega boʻlgan bolalarda, dunyoga ishonchsizlik shakllanadi va yaqin munosabatlarni saqlashda qiyinchiliklar paydo boʻladi.

Koʻpgina tadqiqotchilar tomonidan dunyoga bazaviy ishonchning yoʻqligi, onalik deprivatsiyasining eng ogʻir va oʻrnini toʻldirib boʻlmaydigan oqibat deb hisoblanadi. U oʻz oʻrnida qoʻrquv, tajovuzkorlik, boshqalarga va oʻziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, yangi narsalarni bilish, oʻrganishga boʻlgan istakning shakllanmasligiga olib keladi.

### **Deprivatsiya tushunchasi**

Bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilarda bogʻlanish hissi shakllanishining buzilishi sabablariga toʻxtalib oʻtamiz.

Deyarli barcha psixologlar bogʻlanishning buzilishiga asosiy sabab ilk yoshdagi deprivatsiya deb hisoblaydilar. Psixologik adabiyotlarda deprivatsiya tushunchasiga (lotin tilidan *deprivatio* – mahrum boʻlish) odamning asosiy psixologik ehtiyojlarining uzoq vaqt davomida qondirilmaganligi natijasida yuzaga keladigan psixik holat deb taʼrif berilgan; yaqqol namoyon boʻladigan, hissiy va aqliy sohadagi ogʻishlar hamda ijtimoiy aloqalardagi buzilishlar bilan tavsiflanadi.

Deprivatsiyaning sensor (sezgi), kognitiv (bilish), hissiy, ijtimoiy va boshqa turlari ajratib koʻrsatiladi.

Internat tipidagi muassasalar, ayniqsa erta yoshdan Bolalar uyiga tushgan bolalar, deprivatsiyaning barcha turlariga uchraydilar. Ilk yoshdan boshlab, ularning sensor rivojlanishi uchun zarur boʻlgan maʼlumotlarni yetarli darajada olmaydilar. Misol uchun, koʻrish (turli xil rangda va hajmda boʻlgan oʻyinchoqlar), paypaslash (turli xil materiallardan ishlangan oʻyinchoqlar), eshitish (turli ovozlarni chiqaradigan oʻyinchoqlar) qoʻzgʻatuvchilari yetarli darajada boʻlmaydi. Nisbatan eʼtiborli boʻlgan

oilalarda, o'yinchoqlar yetarli darajada bo'lmasa ham, bola turli xil nuqtalardan predmetlarni ko'rish (bolani qo'lga olib, uyda aylantirganlarida, ko'chaga olib chiqishganda), turli xil ovozlarni eshitish

– nafaqat o'yinchoqlar, balki idish-tovoq, televizor, kattalarning suhbatini, unga qaratilgan nutqni eshitish, nafaqat o'yinchoqlar, balki turli materialdagi predmetlar bilan tanishish, kattalarning kiyimi, uydagi har xil predmetlarni ushlab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bola inson yuztuzilishi bilan tanishib oladi, chunki, hatto ona bilan bo'lgan minimal aloqada ham, ona yoki boshqa oila a'zolari bolani qo'lga oladilar, gapiradilar va unga murojaat qiladilar.

Kognitiv deprivatsiya, bola u bilan bo'layotgan jarayonga hech qanday ta'sir o'tkaza olmagani, unga hech narsa bog'liq bo'lmagani – ovqat yegisi kelsa, uxlagisi kelsa ham buning ahamiyatsizligi oqibatida yuzaga keladi. Oilada o'sgan bola ovqatlanishdan (yig'i bilan), kiyinish yoki aksincha, yechinishdan bosh tortishi mumkin. Ko'pchilik holatlarda, ota-onalar bolalarning xohishlarini inobatga oladilar, vaholanki, hatto eng yaxshi Bolalar uyida ham har bir bolaning o'z istagiga qarab ovqatlantirishning jismonan imkoni bo'lmaydi. Shuning uchun ham, ilk yoshdan boshlab bunday bolalar, ularga hech narsa bog'liq bo'lmasligiga o'rganib qoladilar, bu nafaqat maishiy, ya'ni bolalarga "ovqat yeyishni istaysanmi?" kabi savolga javob bera olmasligi, balki keyinchalik boshqamasalalarda ham ularning qaror qabul qilishga qiynalishida ham namoyon bo'ladi. "Kelajakda kim bo'lmoqchisan?" yoki "Qayerda o'qimoqchisan?" degan savollarga ko'pincha "bilmayman" yoki "qayerni aytishsa" degan javob qaytaradilar. Shubhasiz, amalda ular har doim ham tanlash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, ammo bunday imkoniyatga ega bo'lganlarida ham, tanlashga qodir bo'lmaydilar. Muassasani bitirib chiqqandan so'ng, bunday bolalar nima qilishni bilmay qolishadi. Sababi, hayot ulardan mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishni talab etadi, muassasani bitirib birdaniga ular hamma narsani hal qilishi va hayotlarini o'z kuchlari bilan qurishga majbur bo'ladilar.

Hissiy deprivatsiya bolaning kattalar bilan muloqoti yetarli darajada hissiyotlarga boy bo'lmaganligi natijasida yuzaga keladi. Ko'rsatayotgan xulq-atvoriga nisbatan hissiy xayrixohlik, ya'ni ko'rishganda xursand bo'lish, biror narsani qilmasa norozilik bildirish tajribasini egallamaydi. Oqibatda, bola o'z xulq-atvorini nazorat qilish, o'z hissiyotlariga ishonish, boshqalar bilan ko'z-ko'zga tushib aloqa qilishdan qochishga harakat qila boshlaydi. Deprivatsiyaning aynan bu turi, oilaga qabul qilingan bolaning moslashuvini qiyinlashtiradi.



Ijtimoiy deprivatsiya, ota, ona, buva va buvilar, bog‘cha tarbiyachilari, do‘kon sotuvchilari va boshqa turli xil ijtimoiy rollarning amaliy ma’nosini bilib olish, ularni o‘yinda sinab ko‘rishda bolaning imkoniyati bo‘lmaganligi oqibatida yuzagakeladi. Internat tipidagi muassasaning yopiq sharoitlari qo‘shimcha qiyinchiliklarni tug‘diradi. Oilada o‘sgan bolalarga qaraganda, bunday bolalarda tashqi olam haqidagi bilimlari anchapast bo‘ladi.

## **2. Bolani yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar muassasasiga “vaqtincha” joylashtirish**

Boshqa muhim omilni e‘tiborga olmoqchimiz. Amaliyotda bolaning muassasaga “vaqtincha” joylashtirilishi holatlarini tez-tez uchratish mumkin. Bu holat, albatta o‘zining salbiy oqibatlariga ega. Boulbi va Robertsonlarga ko‘ra, ayrilish ta’siri quyidagicha kechadi: boshida bolalar *norozilik* bildiradilar, ular yig‘laydilar, qichqiradilar va unga ko‘rsatilgan har qanday g‘amxo‘rliklarni rad etadilar. So‘ngra, ularda *ilojsizlik* holati boshlanadi, ular tinchlanadilar, odamovi, passiv bo‘lib qoladilar, chuqur qayg‘u holatida bo‘ladilar. *Begonalashib ketish*oxirgi bosqich bo‘lib, unda bola oldingi holatga ko‘ra jonliroq bo‘ladi va tarbiyachilarning g‘amxo‘rligini qabul qilishi mumkin. Bunda Bolalar uylari xodimlari, bola o‘ziga kelib qoldi deb hisoblashlari mumkin. Ammo, aslida unday bo‘lmaydi. Ona uni olib ketish uchun qaytib kelganida, bolauni tan olishni ham istamaydi: onaga teskari qarab oladi, unga nisbatan qiziqishi qolmaydi.

Xuddi shunday holatni, Mehribonlik uylarida ham kuzatish mumkin. Boshida bolalar nima sababdan o‘z uyida yashay olmaganliklarini tushunmaydilar va o‘z yaqinlarini kutadilar. Suhbat jarayonida, ular o‘z yaqinlarining kelmayotganliklarini quyidagicha oqlashga harakat qiladilar: “Ular uy olish uchun pul ishlayaptilar. Pul topishlari bilan, kelib olib ketishadi”, “Ular kasal”, “Ular, yashayotgan manzilimizni bilmaydilar, biz esa qayerga ketganimizni aytmadik” va hokazo. Bolalar, oilada qanday yomon holatda bo‘lganliklarini eslay olmaydilar va ota-onasiga intiladilar. Ko‘pchilik bolalar muassasadan qochishga harakat qiladi. Bir necha yillardankeyingina, ulardan voz kechishganini tushunib yetadilar.

Ayrim qarashlarda, tug‘ilishidan boshlab onadan ayrilgan bolaga qaraganda, ma’lum vaqt ona bilan bo‘lib, keyin undan ayrilgan bola, nevrotik tipdagilarga o‘xshab, turli xildagi himoya mexanizmlarini namoyon qiladi. Misol uchun, J.Boulbi ta’kidlaganidek, onasidan ayrilgan bolalar yangi sharoitga moslashib, ko‘pincha onani unutishi yoki unga nisbatan salbiy

munosabatni (onani tan olishni istamaydilar, ona tomonidan berilgan o'yinchoqlarni sindirishga harakat qiladilar) namoyon qilishlari mumkin.

Shu o'rinda, 2012-2013-yillarda RBIMM mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalarini keltirmoqchimiz. O'zbekiston Respublikasi "Bolalar uylari to'g'risida"gi hamda "Mehribonlik uylari to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, oilaning ijtimoiy ahvolini qo'llab-quvvatlash maqsadida, bola bir yilga muassasaga joylashtirilishi mumkin. Tadqiqotda bunday oilalarda ota-ona va bolalarning o'zaro munosabatlari o'rganib chiqildi. Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, muassasaga hatto qisqa muddatga joylashtirilgan bolaning psixologik rivojlanishida salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Bolalarda xafalik, kattalargatajovuzkorlik paydo bo'lib, u oilaga qaytarilganidan so'ng, tushunmovchiliklar, nizolar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarning institutsionallashuvi nafaqat uning psixologik o'zigaxosliklariga, balki ularning ma'naviy-axloqiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun:

- ota-onalar o'z farzandlarisiz yashashga o'rganib qoladilar, ularda ota-onalik mas'uliyati pasayadi. O'z ota-onalik burchini bajarmagan ota-onalarda, o'z farzandi va jamiyat oldida ota-onalik burchidan chetlashish holatlari shakllana boshlaydi. Kattalarning ijtimoiy-psixologik muammosi hisoblangan "Chetlashish", ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuviga ta'sir etadigan omil hisoblanib, bolalarning oiladagi moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- ko'pchilik ota-onalarda o'z farzandlariga nisbatan salbiy munosabat qayd etilgan (bolani tarbiyasiz, omadsiz sifatida ko'rish, unga nisbatan g'azablanish va achinishni his etish);

- ota-onalarning bolani Mehribonlik uyiga joylashtirishdan asosiy maqsadlari – farzandlariga "sifatli ta'lim"ni ta'minlash, ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish, ulg'ayayotgan avlodning ijtimoiylashuvini ta'minlash, shu bilan birga aholida moddiy qadriyatlarining ustunligi va ma'naviy qadriyatlarining pasayishini ko'rsatadi.

Keltirilgan tadqiqot natijalari tasdiqlashicha, onadan erta ayrilib, internat tipidagi muassasada o'sgan bolalar, yetarli darajada g'amxo'rlikni ko'rmaydilar, bu esa, kelajakda ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda asosiy rol, onalik deprivatsiyasi omili o'ynaydi. Bolaning psixik rivojlanishida buzilishlarning qaysi shaklda bo'lishi, quyidagi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi: qaysi yoshda ona bilan ajralib

qolgan; bog‘lanishning shakllanish jarayoni qanday kechgan, bola oilada vaqtincha yoki umuman yashamaganligi.

Xorijiy va mahaliy tadqiqot natijalari, Bolalar uyida yashayotgan tarbiyalanuvchilarda hissiy, bilish hamda ijtimoiy ortda qolishni va shak- shubhasiz, tarbiya modeli sifatida internat tipidagi muassasalardan voz kechish zarurligi, erta ijtimoiy yetimlikning oldini olish choralarini kuchaytirish muhimligini ko‘rsatdi.

Keyingi bobimizda, turli mamlakatlarda qo‘llanilib kelayotgan, bolalardan erta yoshda voz kechishning oldini olish modellarini keltirib o‘tamiz.

### **3. Farzandidan voz kechish niyatida bo‘lgan ayollar bilan ishlashning xalqaro tajribalari**

Erta ijtimoiy yetimlikning oldini olish sohasidagi ishlar bo‘yicha qator davlatlar tajribasini o‘rganish, yangi tug‘ilgan chaqalog‘idan voz kechish niyatida bo‘lgan ayollar bilan ishlashda mavjud ijtimoiy texnologiyalar va yondashuvlar bilan tanishish imkonini berdi. Mazkur paragrafda ularning ba‘zilarini keltirib o‘tamiz.

**Rossiya Federatsiyasida** bolalar va oilalarni ijtimoiy qo‘llab- quvvatlash bir necha modellari amal qilmoqda. Davlat xizmatining ustunlik qiluvchi modeli – bolalar va oilalarning ijtimoiy yordam ko‘rsatish hududiy markazlari hisoblanadi. Mazkur markazlar ko‘ptarmoqli faoliyat va kompleks xizmatlar ko‘rsatadi, shu jumladan ayollar maslahat markazlari va tug‘ruqxonalar bilan hamkorlik qiladilar. Qator hududlarda, tug‘ruqxonalarda alohida xizmatlar tashkil etilgan bo‘lib, ularning xodimlari yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishning oldini olish bo‘yicha ishlarni olib boradilar. Erta ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo‘yicha ishlarni o‘tkazishda turli-tuman yo‘nalishlarni qamrab oluvchi Xabarovsk shahridan misol keltiramiz.

#### **Xabarovsk shahridagi yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishningoldini olish bo‘yicha loyiha**

**Birinchi bosqich: tug‘ruqxona.** Tug‘ruqxonadagi ishlar barcha tug‘ruq jarayonidagi ayollar orasidan chaqalog‘ini tashlab ketish niyatida bo‘lganlarini aniqlash, ularni maqsadli guruhga qo‘shish va ular bilan ish olib borish bo‘yicha yangi xizmat bilan to‘ldirildi.

Neonatolog xatar guruhidagi ayolni ko‘rganida:

1. Holat bo‘yicha loyiha rahbariga xabar berar edi.
2. Ayol bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatishga harakat qilardi hamda imkoniyatga qarab, gumon qilinayotgan yoki yuz berib bo‘lgan voz kechish

holatining sabablarini aniqlaydi.

3. Onadan u bilan boshqa mutaxassislarning ishlashlari uchun uningroziligini oladi.

4. Onada yangi tug'ilgan chaqalog'iga nisbatan bog'langanlik hissini uyg'otish bo'yicha choralarni ko'radi (bolani tug'ilgan zahoti tug'ruqxonada odatda amal qilinadigandan ko'ra ko'proq vaqtga bag'riga qo'yish, bolaning ona bilan bir palatada bo'lishi, ona bilan yangi tug'ilgan chaqalog'i, uni parvarishlash, emizish va davolash to'g'risida suhbatlashish).

Loyiha rahbari ayolga tug'ruqxonada yordam ko'rsatish maqsadida zarur mutaxassislarning jalb etilishini ta'minlar edi. Ish jarayoniga psixologva ijtimoiy ish xodimi jalb etilar edi. Mazkur bosqichda psixologning vazifasi ayolning psixologik holatini o'rganish va unga tezkor psixologik yordam ko'rsatish, zarur hollarda oila a'zolariga psixologik yordam ko'rsatish uchun uyga tashrif buyurish. Ijtimoiy ish xodimi ayol va uning oila a'zolarining ijtimoiy holatini batafsil o'rganib, ular muhtoj bo'lgan yordam turlarini aniqlaydi, zudlik bilan yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazadi. Psixolog hamda ijtimoiy ish xodimi ishining muhim tashkil etuvchisi ayolning yaqinlari orasidan unga ko'mak ko'rsata oladigan insonlarni izlash edi. Bular ko'pincha bolaning tug'ilishi haqida bexabar bo'lgan uning qarindoshlari bo'lishi mumkin edi. Tug'ruqxona bosqichidayoq loyihaning butun ishchi guruhi tomonidan har bir oila bilan individual ishlash rejasi tuziladi.

Tug'ruqxonadan chiqishga ruxsat berishi vaqtiga qadar maqsadli guruhdagi ayollar o'z vaziyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha yo'l tutadilar. Ba'zilarida qo'llab-quvvatlashni his qilib, o'z kuchlariga ishonch va umid uyg'onib, bolabilan birgalikda o'z oilalariga qaytadilar. Ammo bunday vaziyatlar kamdan-kam kuzatiladi. Ko'pincha onalar tug'ruqxonadan chiqish vaqtida ham ikkilanish holatida bo'ladilar, yoki ularning umuman boradigan yerlari bo'lmaydi. Go'dakni vaqtinchalik bolalar uyiga joylashtirish onaning bolaga nisbatan shundoq ham mustahkam bo'lmagan bog'liqligini yanada xatar ostiga qo'yar edi. Onaning o'zi ham va uning oila a'zolari ham yangi tug'ilgan chaqaloqdan ajralganlarida usiz hayotga tezda ko'nikadilar va shu bilan birga bolani tezroq uyga olib ketish istagi borgan sari so'nib boradi. Bunga yo'l qo'yimaslik uchun loyihada ikkinchi bosqich – bolalar shifoxonasi ko'zda tutilgan.

***Ikkinchi bosqich: bolalar shifoxonasining go'daklar bo'limi.*** Shifoxonaning ma'muriyati bilan kelishilgan holda maqsadli guruhdagi bolali ayollar uchun bo'limdan maxsus palata ajratilgan. Mazkur joylashtirishning asosiy maqsadi ona va bola o'rtasidagi bog'liqlikni

saqlash va mustahkamlash edi. Ona kunu-tun davomida go‘dak bilan birpalatada bo‘lib, uni o‘zi parvarish qilar, u bilan muloqotda bo‘lar edi. Bo‘limxodimlariva loyiha mutaxassislarining bola bilanaloqa o‘rnatishi va uni saqlab qolishiga yordam berar edilar. Loyiha pediatri, psixolog va ijtimoiy ish xodimi mazkur oila bilan ishlab chiqilgan rejaasosida o‘z ishlarini davom ettirardilar. Uy-joy, moddiy, huquqiy muammolarni hal etishda, oiladagi munosabatlarni o‘zgartirishda yordam ko‘rsatilardi. Bir qancha holatlarda ayolga farzandini oilasiga olib ketish to‘g‘risida qat‘iy qarorga kelishida yordam ko‘rsatilgan. Ammo bu kabiijobiyholatda ham oila mutaxassislarining kuzatuvlari ostida bo‘lishilozim, chunki –qaytadan voz kechish xavfi uzoq vaqtgacha saqlanishi mumkin; -bolaga zarur parvarish va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmaligi va hattoki bola hayotiva salomatligi uchun xatarli sharoitlarda bo‘lishi mumkin; - oilaning uy-joy, moddiy va psixologik muammolari, odatda, vaqtinchalik hal qilinadihamda mutaxassislar o‘z ishlarini davom ettirishlarini talab etadi; -uning taqdiriga aralashgan insonlarning ta‘siri ostida avval istalmaganbolani o‘stirish mas‘uliyatini o‘z zimmasiga olgan ayolni keyinchalik qo‘llab-quvvatlashsiz qoldirilishi shafqatsizlik va yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lmaganholatdir. Shu sababli uchinchi bosqichning amalga oshirilishi talab etiladi. **Uchinchi bosqich: oila.** Tug‘ruqxonadan yoki bolalar shifoxonasidan chaqalog‘i bilan chiqishda ayolga yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun kiyimlar komplekti sovg‘a qilinardi. Loyihaning butun ishchi guruhi nomidan sovg‘a va mehribon so‘zlar bilan kuzatish ham ayol uchun psixologik yordam ko‘rsatishda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Xayrlashish vaqtida mutaxassislar kelgusida ham oilaga yordam ko‘rsatish niyatini bildirib, keyingi uchrashuvlarni batafsil kelishib olardi edilar. Oilaga tashriflar, odatda, uymaishiy xo‘jaligini tashkil etish, oilaviy o‘zaro munosabatlarni yaxshilashda yordam ko‘rsatish, bolani parvarishlashga o‘rgatish, nafaqalar olish, uy-joy, tibbiy va maishiy muammolarni hal qilish uchun zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘maklashishdan tashkil topar edi. Oilaga tashrif buyurishning zaruriy qismi bolaning holati hamda kattalarning unga bo‘lgan munosabatlarini, onaning holati va umuman oilaviy ishlarni nazorat qilishdan iborat.

Tug‘ruqxonada tuzilgan oilaga individual yordam ko‘rsatish rejasini amalga oshirish jarayonida unga qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritilardi edi. Oilalarga tibbiy-psixologik-ijtimoiy ko‘maklashish qaytadan voz kechish xavfi bartaraf etilmaganig qadar davom etardi edi. Mazkur qaror har bir holat uchun alohida jamoada har tomonlama muhokama etilganidan so‘ng belgilanardi edi.

***Vaqtinchalik bolalar uyiga joylashtirish.*** Agar loyihaning maqsadli guruhiga qabul qilingan ayol tug‘ruqxonadan chiqish vaqtida bolani uyiga olib ketish yoki u bilan bolalar shifoxonasining palatasida birgalikda yashash imkoniyatiga ega bo‘lmasa, bolani vaqtinchalik Bolalar uyiga joylashtirish rasmiylashtiriladi. Uning onasi tez orada uni olib ketish uchun qaytib kelish niyatini saqlab qolgan holda uyiga ketar edi. Bu holatda ham ona farzandini uyiga olib keta olmasligiga sabab bo‘lgan muammolarini – uy-joyining yo‘qligi, ona va boshqa oila a‘zolarining spirtli ichimliklarga ruju qo‘yganligi, nizoli oilaviy munosabatlar kabilarda oilaga ko‘maklashish maqsadida mutaxassislar ko‘magitashkil etiladi. Yana bir vazifa onaning o‘z farzandidan xabar olishini tashkil etish orqali ona va go‘dakning hissiy aloqalarini saqlab qolish hamda onaning bolaga nisbatan o‘z majburiyatlarini bajarishini nazorat qilish edi. Ammo amaliy tajribalar ko‘rsatishicha, bunday vaziyatda loyiha mutaxassislarining voqealarning borishiga ta‘sir etish imkoniyatlari juda oz edi. Odatda, bolasiz, odatiy muhitga tushgan ayol, ayniqsa spirtli ichimliklarga ruju qo‘ygan ayollar tezda tanish hayot tarziga qaytadilar. Boladan xabar olish, unga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish zarurligi to‘g‘risida faqatgina “jonga tegadigan” loyiha mutaxassislari eslatib turardilar. Shu bilan birgalikda, Bolalar uylaridagi mavjud tartib shundoq ham zaif bo‘lgan onaning bola bilan aloqalarini saqlab qolishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli bunday vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishish imkoni deyarli bo‘lmaydi – bolalar oilalariga qaytarilmaydilar, onalar esa qandaydir vaqtdan so‘ng vasiylik va homiylik organlari xodimlarining talab etishlari oqibatida, butunlay voz kechish to‘g‘risidagi arizani yozar edilar.

***Tug‘ruqxonadan sezdirmay g‘oyib bo‘lgan ayollar bilan ishlash sxemasi.*** Avvalo, ularni izlash bo‘yicha harakatlar amalga oshiriladi. Odatda, ularaytgan manzil yolg‘on bo‘lib chiqaradi. Ayol uchun tez tibbiy yordam chaqirilgan manzil izlashda yordamchi ma‘lumot bo‘lishi mumkin. Umuman mumkin bo‘lgan barchaga – uy eshigini ochgan insonlar, qo‘shnilar, tanishlar va qarindoshlarga loyiha mutaxassislari onaning ularga murojaat etishini iltimos qilib telefon raqamlarini qoldirganlar. Agar kimdir uning ish joyini eslasa, uni topish uchun u yerga boradilar. Izlab topilgan ayollar ko‘pincha atrofdagilardan farzand ko‘rganliklarini yashirishni istar edilar, unda barcha suhbatlar ko‘chada yoki faqat telefon orqali olib boriladi. Mutaxassislar bularning barchasini amalga oshirar edilar, chunki qidiruv ba‘zan yaxshi natijalar berar edi. Muvaffaqiyatli qidiruv hamda ayol va uning oilasi uchun yordamni qabul qilishga roziligi olingan

holatlarda boshqa vaziyatlardagidek tibbiy-psixologik-ijtimoiy ko‘maklashish tashkil etilar edi (“bola oilada” sxemasi bo‘yicha yoki “bola Bolalar uyida” sxemasi bo‘yicha).

**Loyiha ishining natijalari.** Barcha ishlar yetti nafar mutaxassisning kuchi bilan amalga oshirilar edi: neonatolog, pediatr (bir vaqtda – loyiha rahbari), ikki psixolog, ikki ijtimoiy ish xodimi hamda loyiha koordinatori. Faoliyat ixtisosliklararo yondashuv va jamoaviylik tamoyili bo‘yicha qurilgan edi. Barcha muhim qarorlar yagona rahbar tomonidan emas, balki haftada bir marta umumiy muhokamadan so‘ng butun jamoa tomonidan qabul qilinadi. Ish jarayonida voz kechilgan bolalar vaularning ota-onalariga qandaydir aloqadorligi bo‘lgan boshqa tuzilmalar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatiladi va rivojlanadi.

Loyiha ishchi guruhi tug‘ruqxona va bolalar shifoxonasidan tashqari Bolalar uylari, vasiylik va homiylik organlari, noqobil oilalar bilan ishlash bo‘yicha shahar sektori, aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazi, shahar ma‘muriyati, shahar va tuman gazetlari, xususiy korxonalar bilan o‘zaro hamkorlik qilgan. Tug‘ruqxonalarda bolalardan voz kechish holatlari sonining ortib borishi to‘g‘risidagi mavzuni muntazam yoritish va loyihani amalga oshirish davomida erishilgan natijalar to‘g‘risida shahar ma‘muriyatini xabardor qilish bilan shahar bosh pediatri (loyiha koordinatori) tug‘ruqxonalarda va bolalar shifoxonalarda psixolog va ijtimoiy ish xodimi stavkalarini kiritish yo‘li bilan mazkur xizmatlarning barqarorligini ta‘minlashga erishildi.

Davlat vasiyligidagi muassasalarda tarbiyalanuvchi ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni parvarishlash va ta‘minlashga sarflanadigan moddiy sarf- harajatlarning miqdori kamaydi. Xabarovsk shahridagi davolovchimuassasada bir nafarbolaning ta‘minoti uchun har oyda 14000 rubl pul sarflanadi. Olti nafar go‘daklarni o‘z oilalariga qaytarish shahar uchun bir yilda 1 000 800 rublni tejat qolishga imkon berdi.

Rossiya Federatsiyasining har bir hududida yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishning oldini olish bo‘yicha o‘z modellari amal qiladi va ular eng asosiysi – boladan voz kechish istagini bildirgan ayollar bilan ishlash nafaqat mumkin, balki zarur ekanligini isbotladi.

Hozirgi vaqtda yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishning oldini olish bilan barcha shaharlarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy xizmatlar shug‘ullanadilar. Tug‘ruqxona yoki ayollar maslahat markazidan ma‘lumot olinganida, xizmat mutaxassislari ayol bilan ishlash uchun joylarga chiqadilar. Bundan tashqari mamlakatda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarga yordam ko‘rsatish markazlari mavjud bo‘lib, u yerda farzandi bilan

ayolga boshpana va yordam beriladi.

**Ukrainadagi oila va bolalarga ijtimoiy ko‘maklashish modeli** Buyuk Britaniya va Germaniya tajribasi asosida yaratilgan. Mamlakatda davlat darajasida Bolalar ishlari bo‘yicha xizmat va Oilalarni qo‘llab- quvvatlash bo‘yicha xizmat mavjud bo‘lib, xizmatlar tomonidan qiyin hayotiy vaziyatda qolgan bolalar va oilalarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatiladi.

Bolasidan voz kechish niyatida bo‘lgan ayol bilan uchrashish uchun ijtimoiy ish xodimi yuboriladi va u vaziyatni baholaydi, ko‘maklashish rejasini ishlab chiqadi. Ona va bola ijtimoiy markazlarining (08.09.2005 yildagi 879-sonli Ukraina Vazirlar Mahkamasining Qarori.), tajribasi e‘tiborga molikdir, ularda ayollarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ota- onalarning yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishlarining oldini olishning yangi shakllari joriy etilgan.

Ona va bola ijtimoiy markazlarida qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan homilador ayollar (7-9 oyida bo‘lgan) hamda tug‘ilganidan 18oylikkacha farzandi bo‘lgan ayollar yashashlari mumkin. Markazda mijozlar uchun psixologik-pedagogik va uy-joy maishiy sharoitlar yaratilgan, bolali ayollar oziq-ovqat bilan ta‘minlanadilar, ularning ta‘lim olishlari, kasb egallashlari, markazdan tashqarida bola bilan mustaqil hayot kechirish ko‘nikmalarini egallashlari, ularning huquq va manfaatlarini himoyalashda yordam ko‘rsatiladi. Shuningdek, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va axborot berish xizmatlari ko‘rsatiladi. Yashash-maishiy sharoitlar mijozlarning to‘liq mustaqilliklarini ta‘minlaydigan tarzda yaratilgan. Ayollar markaz hududini o‘zlari tozalaydilar, ovqat tayyorlaydilar va h.k.

Markaz mutaxassisleri vaqtinchalik joylashtirilgan mijozlarga qarindoshlari bilan aloqalarini yaxshilash, uy-joy va boshqa hayotiy zarur masalalarni hal etishlarida ko‘maklashadilar. Shu bilan birgalikda mutaxassislar yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishning oldini olishda mazkur markazlar eng maqbul usul hisoblanmasligini ta‘kidlaydilar, ko‘pincha yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishning oldini olish uchun joylarda ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish zarur.

Vaqtinchalik boshpana uchun Ona va bola markazlari esa boshqa barcha resurslar qo‘llanilganidan so‘ng oxirgi navbatda ishtirok etishi lozim. Shuningdek, undagi yashash muddati chegaralangan bo‘lishi lozim.



Erta ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo'yicha o'xshash dasturlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Belorussiya, Gruziya va boshqa mamlakatlarda amal qiladi.

Uzoq xorij davlatlarida oilalar bilan ijtimoiy, psixologik texnologiyalarni qo'llash va ota-onalarga yordam ko'rsatish bo'yicha mutaxassislarning o'zaro hamkorliklari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy siyosati og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga davlat tomonidan katta moddiy va ijtimoiy- psixologik yordam ko'rsatilishini ko'zda tutadi.

**AQSH**dagi ijtimoiy xizmatlar. Mamlakatda yolg'iz onalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning diqqatga molik jihatlari mavjud. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarga ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi maxsus muassasalar quyidagi xizmatlarni amalga oshiradilar: onalar uchun kasbiy o'qitish maxsus guruhlarini tashkil etish, ishga joylashish bo'yicha yordamni ta'minlash; kunduzi va kechki vaqtlarda ishlaydigan onalarning farzandlarini parvarishini ta'minlash; shahar salomatlik markazlari qoshida turmushga chiqmagan onalar uchun xizmatlarni tashkil etish; shafqatsiz munosabat ko'rsatilgan bolalarni himoyalash xizmatlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash; tutingan oilalar bilan ishlash, bolaning yangi oilaga moslashishini kuzatish; bolalarning tarbiyasi va ta'limida yordam ko'rsatish, ota- onalarga uy xo'jaligini yuritishda yordam ko'rsatish ijtimoiy xizmatlarini rivojlantirish.

Bolali oilalarning ko'pgina muammolari oilalarga konsultativ yordam berish doirasida birlashmalar darajasida hal etiladi. Bu "Yolg'iz ota-onalarga yordam ko'rsatish uchun resurs markazi", yosh homilador ayollar uchun ayollar krizis klinikasi. Klinika faoliyatining maqsadi – yosh homilador qizlarga psixologik va ma'naviy yordam ko'rsatish. Bo'lajak onalar klinikada bo'lgan vaqtlarida maxsus tayyorlov kursidan o'tadilar, samarali xulq shakllarini bo'lajak farzand parvarishi va boshqalarni o'rganadilar.

**Fransiyada** bolali bo'lgan barcha oilalarga qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Mazkur strategiya doirasida oilaviy hayotda qiyinchiliklarni his qilayotgan ayollarga qo'shimcha davlat yordami ko'rsatiladi, lekin asosiy yordamni ular butun oilaga faol ijtimoiy yordam ko'rsatilishi hisobiga oladilar. Bu yerda barcha oilalar umumiy hamda daromaddan kelib chiqadigan oilaviy nafaqa oladilar, shu jumladan, umumiy nafaqa hamda turar joyga haq to'lash uchun qo'shimcha nafaqa, 1 yoshgacha farzandi bo'lgan onalar uchun maxsus nafaqa, ona (ota)ga bolani parvarishlash uchun haq to'lanadigan ta'til. Ota- onalarga bola 3 yoshga to'lguniga qadar nafaqa

ularning ishlashlari yoki ishlamasliklaridan qat'iy nazar to'lanadi. Shu tariqa, ular mazkur davrda uyda qolish yoki ishlash va bola parvarishi uchun haq to'lashdan birini tanlash imkoniyatlari mavjud.

Fransiyada qo'llab-quvvatlashsiz qolgan homilador ayollar va bolali onalar uchun boshpana tizimi ko'p yillik tarixga ega. Har bir hududda Onalik uylari 1939-yil 29-iyulda Fransiya hukumatining Dekreti asosida joriy etilgan. 1943 yilda mazkur muassasalarning missiyalari shakllantirilgan: "Bolalardan voz kechishning va bolalar o'limining oldini olish". 1945 yil 2 noyabrdagi onalik va bolalikni himoyalash to'g'risidagi Qaror bo'yicha onalik mehmonxonalar yaratilgan bo'lib, ularning maqsadi – onalarni kelgusida ish bilan ta'minlash maqsadida ularni farzandlari bilan qabul qilish. Onalik mehmonxonalar pullik (chunki ishlaydigan onalar uchun tashkil etilgan), onalik uylari esa – bepul. Onalik markazlari Fransiyaning barcha hududlarida tashkil etilgan. Onalarni joylashtirish uchun asos: o'z ixtiyoriga ko'ra murojaat etish (ishonch telefonlariga qo'ng'iroq qilish va mos ravishdagi boshpanaga kelish) yoki sudning qarori.

**Shvetsiyada** bolalar va homilador ayollarning salomatligini nazorat qilish tizimi mavjud. Shvetsiyada ijtimoiy ishning tashkil etilishi yolg'iz ota yoki ona bo'lish hamda kasbiy o'sishga yo'naltirilgan. Shuning uchun Shvetsiyada oilaga nisbatan ijtimoiy siyosat bilan bir qatorda, ma'lumot egallashni targ'ib etuvchi ish joylarini yaratish, o'qitish, qayta o'qitish va bandlikka yo'naltirilgan dasturlar faol amalga oshiriladi, shu jumladan yosh bolali onalar uchun. Yolg'iz onalar maxsus nafaqalar oladilar, ammo ular ishlamayotgan onani ta'minlash uchun emas, balki faqatgina bola uchun mo'ljallanadi. Shu bilan birga, davlat nafaqat ish joylari bilan ta'minlaydi, balki onaning ko'p haq to'lanadigan ishga ega bo'lishi uchun qayta o'qitish va mutaxassislik egallash davrida vaqtinchalik to'lovlar ajratadi.

Shu tariqa xalqaro tajribada erta ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo'yicha ulkan tajribalar to'plangan bo'lib, ularni o'rganish qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolaning huquqlarini himoyalash sohasidagi umumiy tendensiyalarni va yagona tamoyillarni aniqlash imkonini beradi, buning uchun esa quyidagilar talab etiladi:

- tarbiyaviy-profilaktika va himoya faoliyatini professionallashtirish, oilaviy tarbiya sharoitlarini sog'lomlashtirish bo'yicha ijtimoiy pedagoglar, ijtimoiy ish xodimlari, psixologlar maxsus lavozimlarini kiritish;

- oilalar, bolalar, yoshlarga ko‘maklashuvchi maxsus tuzilmalar tarmog‘ini yaratish; og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollar va bolalar uchun psixologik xizmatlar, konsultatsiyalar, ishonch telefonlari, ijtimoiy boshpanalarni yaratish;

- yosh onalarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik-pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish, xatar guruhidagi oilalarning oilaviy tarbiya sharoitlarini sog‘lomlashtirish bo‘yicha maxsus ishlarni tashkil etish.

Xorijiy davlatlar ish tajribasining ko‘rsatishicha, minimal resurslar bilan qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayolga yordamni tashkil etish va yangitug‘ilgan chaqaloqlardan voz kechishning oldini olish mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. J.Boulbi, o‘zining tadqiqotlarida internat tipidagi muassasalarning salbiy oqibatlarini xaqida qanday fikrlarni bildirib o‘tgan?
2. Institutsionallashtirish bolaning miyasiga qanday ta‘sir etishini tushuntirib bering?
3. Bolaning erta yoshdan internat tipidagi muassasaga joylashtirilishi, uning bosh miyasiga qanday salbiy ta‘sir ko‘rsatadi?
4. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga Bolalar uyi nimalarni berolmaydi?
5. Bog‘lanish nima va u bolaning rivojlanishida qanday o‘rin tutadi?
6. Deprivatsiya tushunchasini yoritib bering.
7. Bolani yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar muassasasiga “vaqtincha” joylashtirish shakllari xaqida ma‘lumot bering.
8. Farzandidan voz kechish niyatida bo‘lgan ayollar bilan ishlashning xalqaro tajribalari xaqida ma‘lumot bering.

### III. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

#### 1-amaliy mashg‘ulot: Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar tushunchalari va ularning mohiyati.

**Ishdan maqsad:** yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyotini ijtimoiy ish usullari yordamita o‘rganish.

**Masalaning qo‘yilishi:** yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyotini sifat ko‘rsatkichlarini yuqori darajagako‘tarish.

#### Nazorat savollari:

1. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar tushunchasini izohlang.
2. Patronat bolalarni oilaga joylashtirish shakllini tushuntiribbering.
3. Ijtimoiy yetim tushunchasini izohlang.
4. DeinstitutSIONalizatsiya tushunchasining mohiyatini tushuntiribbering.
5. InstitutSIONalizatsiya tushunchasining mohiyatini yoritib bering.
6. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yoritib bering.

#### Amaliy mashg‘ulot.

Bugun mashg‘ulotdan nimalarni o‘rgandim va uni qanday ish jarayonimda qo‘llayman shaklidagi jadvalni to‘ldirish. Tinglovchilar nimani oldindan bilar edi, dars jarayonida nimalarni bilishni hohlagan edi, nimalarni bilib olganligini tahlil qiladi. “BBB” metodi yordamida.

Bilardim	Bilishni xohlagan edim	Bilib oldim

#### 2-amaliy mashg‘ulot: Yetimlik sotsial hodisa sifatida institutSIONalashuvi

**1-ish:** Yetim tushunchasini mazmun mohiyatini tushuntirib bering.

**2-ish:** Avestoda yetim-yesir bolalar va faqir, beva-bechora kishilarga nisbatan munosabat qanday bo‘lgan?

**3-ish:** Islomda yetim-yesir bolalar va faqir, beva-bechora kishilarga nisbatan munosabat qanday bo‘lgan?

**4-ish:** Sharq mutafakkirlarining yetimlik to‘g‘risidagi fikrlarini tushuntirib bering?

**5-ish:** O‘zbekiston Respublikasida yetim va qarovsiz bolalarni ijtimoiyhimoya tizimini yoritib bering?

**6-ish:** G‘arbda yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o‘rganilishi tarixiniyoritib bering.

**7-ish:** bugun mashg‘ulotdan nimalarni o‘rgandim va uni qanday ish jarayonimda qo‘llayman shaklidagi jadvalni to‘ldirish. Tinglovchilar nimani oldindan bilar edi, dars jarayonida nimalarni bilishni hohlagan edi, nimalarni bilib olganligini tahlil qiladi. “BBB” metodi yordamida.

Bilardim	Bilishni xohlagan edim	Bilib oldim

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa):** yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga ijtimoiy xizmatni baholash shakllarini ish faoliyatida qo‘llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

**3-amaliy mashg‘ulot: Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalarida aks ettirilishi.**

1. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro tajribasini yoritib bering.
2. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga oid qanday xalqaro va milliy darajadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?
3. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasininshg mohiyatini tushuntirib bering.
4. Oila Kodeksining “Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari” to‘g‘risidagi II-bo‘limida nimalar deyilgan?

5. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibini yoritib bering.
6. Qanday toifadagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar?
7. Qanday hollarda ota-onaning roziligisiz farzandlikka olishga yo'lqo'yiladi?

### **Xavf ostida bo'lgan bolalarni ijtimoiy va pedagogik qo'llab-quvvatlash"**

#### **Vazifa-vaziyat tuzilishi:**

1. O'qituvchi yoki o'quvchilar odatdagi professional vaziyatlarni tanlaydilarva ta'riflaydilar.
2. Ushbu muammolarni hal qilishda ijtimoiy pedagogning maqsad va vazifalarini belgilaydi.  
  
Vaziyat parametrlarini: muammo turi, taqdim etilgan yordam turlari, ichki muloqot, tashqi aloqa, vaziyatni hal qilish uchun vaqt) tasvirlab beradi.
4. Ijtimoiy o'qituvchining ushbu holatni hal qilish bo'yicha tanlangan usullari va shakllari.

#### **Odatda professional vaziyatlarning tavsifi.**

**Vaziyat ta'rifi 1.** Katta oila, 13 yoshli o'g'li kechikib, tez-tez sarosimaga tushadi. Ota-onasi bilan bo'lgan munosabatlar yomonlashdi, bola maslahatiga quloq solmadi.

**Vaziyatning 2 ta'rifi.** To'qqizinchi sinf o'quvchisi beshinchi qavatdan sakrab chiqdi. Ona axloqsiz hayot tarzini olib keladi. Bolaning so'zlariga ko'ra, otasi vafotidan keyin onasi tarbiyasi haqida g'amxo'rlikni to'xtatib, uyga boshqa odamlarni olib keladi, ichimliklar, uyda uxlamaydi. Bola hozir uyda ishlaydi. Vanya 13 yoshda, oilada yagona bola. 5-sinfgacha maktabda qiyinchiliklar bo'lmagan. 6-sinfda muntazam o'tishlar boshlandi. Qo'shnilar ba'zan Vanyani norasmiy guruhlariga xos kiyimda kiygan uzun sochli bolalarning davrasida ko'rgan. U ba'zan do'stlari bilan tunni o'tkazdida keyin deyarli har doim ular bilan birga o'ynashni boshladi. Uyda hafta mobaynida ko'rinmadi. O'qituvchi onasi bilan suhbatlashganda, Vanyaning battar jahli chiqdi va u bilan aloqa yo'qoldi. Uning muammolaridan azob chekadi: eri turmush o'rtog'ini tark etdi.

**4-amaliy mashg'ulot: Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalarida aks ettirilishi.**

**1-ish:** Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro tajribasini yoritib bering.

**2-ish:** Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga oid qanday xalqaro va milliy darajadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?

**3-ish:** BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasining mohiyatini tushuntirib bering.

**4-ish:** Oila Kodeksining "Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari" to'g'risidagi II-bo'limida nimalar deyilgan?

**5-ish:** Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibini yoritib bering.

**6-ish:** Qanday toifadagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar?

**7-ish:** Qanday hollarda ota-onaning roziligisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi?

**8-ish:** bugun mashg'ulotdan nimalarni o'rgandim va uni qanday ish jarayonimda qo'llayman shaklidagi jadvalni to'ldirish. Tinglovchilar nimani oldindan bilar edi, dars jarayonida nimalarni bilishni hohlagan edi, nimalarni bilib olganligini tahlil qiladi. "BBB" metodi yordamida.

Bilardim	Bilishni xohlagan edim	Bilib oldim

**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa):** O'zbekistonda yetimva ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni noinstitutlashtirish muammolarini tahlil qilish

## **5-Amaliy mashg'ulot: Erta ijtimoiy yetimlikni oldini olish muammosi: nazariya va amaliyot.**

**Bir sahifada qisqa insho yozing (insho) "Mening shaxsiy tajribam va erta ijtimoiy yetimlikni oldini olish muammosiga munosabatim" mavzusida**

**10 daqiqada. Insho matnlarini muhokama qilish ikkita guruh, keyin to'rtta tinglovchi. Javob quyidagi savollar:**

1. J.Boulbi, o'zining tadqiqotlarida internat tipidagi muassasalarning salbiy oqibatlari xaqida qanday fikrlarni bildirib o'tgan?
2. Institutsionallashuv bolaning miyasiga qanday ta'sir etishini tushuntirib bering?

### **Bu muammoni bizning kursimizda muhokama qilamizmi?**

1. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga Bolalar uyi nimalarnibera olmaydi?
2. Bog'lanish nima va u bolaning rivojlanishida qanday o'rin tutadi?
3. Deprivatsiya tushunchasini yoritib bering.
4. Bolani yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muassasasiga "vaqtincha" joylashtirish shakllari xaqida ma'lumot bering.
5. Farzandidan voz kechish niyatida bo'lgan ayollar bilan ishlashning xalqaro tajribalari xaqida ma'lumot bering.

**Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar haqidagi zamonaviy "mif" larga misollar keltiring.**

Qanday ijobiy va salbiy tomonlar bor uyushgan va uyushmaganyoshlarning alohida ta'limini ta'minlash

2. Jozibador tizim integratsiyalashgan ta'lim
3. Integratsiyaga o'tishda qanday qiyinchiliklar yuzaga keladi ta'lim qanday qilib ularni bartaraf etish mumkin?



## GLOSSARIY

№	Termin	Izoh	Description
1.	<b>Ijtimoiy himoya</b>  <b>Social protection</b>	Keng ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda davlat va jamiyatning yoshi, salomatlik holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi.	A set of legal, economic, social measures that provide social and material protection of the population of the country in the broadest sense and are determined by society; in a narrow sense, the state and society's care for citizens in need of assistance due to age, health status, social status, inadequate provision of livelihoods.
2.	<b>Ijtimoiy ish</b>  <b>Social work</b>	Yordamga (og'ir hayotiy vaziyatlarda turgan), o'zining hayotiy muammolarini, ko'p hollarda esa turmush kechirishini begonalar ko'magisiz hal qilishga qodir bo'lmagan odamlarga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, kasbiy faoliyatdir.	It is a professional activity aimed at helping (standing in difficult life situations), helping people who are unable to solve their life problems, and in many cases their marriage, without the help of strangers.
3.	<b>Ijtimoiy nafaqa</b>  <b>Social benefits</b>	Muayyan sabablarga ko'ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan va doimiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan nafaqa.	State benefits for citizens who, for some reason, are unable to work and need constant assistance.
4.	<b>Yetimlik</b>  <b>Orphan</b>	Yetim bolalar ahvolini ifoda etuvchi ijtimoiy tushuncha	A social concept that expresses the condition of orphans
5.	<b>Yetim</b>  <b>An orphan</b>	O'z oilasidan vaqtincha yoki butunlay mahrum bo'lgan yoki o'z manfaatlari yo'lida bunday oilada qola olmaydigan bola davlatning alohida himoyasiva yordamini olish huquqiga egadir	A child who is temporarily or completely deprived of his or her family or who is unable to stay in such a family for his or her own interests is entitled to special protection and assistance from the state.
6.	<b>Vaqtinchalik yetimlik</b>  <b>Temporary orphanhood</b>	Bola ota-onasidan moddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq holda, o'z ota-onalik huquqlarini saqlash sharti bilan davlatga topshirilganlardir.	The child is transferred from the parents to the state on the condition of respecting their parental rights due to financial difficulties.
7.	<b>Vasiylik</b>	O'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining	Orphans and children deprived of parental care

	<b>Guardianship</b>	qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiynomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli	under the age of fourteen, as well as citizens who have been declared incompetent by a court, shall be provided with maintenance, upbringing and education, their property and personal non-property. legal form of placement in order to protect their rights and legitimate interests
8.	<b>Homiylik Sponsorship</b>	O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yetim bolalarni va ota- onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli	Orphans and children deprived of parental care between the ages of fourteen and eighteen, as well as citizens with disabilities who have been treated by a court, shall be entitled to their maintenance, upbringing and education. a legal form of placement for the purpose of protecting property and personal non-property rights and legitimate interests
9.	<b>Bola Child</b>	“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zR Qonunining 3-moddasiga binoan o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs	According to Article 3 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On guarantees of the rights of the child" a person under the age of eighteen
10.	<b>Ota-ona qarovsiz qolganbola A child left without parental care</b>	Ota-ona yoki har ikkala ota-onaga g‘amxo‘rliksiz qoldirilgan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar: ota-ona huquqlaridan mahrum etish; ota- ona huquqlarini cheklash; ota- onalarni tibbiy muassasalarda yetishmayotgan, malakasiz (qisman qobiliyatli) deb topish, ularni to‘lik deb e‘lon qilish, qamoq jazosini o‘tash, qamoqda saqlash, gumon qilinish va jinoyat sodir etishda ayblashda ayblash; ota-onalarni bolalarni tarbiyalashdan yoki o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilishdan qochish; ota-onalarning farzandlarini ta‘lim, tibbiyotva ijtimoiy ta‘minot muassasalari, shunga o‘xshash	Persons under the age of 18 who have been left without parental or both parental care: deprivation of parental rights; restriction of parental rights; finding parents missing, incompetent (partially capable) in medical facilities, declaring them full, serving a sentence of imprisonment, incarceration, suspicion and accusation of a crime; parents to avoid raising children or protecting their rights and interests; refusal of parents to recognize

		boshqa tashkilotlar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani qonun bilan belgilangan tartibda tan olishdan bosh tortishi.	their children in educational, medical and social security institutions, other similar organizations and a child deprived of parental care in the manner prescribed by law.
11.	<b>Foster oila</b> <b>Foster family</b>	Bolaga haqiqiy ota-onasi o'rniga har kuni kun bo'yi qaraydigan oila yoki yolg'iz qarovchiga qoldirish. U ba'zida oila g'amxo'rligi o'rnini bosadi.	Leaving the child in the care of a family or a single caregiver who looks after them every day instead of the real parent. It sometimes replaces family care.
12.	<b>Individuallik</b> <b>Individuality</b>	Turli xil vaziyatlarda o'zgarmaydigan inson xarakterining qirralari. Belgi sifatlarining o'ziga xosligi bilan individuallik umumiylikka (individ esa umumga) qarama-qarshi qo'yiladi.	Aspects of human character that do not change in different situations. With the specificity of character traits, individuality is contrasted with generality (and the individual with generality).
13.	<b>Nogironlik</b> <b>Disability</b>	Jismoniy, aqliy, hissiy va aqliy nuqsonli shaxslarning faoliyatida to'siqlar yoki cheklovlar mavjud bo'lgan insoniy holat.	A human condition in which there are barriers or limitations in the activities of individuals with physical, mental, emotional, and intellectual disabilities.
14.	<b>Nikoh</b> <b>Marriage</b>	Er-xotin va boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy institut	A social institution that regulates the relationship between a couple and other close relatives
15.	<b>Ko'p bolali oila</b> <b>A family with many children</b>	4 va undan ortiq farzandlarni tarbiyalayotgan oila	A family raising 4 or more children
16.	<b>To'liq bo'lmagan oila</b> <b>Incomplete family</b>	Bolalar yolg'iz ota yoki onasi bilan yashaydigan oila.	A family where children live with a single parent.
17.	<b>Noqobil oila</b> <b>Incompetent family</b>	(oilada ichki munosabatlarning buzilishi), masalan, oilaviy nizo, konfrontatsional munosabat usuli ega, tez-tez oilada mojaro; yoki amoral oila, bola xuquqlarini buzilishiga yo'l qo'yilgan oila, ularga shavqatsiz munosabat, ota-onaning	(disruption of internal relations in the family), for example, family conflict, having a method of confrontational attitude, frequent conflict in the family; or an immoral family, a family where the rights of the child have

		majburiyatlari bajarilmaydi, bolalarni sotadi, ularni turli maqsadlarda uchinchi shaxslarga o'tkazadi	been violated, cruel treatment of them, non-fulfillment of parental obligations, sale of children, transfer of them to third parties for various purposes
18.	<b>Xatarni baholash</b> <b>Risk assessment</b>	Mijozga yoki boshqa kishiga biror zarar yetishi yehtimolini baholash. Xatarni baholash mijozga jabrning muayyan turlari sodir bo'lishi yoki ma'lum holatda mijoz tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi yehtimollarini yehtiyotkorlik bilan o'lchashni bildiradi.	Assess the likelihood of any harm to the customer or another person. Risk assessment involves carefully measuring the likelihood that a particular type of harm will occur to the client or that it may be committed by the client in a particular situation.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilanbirga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilganeng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagifarovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.–T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909- sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabr “2019- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr “Ilm- fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-

6097-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797- sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182 sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 oktyabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi VMQ-889 sonli Qarori.

### **Sh. Maxsus adabiyotlar**

13. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.

14. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B., Nazirova E.Sh., Sadikova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari. – T.: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2014. – 192 b.

15. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Account 2015. - 134 pp.

16. Paul Kim. Massive Open Online Courses: The MOOC Revolution. Routledge; 1 edition 2014. - 176 pp.

17. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.

18. Yusupbekov N.R., Aliev R.A., Aliev R.R., Yusupbekov A.N. Boshqarishning intellectual tizimlari va qaror qabul qilish. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN. 2015. – 572 b.

19. A.Haitov, M.Ziyadullayev. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti va xorij tajribasi. Toshkent “Adolat” 2009 y.

20. Актуальные проблемы пенсионной реформы / V.S.Nazarov. – M.: Izdatelstvo “Delo” RANX, 2010. – 144 s. (elektron)

21. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Yu. i dr. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Novosibirsk:

Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

22. Belikova T.N., Minayeva L.N. Pensiya: raschet i poryadok oformleniya. – SPb.: Piter, 2011. – 224 s. (elektron)

23. Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – Toshkent. “Universitet”. 2017 yil. 128 b.

24. Dalimov.R.T. Mirovoy opyt reformirovaniya pensionnoy sistemy i yego primeneniya v usloviyax perexodnoy ekonomiki.Tashkent.“Universitet” 2003 g.
25. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti: O‘quv qo‘llanma / B.S. Mamatov; - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 168 b.
26. Ignatova N. Yu. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.  
[http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)
27. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta‘minotga kirish: Darslik / A.V. Vaxabov, Sh.Sh. Zaxidova, B.B. Baxtiyorov, D.Sh. Odinaev, J.N.Fayzullayev; - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 168 b.
28. Информационные технологии в педагогическом образовании / Kiselev G.M., Bochkova R.V. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Dashkov I.K. 2018. - 304 s.
29. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti. 2013, 2016. – 279 b.
30. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B. Информационные системы. - T.: Aloqachi. 2017. - 256 str.
31. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. / pod. red. Popova V.V., Kruglova Yu.G.-3-ye izd.–M.: “BINOM. Laboratoriya znaniy”. 2012. – 319 s.
32. Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 280 bet.
33. Pavlenok P. D., Rudneva M. Ya. Tehnologii sotsialnoy raboty s razlichnymi gruppami naseleniya: Ucheb. posobiye / Pod red. P. D. Pavlenka. Moskva: INFRA-M, 2010.
34. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi: Darslik/ A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev, B.B. Baxtiyorov, J.N. Fayzullayev, Sh.R. Raxmanov, D.Sh. Odinaev; - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 400 b.
35. Platonova N. M. P375 Innovatsii v sotsialnoy rabote: ucheb. posobiye dlya stud. uchrejdeniy v yssh. prof. obrazovaniya / N. M. Platonova, M.Yu. Platonov. – 2-ye izd., ster. – Moskva: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2012. – 256 s. – (Ser. Bakalavriat).
36. Savinov L. I. Sotsialnaya rabota s detmi v semyax razvedennykh roditeley: Uchebnoye posobiye / L. I. Savinov, Ye. V. Kamyshova. – 5-ye izd., pererab. i dop. – Moskva: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2012. – 260 s.
37. Sotsialnaya rabota s razlichnymi gruppami naseleniya. Pod redaksii N.F.Basova. – Moskva. 2017.
38. Teoriya i metodika sotsialnoy rabota. Otv. redaktor T.V.Maykin. – Moskva. 2017.
39. Tehnologii sotsialnoy raboty s molodejyu. Pod redaksii N.F.Basova. – Moskva. 2018.
40. Umurzakov B.X. Problemy pensionnogo obespecheniya v usloviyax gipnochnykh otnosheniy. Tashkent “Fan”, 2005 g.

41. Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet

42. Xolostova Ye. I. Sotsialnaya rabota: Uchebnik dlya bakalavrov / Ye.I. Xolostova. – Moskva: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya “Dashkov i k”, 2012. – 612 s.

#### **IV. Internet saytlar**

43. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:  
[www.edu.uz](http://www.edu.uz).

44. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)

45. [www. Ziyonet. Uz](http://www.ziyonet.uz)

46. <http://ssopir.ru/>

47. <http://www.socialwork-archive.org/>

48. <http://www.socialwork.ru/3w78rmf09a.html>

49. Social Work International Platform

50. <http://www.socialworker.com/>

51. <http://socialworkpodcast.com/>

52. <http://soc-work.ru/>